

TARIXDAN HIKOYALAR

*Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining
5-sinfi uchun darslik*

2-nashri

*Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi
vazirligi tomonidan tasdiqlangan*

*Choʻlpon nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi
Toshkent – 2015*

UO‘K: 372.893(075)
KBK 63.3(5O‘)ya72
J96

Mualliflar:

U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayeva

Darslikning metodik qurilmasi G. Jo‘rayeva tomonidan ishlangan.

Mas‘ul muharrir:

O‘. Mavlonov – Avloniy nomidagi XTXQTMOMI «Ma‘naviyat asoslari» kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori.

Taqrizchilar:

A. Hazratqulov – tarix fanlari doktori;

Sh. Ergashev – tarix fanlari nomzodi;

A. Xidirov – O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



O‘zingizni sinang.



Matnni o‘qib, tushunib o‘rganing.



Matnda uchraydigan tarixiy shaxslar, joylar va atamalarni bilib oling.



Mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni sinab ko‘rish uchun savollar.

**«Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari
hisobidan chop etildi».**

ISBN 978-9943-05-737-1

© U. Jo‘rayev va boshq., 2015
© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2015



KIRISH: TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO‘Q

Vatan ta’rifi. Vatan! Bu so‘z zamirida olam-olam ma’no bor. Vatan – aziz muqaddas va mo‘tabar yurtidir.

Yodda tuting!

«Vatan» arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt degan ma’noni anglatadi.

Vatan – biz tug‘ilgan makon. Kindik qonimiz to‘kilgan tuproq. Vatan – bu oltin beshik. Ota-onamiz, qarindoshlarimiz va do‘stlarimiz bilan birga yashayotgan zamin. Bobolarimizning izlari qolgan yer. Ajdodlarimiz yurti, yurakdagi javohirdir.

Vatan – jonajon shahringiz va qishlog‘ingizdir. Insonning qalbi, orzu-umidlari, quvonchlari va kelajagi Vatani bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muqaddas «Vatan» so‘zi mo‘tabar «ona» so‘zi bilan yonma-yon turadi. Chunki, Vatan ham ona kabi yagonadir.

Siz kinofilmlarda turli sabablarga ko‘ra uzoq muddat chet ellarda bo‘lib, o‘z Vataniga qaytgan kishilarining samolyotdan yoki poyezddan tushgach tiz cho‘kib ona Vatanlarining tuprog‘ini o‘rganlarini va ko‘zlariga surtganlarini ko‘rgansiz. Bu manzarada ularning Vatanga bo‘lgan muhabbatlari, Vatanning sajdagohdek muqaddas ekanligining yorqin namunasini ko‘ramiz.

O‘zbekiston – bizning Vatanimiz. O‘zbekiston o‘tmishda Turon, Movarounnahr va Turkiston nomlari bilan atalgan. Ming yillar mobaynida mamlakatimiz hududida xilma-xil dinlar va madaniyatlarga ega bo‘lgan insonlar tinch-totuv yashab kelganlar. Diyorimiz o‘zining go‘zal tabiati, unumdor tuprog‘i, bitmas-tuganmas boyliklari bilan doim barchaning e‘tiborini tortib kelgan.

*O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.*

(H. Olimjon)

Hatto Vatanimizni bosib olganlar ham xalqimiz yaratgan boy madaniyatiga tan berganlar. Ayni shu zaminda ko‘p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari bir-birini boyitgan.

Vatanimiz salkam uch ming yillik tarixga ega. Bu davrlarda mamlakatimizdan jahon ilm-fanining rivojiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk allomalar, olimlar yetishib chiqdi. Siz o‘quvchilar esa Vatanimiz O‘zbekistonning kelajagisiz. O‘zbekiston dunyoning ilg‘or davlatlaridan biri bo‘lishga intilmoqda.

Bu buyuk maqsadning ro‘yobga chiqishida Vatanimiz Sizni hamma havas qilgudek farzand bo‘lib kamol topishingizga ishonch bilan qaraydi.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q». Dunyodagi zo‘ravon kuchlar qaysi bir xalqni o‘ziga tobe qilmoqchi, bo‘ysundirmoqchi bo‘lsa, avvalambor uning buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi. Yurtboshimiz Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida «O‘z tarixini bilmay-

digan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q» deb bejiz ta’kidlamaganlar. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan aytilgan bu hikmatli so‘zlar Sizni Vatanimizning tarixini puxta egallashga da’vat etadi.

Vatanimizning o‘tmishi buyuk, uning kelajagi ham shubhasiz buyukdir. O‘tmishdagi buyuklik nimalardan iborat bo‘lganligini va kelajakdagi buyuklik yo‘lida qanday ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligini tarix fanini bosqichma-bosqich o‘rganish orqali bilib olasiz.

«**Tarixdan hikoyalar» darsligi bilan ishlash.** Qo‘lingizdagi darslik Sizni tarixning sirli olamiga sayohatga yetaklaydi. Siz mavzularni o‘rganishdan oldin ularning sarlavhasini e’tibor bilan o‘qing.

«*Yodda tuting*» deb to‘g‘ri to‘rtburchak ichida ajratib yozilganlarni eslab qolishga harakat qiling.

«*Diqqat bilan o‘qing*» topshirig‘i Sizni to‘g‘ri to‘rtburchak ichidagi matnni diqqat bilan o‘qishga undaydi. O‘qib chiqqach uning mazmuni haqida mulohaza yuriting.

Darslikdagi «*O‘zingizni sinang*» topshirig‘i Sizni darsda olgan bilimlaringizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darslikdagi «*Mustaqil ish*» uchun berilgan topshiriqdan qanday maqsad ko‘zlanganligiga diqqatingizni qarating.

Mustaqil ish – sizning tarixdan olayotgan bilimingizning ko‘zgusi ekanligini unutmang.

«*Atamalar mazmunini bilib oling*» topshirig‘i bekorga kiritilmaganligini alohida ta’kidlamoqchimiz. Atamalarni o‘z o‘rnida ishlatish uchun ularning ma’nosini bilib olishingiz zarur bo‘ladi. Sizning vazifangiz atamalarning nomini va mazmunini puxta bilib olishdir.

Darslikning «*Savol va topshiriqlar*» qismi Sizni kelgusi darsga tayyorlanishingizda yordam beradi.

Darslikni avaylab tuting. Chunki, sizdan keyin bu darslikdan ukalaringiz foydalanishadi.

Bu Sizning o‘quvchilik burchingizdan biri ekanligini doimo yodda saqlang.

Savol va topshiriqlar



1. «Vatan» tushunchasiga ta’rif bering. Siz darsligingizda bu tushunchaga berilgan ta’rifga yana nimalarni qo’shgan bo’ladingiz?
2. «Tarixiy xotirasiz, kelajak yo‘q» degan hikmatli iboraning mazmuni haqida nimalarni ayta olasiz?
3. Vatan haqida qanday she’rlarni yod olgansiz?
4. Maktabingiz kutubxonasidan Vatanimizni dunyoga tanitgan buyuk siymolar, vatanparvar qahramonlar haqidagi kitoblardan o‘qing va ularni hikoya qiling.

MUSTAQIL ISH

Uyda ota-onangizdan ispan yozuvchisi Migel de Servantesning quyidagi so‘zlarining mazmunini tushuntirib berishlarini so‘rang: «Tarix – faoliyatimiz xazinasini, o‘tmish guvohi, bugungi kun uchun ibrat va o‘git, kelajak uchun esa ogohlantirishdir».



I bob. TARIX FANI NIMANI O'RGANADI?

1-§. TARIXIY MANBALAR



Tarix fani haqida. Tarix o'tmish haqidagi fandır.

Yodda tuting!

«Tarix» arabcha soʻz boʻlib, «o'tmish», «o'tgan voqealar haqida hikoya» degan ma'nolarni anglatadi.

Tarix odamlarning eng qadimgi zamonlardan to hozirgacha bosib o'tgan hayot yo'li, bugungi hayotni qanday qurganligi haqida ma'lumot beradi. Tarixni o'rganish orqali odamlarning uzoq va yaqin o'tmishda nima bilan mashg'ul bo'lganliklarini, qanday yashaganliklari hamda qanday tarixiy voqealar yuz berganligini bilib olasiz.

Tarixiy manba. Tarix fani tarixiy manbalar asosida yaratiladi. Xo'sh, tarixiy manba nima o'zi?

Diqqat bilan o'qing!

Tarixiy manba tarixdan ma'lumot beruvchi barcha tarixiy narsalar va yozib qoldirilgan turli xil hujjatlar hamda kitoblardir.

Manbashunos olimlar ularni sinchiklab o'rganadilar va tarix fani uchun zarur ma'lumotlar to'playdilar.

Tarixiy manbalar, o'z navbatida, moddiy (ashyoviy) va yozma manbalarga bo'linadi.

Moddiy manbalar. Qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari, ular yashagan makon, turarjoylarning, shuningdek, qal'a va shaharlarning,



Toshdan yasalgan mehnat quroli.



Devorga chizilgan rasm.



Toshga aylangan iz.



Xat yozilgan sopol.

Oyoq	Yulduz	Omoqch

Rasmlarning mixxatli belgilarga aylanishi.

sug'orish inshootlarining, uy-ro'zg'or hamda zebziynat buyumlarining qoldiqlari zarb etilgan tangalar, gerblar, muhrlar hamda mehnat qurollari moddiy manbalarni tashkil etadi. Moddiy manbalarni arxeologlar to'plashadi. Ular o'tmishda odamlar yashagan deb taxmin qilingan manzilgohlarda qazish ishlarini olib boradilar. Shu yo'l bilan moddiy manbalarni tashkil etuvchi turli ashyolarni topadilar. Ularning yaratilgan vaqtini va yoshini aniqlaydilar.

Yozma manbalar. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Bundan qariyb besh ming yil avval ayrim xalqlar yozish uchun alohida belgilar yaratdilar. Qoyatosh va qattiq buyumlarga o'yib tushirilgan bitiklar, hayvon terisi, daraxt po'stlog'i, keyinchalik qog'ozga yozilgan yozuvlar, turli davrlarda yozilgan qo'lyozmalar, kitoblar, shuningdek, arxivlarda saqlanayotgan tarixiy hujjatlar yozma manbalardir.

O'zbekiston tarixiga oid eng qadimgi yozma manba «Avesto» kitobidir. Unda qadimgi tariximizga oid juda qimmatli ma'lumotlar mavjud. Qadimgi Xorazm, sug'd, baqtriya va turkiy yozuvlarida bitilgan yozma manbalar ham Vatanimiz tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, qadimgi Eron hukmdorlarining bitiklari, qadimgi Yunoniston (Gretsiya), Rim va Xitoy olimlarining asarlarida ham Vatanimiz tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan.



O‘zingizni sinang

- ◆ Moddiy manba – bu
- ◆ Yozma manba – bu

Atamalar mazmunini bilib oling



Arxiv – eski hujjatlar, yozma yodgorliklar saqlanadigan joy.¹

Tarixiy hujjatlar – tarixiy voqea va hodisalar haqida guvohlik beruvchi, arxivlarda saqlanayotgan qaydnomalar (yozuvlar), suratlar.²

Savol va topshiriqlar



1. *Tarix fani haqida nimalarni bilib oldingiz?*
2. *Tarixiy manbalar nima va ular tarix fani uchun qanday ahamiyatga ega?*
3. *Moddiy (ashyoviy) va yozma manbalarni taqqoslang. O‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.*
4. *Vatanimizning qadimgi tarixi haqida yozib qoldirilgan yozma manbalar haqida so‘zlab bering.*

2-§. KALENDARLAR TARIXIDAN



Kalendar tarixi. «Kalendar» lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «qarz daftari», «har oyning birinchi kuni» degan ma‘nolarni anglatadi. Hayotimizda esa kalendar vaqtning kunlarga, haftalarga, oylarga va yillarga bo‘lib hisoblanishidir. Kalendarida yil, oy va kunlarning nomlari yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Kalendarlar bizning bobolarimiz tomonidan «taqvim»lar deb yuritilgan.

Diqqat bilan o‘qing!

Yil – Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketadigan vaqt o‘lchov birligi. Unga ko‘ra, bir yil 365 kunga, har to‘rt yilda esa bir marta 366 kunga teng bo‘lib keladi.

Hozir dunyoning ko‘p davlatlarida, shuningdek O‘zbekistonda ham foydalanilayotgan kalendar «Grigorian kalendari» deb ataladi.

Kalendarning vatani. Dastlabki kalendar qadimgi Misrda yaratildi. Misrliklar o‘zlari uchun hayot-mamot masalasi bo‘lgan Nil daryosining qachon toshishini kuzatganlar.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati (keyingi o‘rinlarda: O‘TIL). – T.: «ЎЗМЭ». 2007. 1-jild. 102-bet .

² O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2004. 5-jild. 556-bet.

Misrliklar Nil daryosining toshqiniga qadar kanallarni tozalab, to'g'onlarni tuzatib qo'yishlari kerak edi. Kundalik kuzatuv daryoning keyingi toshqiniga qadar oradan 365 kun o'tishini ko'rsatgan. Shu tufayli misrliklar 365 kunni 30 kunlik qilib, 12 oyga bo'lganlar. Qolgan besh kunni bayram kunlariga ajratib, yil oxiriga qo'shimcha sifatida joylashtirganlar. Shu tariqa dastlabki kalendar vujudga keldi. Biroq, misrliklar yil hisobida 6 soatga yangilishgan edilar. Bu 6 soatlik farq har 4 yilda bir sutkalik xatolikni keltirib chiqargan.



Yuliy Sezar.

YANVAR	FEVRAL	MART
Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 5 12 19 26	Shu 1 5 12 19 26
Shu 2 9 16 23 30	Shu 1 6 13 20 27	Shu 1 6 13 20 27
Shu 3 10 17 24 31	Shu 1 7 14 21 28	Shu 1 7 14 21 28
Shu 4 11 18 25	Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 8 15 22 29
Shu 5 12 19 26	Shu 1 9 16 23	Shu 1 9 16 23 30
Shu 6 13 20 27	Shu 1 10 17 24	Shu 1 10 17 24 31
Shu 7 14 21 28	Shu 1 11 18 25	Shu 1 11 18 25
APREL	MAY	IYUN
Shu 1 2 9 16 23 30	Shu 1 7 14 21 28	Shu 1 4 11 18 25
Shu 3 10 17 24	Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 5 12 19 26
Shu 4 11 18 25	Shu 1 9 16 23 30	Shu 1 6 13 20 27
Shu 5 12 19 26	Shu 1 10 17 24 31	Shu 1 7 14 21 28
Shu 6 13 20 27	Shu 1 11 18 25	Shu 1 8 15 22 29
Shu 7 14 21 28	Shu 1 12 19 26	Shu 1 9 16 23 30
Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 13 20 27	Shu 1 10 17 24
IYUL	AVGUST	SENTABR
Shu 1 2 9 16 23 30	Shu 1 6 13 20 27	Shu 1 4 11 18 25
Shu 1 3 10 17 24 31	Shu 7 14 21 28	Shu 1 5 12 19 26
Shu 4 11 18 25	Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 6 13 20 27
Shu 5 12 19 26	Shu 1 9 16 23 30	Shu 1 7 14 21 28
Shu 6 13 20 27	Shu 1 10 17 24 31	Shu 1 8 15 22 29
Shu 7 14 21 28	Shu 1 11 18 25	Shu 1 9 16 23 30
Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 12 19 26	Shu 1 10 17 24
OKTABR	NOYABR	DEKABR
Shu 1 2 9 16 23 30	Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 4 11 18 25
Shu 3 10 17 24 31	Shu 7 14 21 28	Shu 1 5 12 19 26
Shu 4 11 18 25	Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 6 13 20 27
Shu 5 12 19 26	Shu 1 9 16 23 30	Shu 1 7 14 21 28
Shu 6 13 20 27	Shu 1 10 17 24	Shu 1 8 15 22 29
Shu 7 14 21 28	Shu 1 11 18 25	Shu 1 9 16 23 30
Shu 1 8 15 22 29	Shu 1 12 19 26	Shu 1 10 17 24

Grigorian kalendar.

di. Oqibatda 1583-yilda bahorgi tengkunlikning 21-martga emas, 11-martga to'g'ri kelib qolishi xavfi tug'ildi.

Grigorian kalendar. Bu xavfni bartaraf etish maqsadida Rim papasi Grigoriy XIII boshchiligida yangi kalendar joriy etildi. U yuqorida

Yuliy kalendar. Qadimgi Rim davlati hukmdori Yuliy Sezar mil.av. 46-yilda yangi kalendar joriy etdi va yil boshini 1-yanvarga ko'chirdi. Yangi kalendar Yuliy kalendari deb ataldi.¹

Misrliklar kalendarida har 4 yilda to'planib qoladigan bir kunni yo'qotish uchun fevral oyi to'rt yilda bir marta 29 kun davom etadigan qilib belgilandi. Fevral oyi 29 kun bo'lib keladigan yilda bir yil 366 kunni tashkil etdi. Biroq, Yuliy kalendar bo'yicha olib boriladigan yil hisobida ham xatolik bor edi. Bu xatolik tufayli dunyoda yil hisobi har 400 yilda 3 kunga orqada qolib bordi.

Kalendardagi bu xatolik milodning 1582-yiliga kelib 10 kunni tashkil etdi.

¹ Q. Rajabov va bosh. Jahon tarixining muhim sanalari (keyingi o'rinlarda: JTMS). — T.: «Sharq» NMAK. 2011. 85-bet.

ta'kidlanganidek, «Grigorian kalendari» deb ataldi. Bu kalendarni joriy etganlar taklifi bilan 1582-yilning 4-oktabr kuni nihoyasiga yetgach birdaniga 15-oktabrga o'tildi, ya'ni o'rtadagi 10 kun tashlab yuborildi.¹ Yuliy kalendari bo'yicha yil hisobida vujudga kelgan 10 kunlik farq shu yo'l bilan barham topdi. Bahorgi tengkunlik yana 21-martga to'g'ri keladigan bo'ldi.

Avvalgi xatolik yana takrorlanmasligi uchun fevral oyining har 400 yilda 100 marta o'rniga 97 marta 29 kun, har 400 yilda 300 marta emas, 303 marta 28 kun bo'lib kelishi belgilab qo'yildi.

O'zingizni sinang



- ◆ Kalendar — bu
- ◆ Misr kalendaridagi xatolik ... kunni tashkil etgan.
- ◆ Yuliy kalendaridagi xatolik ... kunni tashkil etgan.
- ◆ Grigorian kalendari ... yilda qabul qilindi.



Atama mazmunini bilib oling

Tengkunlik — kunduz ham, tun ham 12 soatga teng bo'ladigan kun.

Savol va topshiriqlar



1. Kalendar va uning ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima uchun bir yil 365 yoki 366 kundan iborat ekanligini izohlab bering.
3. Qadimgi misrliklar kalendarni qanday yaratgan edilar va bu kalendaridagi xatolik nimadan iborat edi?
4. Yuliy kalendarini misrliklar kalendari bilan taqqoslang.
5. Grigorian kalendarining joriy etilishiga nima sabab bo'ldi va unda Yuliy kalendaridagi xatolik qanday bartaraf etildi?

MUSTAQIL ISH

Kalendarlarni taqqoslang va jadvalni to'ldiring


Kalendarlari	Kalendarlarda yil hisobida yo'l qo'yilgan xatoliklar	Xatoliklarni tuzatish uchun nimalar qilindi?
Misrliklar kalendari		
Yuliy kalendari		
Grigorian kalendari		

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. — T.: «Sharq» NMAK. 2011. 197-bet.

3-§. TARIXDA YIL HISOBI



«Milod» va «era» tushunchalari. Hozir dunyodagi davlatlarning ko‘pchiligida, jumladan O‘zbekistonda ham milodiy yil hisobi qo‘llanadi. (Siz bilan biz yashayotgan yil milodiy yildir). Milodiy yil hisobiga Iso payg‘ambar tug‘ilgan yil asos qilib olingan.



Yil hisobi.

Yodda tuting!

Milod (arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «tug‘ilish» degan ma‘noni anglatadi) – hozirgi yil hisobimizning boshi. Tarix kitoblarida «milod» so‘zining o‘rnida «era» so‘zi ham ishlatiladi. «Era» so‘zi «boshlang‘ich raqam», ya‘ni yil hisobining boshi ma‘nosini anglatadi.¹

Milodiy yil hisobida 1-yanvar yil boshi deb e‘tirof etilgan. U hozirgi yilimiz boshlangan birinchi kundir. Tarix kitoblarida, Iso payg‘ambar tug‘ilganidan avval bo‘lib o‘tgan voqealarga nisbatan «miloddan avvalgi» (qisqacha: mil. avv.) iborasi qo‘shib yoziladi. (Masalan: «Miloddan avvalgi IV–III asrlarda lotin alifbosi yaratilgan»).

Milodgacha yil hisobi. Milodgacha turli xalqlar yil hisobini turlicha olib borganlar. Masalan, dastlab yil hisobini ekinlarning hosilini yig‘ishtirib olish boshlangan kundan boshlaganlar va uni yilning birinchi kuni deb belgilab qo‘yganlar. Qadimgi yunonlarda esa yil hisobi birinchi Olimpiya sport o‘yinlari o‘tkazilgan yildan

¹ O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 5-jild. 45-bet.

boshlangan. Rimliklar esa Rim shahriga asos solingan yildan boshlaganlar.

Siz tarixni o'rganishda yana bir holatni yodda tutingki, tarix fanida tarixiy voqea va hodisalar ro'y bergan asr Rim raqamida yoziladi.

Masalan, I (1), II (2), III (3), IV (4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9), X (10), XI (11), XII (12), XIII (13), XIV (14), XV (15), XVI (16), XVII (17), XVIII (18), XIX (19), XX (20), XXI (21) asr. XXI (21) asr 2001-yilning 1-yanvar kundan boshlangan.

I=1	XV=15
II=2	XVII=17
III=3	XX=20
IV=4	XXV=25
V=5	XXX=30
VI=6	XL=40
VII=7	L=50
VIII=8	C=100
IX=9	D=500
X=10	M=1000

Rim raqamlari.



O'zingizni sinang

- ◆ Era — bu
- ◆ Milod — bu
- ◆ Miloddan avvalgi —

Yurtimizda ajdodlarimiz sug'diy, xorazmiy, muchal va hijriy kabi yil hisoblaridan foydalanganlar.

Hijriy yil hisobi. Dunyoning qator davlatlarida hijriy yil hisobi ham qo'llaniladi. U Arabistonda yaratilgan. Bu yil hisobiga payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning milodiy 622-yilning 16-iyulida Makka shahridan Madina shahriga hijrat qilgani, ya'ni ko'chgan vaqti asos qilib olingan. Bu sanadan hijriy birinchi yil boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida hijriy yil hisobidan diniy marosimlar va bayram kunlarini belgilashda foydalaniladi.

Xronologiya tushunchasi. Tarixda yuz bergan voqea va hodisalarning vaqtini aniqlash juda muhimdir. Busiz tarix fanini mukammal yaratib bo'lmaydi. Tarixda yuz bergan voqea va hodisalarning vaqtini aniqlashda tarixchi olimlar xronologiya faniga murojaat qiladilar.

Yodda tuting!

«Xronologiya» so'zi yunoncha (grekcha) «xronos» — vaqt va «logos» — fan so'zlari birikmasidan iborat bo'lib, tarixiy voqea va hodisalar ro'y bergan vaqtini aniqlovchi fandır.

Xronologiya vazifasiga ko‘ra tarix faniga yordamchi fandır. Bu fan yordamida olimlar qaysi tarixiy voqea va hodisa qachon ro‘y berganligini aniqlaydilar, ularning ro‘yxatini tuzadilar.

Atama mazmunini bilib oling



Payg‘ambar (xabar beruvchi) — xudoning so‘zlarini, ko‘rsatmalarini bandalariga (kishilarga) yetkazuvchi vakil, elchi.¹

Savol va topshiriqlar



1. *Milod va era tushunchalarining mazmuniga izoh bering.*
2. *«Miloddan avvalgi» iborasi nimani anglatadi?*
3. *Qadimda yil hisobi qanday olib borilgani haqida nimalarni bilib oldingiz?*
4. *Milodiy va hijriy yil hisoblariga qanday voqealar asos qilib olinganligini taqqoslang, ularning o‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.*
5. *Xronologiya nima va u tarix fani uchun qanday ahamiyatga ega?*

MUSTAQIL ISH

Maktabingizning 1-sinfiga kelgan yilingizdan hozir yashayotgan yilgacha o‘tgan oraliq yillar xronologiyasini tuzing. Unda o‘zingiz va maktabingiz hayotida ro‘y bergan muhim o‘zgarish hamda voqealarni aks ettirishni unut-mang.

QO‘SHIMCHA MA‘LUMOTLAR

Muchal yil hisobi. Muchal yil hisobi «xosiyatli» va «muqaddas» deb hisoblangan 12 ta hayvonning nomi (sichqon, sigir, yo‘lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo‘y, maymun, tovuq, it va to‘ng‘iz) bilan atalgan 12 yillik davriy yil hisobidir.

Bu jarayonlar kishilar hayotida muhim o‘rin tutgan. Ajdodlarimiz bu yil hisobidan o‘z yoshlarini aniqlashda ham foydalanganlar.

Bundan 2300 yilcha oldin qo‘llanila boshlagan muchal yil hisobining asosida kishilarning tug‘ilgan yillarini hayvonlar nomi bilan atash va ularning har 12 yillik yoshini bir muchal yoshi deb hisoblash belgilangan. Siz ham muchal yoshingizni nishonlaysiz.

Muchal yil hisobi bo‘yicha yangi yil bahorgi teng kunlikdan boshlangan.

¹ O‘zME. — T.: «Ў3MЭ». 2003. 6-jild. 646-bet.

4-§. DUNYO XARITASI TARIXI



Dastlabki xaritalar. Shunday fanlar borki, ularni xaritasiz o‘rganish juda qiyin kechadi. Tarix va geografiya fanlari shunday fanlar hisoblanadi.

Yodda tuting!

Xarita Yer yuzasi, osmon jismlari yoki osmon gumbazining qog‘ozga kichraytirilib tushirilgan tasviridir.

Turli xalqlar o‘rtasida savdo aloqalarining o‘sishi, harbiy yurishlar va uzoq o‘lkalarga uyushtirilishi lozim bo‘lgan sayohatlar xaritalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Miloddan avvalgi III asrda qadimgi yunon olimi Eratosfen birinchi bo‘lib Yer meridiani yoyi uzunligini hisoblab chiqqan va yer yuzining xaritasini tuzgan.¹ Bu xaritada Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo tasvirlangan.

Qadimgi yunon olimi Ptolemey, buyuk bobolarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg‘ariylar ham o‘z davrlari uchun muhim xaritalar yaratgan edilar.

Globusning yaratilishi. Globus – yer sharining kichik masshtabdagi sharsimon nusxasidir. Tarix va geografiya fanlarini o‘rganishda globus ham muhim ahamiyatga ega.

Yodda tuting!


Globus – lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «shar» degan ma‘noni anglatadi.

Globusda yer yuzasi juda kichraytirilgan holda tasvirlanadi. Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy o‘z davri uchun ancha mukammal globus yaratishga erishdi.



Globus.

¹ O‘zME. – T.: «ЎзМЭ». 2005. 10-jild. 240-bet.



Ptolemey xaritasi.



Abu Rayhon Beruniy xaritasi.

XV asrda Samarqandda – Mirzo Ulug‘bek rasadxonasida yanada mukammalroq globus yaratildi.

Afsuski, bu globus Ulug‘bekning o‘limidan keyin yo‘q qilib yuborildi. XV asr oxirlarida esa nemis geografi va sayyohi Martin Bexaym «Yer olmasi» deb atalgan globus yaratdi. Bu globus o‘zida Amerika qit‘asining kashf etilishi arafasidagi Yer yuzasini aks ettirgan.




O‘zingizni sinang

- ◆ Xarita – bu
- ◆ Dunyoda birinchi mukammal globusni ... yaratgan.

Zamonaviy xaritalar. Hozirgi tarix va geografiya darslarida zamonaviy xaritalardan foydalaniladi. Bu xaritalarning zamonaviy deb atalishiga sabab – ular xarita yaratish uchun zarur bo‘lgan barcha talablarga amal qilingan holda yaratilganligidadir. Binobarin,

ular har jihatdan mukammal xaritalardir. Tarix darslarida, asosan, «Dunyo siyosiy xaritasi»dan, mavzuli (u yoki bu tarixiy hodisani aks ettiruvchi xaritalar; u yoki bu davlatning turli asrlarga oid joylashishi, dunyoning ma’lum bir tarixiy davrdagi siyosiy holatini aks ettiruvchi) xaritalardan, shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasining siyosiy-ma’muriy xaritasi»dan foydalaniladi. Siyosiy xarita jahondagi davlatlarning qit’alar bo‘yicha bugungi joylashuvi holatini aks ettiruvchi xaritadir. Siyosiy xaritada davlatlarning nomi, chegaralari va davlat poytaxtlari aks ettiriladi.

«Siyosiy-ma’muriy xarita» deyilganda esa davlatning qanday tarkibiy qismlar (viloyatlar, tumanlar va ularning markazlari)ga bo‘linganligi aks ettirilgan xaritalar tushuniladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining siyosiy-ma’muriy xaritasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 viloyat, ularning markazlari, shuningdek, tumanlarning markazlari aks etgan. Ayni paytda davlatimiz chegarasi belgilab qo‘yilgan.



Hozirgi dunyoning xaritadagi tasviri.



Ўзбекистон Республикаси hududining xaritadaги tasviri.

Atama mazmunini bilib oling



Rasadxonona – maxsus asboblardan yordamida osmon jismlarini kuzatish bilan shug'ullanuvchi ilmiy muassasa.¹

Savol va topshiriqlar




1. Xarita nima va u tarix fanini o'rganishda qanday ahamiyatga ega?
2. Dastlabki xaritalar qayerlarda va kimlar tomonidan yaratilgan?
3. Globus nima va u nima uchun kerak?
4. Qanday xaritalar zamonaviy xaritalar deyiladi? Ularga misollar keltiring.

MUSTAQIL ISH

Geografiya darslarida olayotgan bilimlaringizga tayanib, yashayotgan hovlingizning xaritasini chizing. Bu ishni bajarishda geografiya o'qituvchingizdan maslahat so'rashni unutmang.

¹ O'TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2003. 3-jild. 351-bet.



II bob. ENG QADIMGI DAVRLARDA DUNYO XALQLARI

5-§. ENG QADIMGI ODAMLAR VA ULARNING MANZILGOHLARI



Afrikadagi qadimgi manzilgohlar. Odamzod bugungi qiyofasiga, aql-idrok va taraqqiyot darajasiga birdaniga erishgan emas. Bu bir necha million yillik taraqqiyot natijasidir.

Arxeolog olimlar odamzodning eng qadimgi ajdodlari suyak qoldiqlarini dastlab Janubiy va Sharqiy Afrikadan topdilar. Antropolog olimlar esa odamlarning suyak qoldiqlaridan ularning tashqi qiyofalarini tikladilar. Bu odamlar yashagan manzilgohlardan eng sodda mehnat qurollarining qoldiqlari ham topildi.

Olimlar sodda bo'lsa-da, dastlabki mehnat qurolini yasay olgan ajdodlarimizni «ishbilarmon (uquvi bor) odam» (homo sapiens) deb ataganlar. «Ishbilarmon odam» dastlabki mehnat qurolini tosh (chaqmoqtosh)dan yasagan. Shuning uchun ham insoniyat tarixining boshi tosh asri (tosh davri) deb ataldi. Tosh asri insoniyat tarixida juda uzoq davom etdi.

Osiyodagi qadimgi manzilgohlar. Osiyoda qadimgi odamlarning manzilgohlari Indoneziya va Xitoy hududlaridan topilgan. Olimlar suyak qoldiqlari Indoneziya hududidan topilgan insoniyat ajdodiga pitekantrop (Yava odami), Xitoy hududidan topilgan ajdodini esa sinantrop (Xitoy odami) deb atashdi. Ular bir-birlaridan tashqi qiyofasi, yaratgan mehnat qurollari, ularning sifati va mehnat malakalari bilan farq qilgan.

Sinantropalar tabiiy olovdan foydalanishni bilib olishgan. Ular bunga yashin tufayli o'rmon yong'inlari kelib chiqishi natijasida hosil bo'lgan olovni saqlab qolish yo'li bilan erishganlar. Bu insoniyat erishgan eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Yurtimizda sinantropga zamondosh

odamlarning suyak qoldiqlari va ular yaratgan mehnat qurollari Farg‘ona vodiysining Selung‘ur g‘oridan topildi.



**Neandertal odam
(Teshiktosh g‘ori).**



**Kromanyon odam
(Fransiya).**

Yevropadan topilgan qadimgi inson izlari.

Davrlar o‘tishi bilan odamning tashqi qiyofasi, aql-idroki va mehnat quroli yasay olish malakasi tobora mukammallashib bordi.

Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilgan va tarixga «neandertal odami» nomi bilan kirgan odamlar hayoti buni tasdiqlaydi. Neandertal odamning tashqi qiyofasi bugungi odam qiyofasiga juda yaqin bo‘lgan. Neandertallar miloddan avvalgi 100–40-ming yilliklar oralig‘ida yashagan.¹ Ular yashagan davrda Yevropada iqlim sovib ketdi. Sovuqdan saqlanish zarurati natijasida ular hayvon terisidan kiyim o‘rnida foydalanish va go‘shetni olovda pishirib yeyishni o‘rganib oldilar.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi manzilgohlar. O‘zbekistonda neandertal qiyofali odam suyaklari qoldiqlari Surxondaryo viloyati hududidagi Teshiktosh g‘oridan topildi.

Miloddan avvalgi 40–12-ming yilliklar oralig‘ida yashagan odam suyaklari qoldiqlari Fransiyaning Kromanyon g‘oridan topildi.² Unga «kromanyon odami» nomi berildi. Kromanyon odami tashqi qiyofasiga ko‘ra bugungi qiyofadagi odam edi. Olimlar kromanyon odamini «aql-idrokli (homo sapiens) odam», «ongli odam» deb atadilar.



O‘zingizni sinang

◆ «Ishbilarmon odam» – ◆ ... «aql-idrokli odam» edi.

O‘zbekistonda kromanyon odamlari zamondoshlarining manzilgohlari Samarqanddagi Siyobcha soyi bo‘yida va Toshkent viloyatining Ko‘lbuloq (Angren) manzilgohidan topilgan.

¹ A. Asqarov. «O‘zbekiston tarixi» (Eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha). – T.: «O‘qituvchi» NMIU. 1994. 25-bet.

² Q. Rajabov va bosh. JTMS. – T.: «Sharq» NMAK. 2011. 8-bet.

Atama mazmunini bilib oling



Antropolog — odamning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlarini, tanasi tuzilishidagi o‘zgarishlarni, shuningdek, bosh suyak qoldiqlaridan odamning tashqi qiyofasini tiklab o‘rganuvchi olim.¹

Yava — Indoneziyadagi orollardan birining nomi.

Savol va topshiriqlar



1. Odamzodning eng qadimgi ajdodlari haqidagi ma’lumotlar qanday to‘plangan?
2. Odamzodning eng qadimgi ajdodlari nomlarini aytib bering.
3. Odamzodning uzoq taraqqiyot bosqichining turli davrlarida yashagan ajdodlari bir-biridan qaysi jihatlari bilan farq qilgan?
4. Qanday omil odamzod ajdodlarining yashab qolishida va bugungi qiyofadagi odamga aylanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan?
5. O‘zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL ISH

Odamzodning eng qadimgi ajdodlari va ularning hayoti

(Jadvalni to‘ldiring)

T/r	Savollar	Sinantrop odamlari	Neandertal odamlari	Kromanyon odamlari
1.	Suyak qoldiqlari topilgan joy			
2.	Yashab o‘tgan davrlari			
3.	Nimalarni o‘rganib olishgan			

6-§. QADIMGI ODAMLARNING TURMUSH TARZI



Qadimgi odamlarning mehnat qurollari. Qadimgi odamlar toshga ishlov berib uni mehnat quroliga aylantirganlar. Ishlov berilib, bodom shaklida yasalgan va foydalanilgan tosh qurolning uzunligi 10–20 santimetrni tashkil etgan. Og‘irligi esa besh yuz grammdan bir kilogrammgacha bo‘lgan. Bu dastlabki mehnat qurolining ikki tomoni boshqa tosh bilan tarashlangan. Undan biror narsani urish, kesish, o‘yish va ko‘zlangan masofaga irg‘itish quroli

¹ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2003. 1-jild. 89-bet.



Toshdan va tayoqdan yasalgan mehnat qurollari



Tosh nayza uchi.



Ovchi.

sifatida foydalanilgan. Qadimgi odamlar o‘z mehnatlarini yengillashtirish maqsadida mehnat qurollarini yanada takomillashtirib borganlar. Masalan, sinantrop-lar oldingi ajdodlariga qaraganda qirralari o‘tkirroq uchli hamda ushlash uchun undan ham qulayroq qurollar yarata olganlar. Bu qurollardan foydalanish ancha qulay bo‘lgan.

Neandertal odami toshdan uchi yanada uchqurroq ish qurolini yaratgan. Suyakdan esa kundalik hayotiy ehtiyojlar uchun zarur bo‘lgan turli xildagi o‘tkir uchli mayda mehnat qurollari yaratgan.

Kromanyon odami toshdan pichoq, nayza, turli xil keskich, qirg‘ich, bigiz, suyakdan esa igna, qarmoq, sanchqi yaratgan. Suyakdan igna yasab tikishni kashf etdi. Sun‘iy olov hosil qilishni o‘rganib oldi. Keyinchalik o‘q-yoy ixtiro qildi. Bu insoniyat tarixidagi yirik ixtiro edi. Ayni paytda odamlarning itni qo‘lga o‘rgatishi, kundalik iste‘moldan ortiqcha hayvon ovlana boshlagach esa yovvoyi hayvonlarni uy hayvonlariga aylantira borishi natijasida chorvachilik vujudga keldi.

Bora-bora odamlar kulolchilikni o‘rgandilar va o‘zlarining kuzatuvchanliklari bois tabiatda uchraydigan mis, qalay va qo‘rg‘oshindan mehnat qurollari tayyorlay boshladilar. Keyinchalik metallar aralashmasidan tayyorlangan bronza (jez)ni ixtiro qilishgan. Shuningdek, g‘ildirakli arava, o‘ziga xos qo‘l tegirmoni, charxpalak ixtiro qilingan. Vaqtlar o‘tishi bilan inson temir uchli omoch, temir bolta va boshqa muhim mehnat qurollari yaratadi. Bu esa dehqonchilikning rivojlanishiga yordam beradi.



O‘zingizni sinang

- ◆ O‘q-yoy ... ixtiro qilingan.
- ◆ Odam temirdan ... kabi mehnat qurollari yasagan.

Qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari. Qadimgi odamlar dastlab qo‘llaridagi oddiy mehnat qurollari (tosh va tayoq) yordamida tabiatda-

gi tayyor mahsulotlar bilan hayot kechirishgan. Uchi o‘tkirlashtirilgan tosh yordamida mayda-mayda hayvonlarni ovlaganlar. Uchi o‘tkirlashgan tayoq yordamida esa turli o‘simliklarning ildizlarini kovlab olganlar. Uzun tayoqlar yordamida daraxtlarning mevalarini qoqib yeyishgan. Shu tariqa, terib-termachilab oziq-ovqat topish va ov qilish odamlarning eng qadimgi mashg‘uloti bo‘lib qolgan.

Yodda tuting!

Terib-termachilab oziq-ovqat topish va ovchilik o‘zlashtiruvchi xo‘jalik deb ataladi.

O‘zlashtiruvchi xo‘jalik orqali hayot kechirish juda uzoq yillar davom etdi.

Ovlangan hayvonlarning iste’moldan ortiqchasini asrab uy hayvoniga aylantirish chorvachilikning vujudga kelishiga zamin tayyorladi. Odamlar bora-bora o‘troq hayotga o‘ta boshladilar.

Bu esa dehqonchilik va chorvachilikning yanada rivojlanishiga olib keldi. Termachilikdan dehqonchilik, ovchilik va hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishdan esa chorvachilik, ya’ni ishlab chiqaruvchi xo‘jalik vujudga keldi.

Yodda tuting!

Odamlarning bir joyda doimiy yashashlariga o‘troq hayot deyiladi. O‘troq hayotning asosini dehqonchilik tashkil etadi.

Odamlar endi o‘z hayotlari uchun zarur mahsulotlarni o‘zlari ishlab chiqaradigan bo‘ldilar. Turli uy-ro‘zg‘or buyumlariga ehtiyoj seza boshladilar. Bu esa hunarmandchilikni vujudga keltirdi.

Vaqtlar o‘tishi bilan ayrim odamlar, asosan, dehqonchilik bilan, ayrimlari esa chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan shug‘ullana boshladilar. Bu hodisa insoniyat taraqqiyotini yanada tezlashtirdi.



Hunarmand.



O'zingizni sinang

- ◆ ... o'zlashtiruvchi xo'jalik hisoblanadi.
- ◆ Dehqonchilik va chorvachilik ... deyiladi.



Qadimgi odamlarning uy-joyi.

Qadimgi odamlarning yashash joylari.

Qadimgi odamlar dastlab ulkan daraxtlarning kovaklarida va g'orlarda yashaganlar. G'orlar odamlarni yomg'ir, shamol va sovuqdan saqlagan.

Kechalari dahshatli yirtqich hayvonlar hujumidan saqlanish uchun g'orga kira-verishda gulxan yoqib qo'yilgan.

G'orlar yo'q joylarda esa odamlar dastlab yarim yerto'la qurishdi. Uning ustini tuproq bilan bekitdilar.

U qish paytida eng sodda boshpana vazifasini bajardi. Iqlim isishi bilan kichik daryo bo'ylari va buloqlarning yonlarida suyaklardan, mamontlarning qoziq tishlaridan va xodalardan sodda kulbalar qurishgan.



Atama mazmunini bilib oling

Bronza — mis va qalay aralashmasidan tayyorlanuvchi qotishma.

Savol va topshiriqlar



1. Nima uchun odam mehnat qurollarini doimo takomillashtirib borgan?
2. Odamning toshdan yaratgan dastlabki mehnat quroliga xos xususiyatlarni qayd eting.
3. Neandertal va kromanyon odamlari yaratgan mehnat qurollarini taqqoslang. O'xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlang.
4. Ajdodlarimiz qanday mehnat qurollari yaratishga muvaffaq bo'lganlar?
5. «O'zlashtiruvchi xo'jalik» qanday xo'jalik edi?
6. «Ishlab chiqaruvchi xo'jalik» deb nimaga aytilgan va u qanday vujudga kelgan?
7. Qadimgi odamlarning yashash joylari haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL ISH

(Jadvalni to'ldiring)

T/r	Odamlar tomonidan yaratilgan mehnat qurollari	T/r	O'zlashtiruvchi xo'jalik	T/r	Ishlab chiqaruvchi xo'jalik

7-§. ARXELOGIYA TARIXIDAN



Arxeologlar qanday ishlaydilar? Arxeologiya – o'tmishni tarixiy moddiy manbalar asosida o'rganuvchi fan.

Yodda tuting!

Arxeologiya so'zi lotincha «arxeo» va «logos» so'zlaridan iborat bo'lib, «qadimshunoslik» degan ma'noni anglatadi.

Arxeologiya fani bilan shug'ullanuvchi olimlar *arxeolog* (qadimshunos)lar deb ataladi. Tarixda hech narsa izsiz yo'qolib ketmaydi. Ana shu izni topish arxeologiyaning vazifasidir.

Arxeologlar o'tmishga oid turli topilmalar (mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynatlar, uy-joy, ustaxonalar, sug'orish inshootlari va boshqalar)ning qoldiqlarini o'rganadilar. Shu asosda o'tmish haqida ma'lumotlar to'playdilar. Barcha topilmalar arxeologiya yodgorliklari deb ataladi.

Arxeologiya yodgorliklari kishilik jamiyatining yozma tarixigacha bo'lgan davrini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Arxeologlar dastlab qazilma ishlari o'tkaziladigan joylarni belgilab oladilar. So'ng qazish ishlarini o'tkazadilar.



Arxeologlar ish jarayonida.



Topilgan yozuv.



**Temirdan ishlangan
qurollar.**



Yahyo G'ulomov

Topilgan yodgorlikning yaratilgan davri va yoshi aniqlanadi.

O'zbekiston olimlari arxeologik qazishmalar natijasida topilgan yodgorliklarni o'rganish orqali Samarqand shahrining 2750, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining 2700, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 va Toshkent shahrining 2200 yoshdaligini aniqladilar.

O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirishda o'zbek olimi Muso Saidjonov, keyinchalik mashhur olim Yahyo G'ulomov rahbarligidagi arxeologlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Yodda tuting!

«Akademik Yahyo G'ulomov o'z davrining fidoi allomasi bo'lgan».¹

Hozirgi kunda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Yahyo G'ulomov nomidagi arxeologiya instituti ham katta ishlarni amalga oshirmoqda.

Suvosti arxeologiyasi. Suvosti arxeologiyasi arxeologiya fanining yordamchi sohasi hisoblanadi.

Uning tarixi XX asr boshida grek baliqchilari tomonidan qadimiy haykalni olib ketayotgan kema g'arq bo'lgan joy topilgan vaqtdan boshlandi.

Fransuz olimi Jak Iv Kusto tomonidan akvalangning yaratilishi insoniyatning suvosti merosini o'rganishni yanada yengillashtirdi. Suvosti arxeologiyasi dengiz yoki daryolar sathi ko'tarilishi oqibatida suv ostida qolib ketgan

¹ *Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch». — T.: «O'zbekiston» NMIU. 2008. 166-bet.*

yodgorliklarning qoldiqlarini izlab topish orqali o‘tmishdagi kishilar hayoti, ularning hayot tarzi va madaniyatini o‘rganadi.



Atama mazmunini bilib oling



Akvalang — odamning suv ostida bemaolol nafas olib suzishiga hamda ishlashiga imkon beruvchi havo to‘ldirilgan ballonlardan tayyorlangan maxsus qurilma.¹

Arxeologlar suv ostida.

Savol va topshiriqlar




1. Arxeologiya nimani o‘rganadi?
2. Arxeologiya tarix fanining yaratilishida qanday o‘rin tutadi?
3. O‘zbekistonning arxeolog olimlari ishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Suvosti arxeologiyasining ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Siz yashayotgan hududda arxeologik qazishma ishlari olib borilganmi? Agar olib borilgan bo‘lsa, u haqda qisqacha ma‘lumot to‘plang.

MUSTAQIL ISH

O‘zingizga ma‘lum arxeologik yodgorliklar va ularning joylashgan hududlarini yozib, jadvalni to‘ldiring.

T/r	Arxeologik yodgorlik nomi	Joylashgan hududi

¹ O‘TIL. — T.: «ЎзМЭ». 2007. 1-jild. 61-bet.



III bob. KISHILIK MADANIYATINING SHAKLLANISHI

8-§. QOYATOSH SURATLARI



Ilk san'at namunasi. Qadimgi ajdodlarimiz qoyatoshlarga chizib qoldirgan rasmlar ibtidoiy san'at namunalaridir. Ular tarix



Rassom ish ustida.



Altamira g'oridagi suratlar.

uchun juda qimmatli tarixiy yodgorliklar hisoblanadi. Qoyatosh suratlarining o'ziga xos tomoni shundaki, ular insoniyat tomonidan hali yozuv paydo bo'lmashidan oldin yaratilgan. Bu san'at namunalari olimlarning qadimgi davr tarixini yoritishlarida muhim manba hisoblanadi. Ularda qadimgi odamlarning kundalik hayoti, turmush tarzi, diniy e'tiqodi, mashg'ulotlari va odatlari ifodalangan. Ayniqsa, ajdodlarimizning eng qadimgi mashg'uloti – hayvonlarni ovlash manzarasi ko'p uchraydi. Bu suratlar tarix uchun o'sha davrda odamlar ko'proq qanday hayvonlarni ovlaganligi va ular buni qay tarzda bajarganligi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Altamira, Kapovaya va Lasko g'orlari. Mil.avv. 15–8-ming yilliklarda qoyatosh suratlarini dastlab kromanyon odamlari yaratganlar.¹

Bu davrda qadimgi rassomlar suratlarini, asosan, qoyalarga o'yib ishlaganlar. Ularning bir qismi Ispaniyadagi dunyoga

¹ O'zME. – T.: «ЎзМЭ». 2003. 5-jild. 376-bet.



Lasko g'oridagi suratlar.

mashhur Altamira va Fransiyadagi Lasko g'orlaridan hamda Boshqirdistondagi Kapovaya g'oridan topilgan. O'sha zamon tasviriy san'at ustalari hayvonlarni tasvirlashda turli moddalar qorishmasidan tayyorlangan rangli bo'yoqlardan, tosh devorlardagi rasmlarni bo'yashda esa tayoqcha yoki hayvon junidan tayyorlangan mo'yqalamdan foydalanishgan.

Bu esa suratlarning hozirgi davrgacha deyarli hech bir o'zgarishsiz saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Ularni o'rganish qadimiy hayvonot dunyosini yanada yaxshiroq tasavvur qilishga imkon beradi.

O'zbekiston hududidagi qoyatosh suratlari. O'zbekistonda ushbu noyob san'at turi juda qadimdan paydo bo'lgan. Suratlar, asosan, ikki xil usulda — urib cho'kichlash va tabiiy bo'yoqlar yordamida ishlangan. Keyinchalik rasmlar uchi o'tkir tig'li temir va po'lat asboblari bilan toshlarni o'yib ishlangan. Bu usul fanda *nuqtali usul* deb ataladi. Ikkinchi usulda ilk rangtasvir ustalarining mahorati ko'zga tashlanadi. Ular turli moddalar qorishmasidan bo'yoq tayyorlashni bilganlar. Suratlarga cho'p, qamish, suyak va qushlarning pati vositasida jilo berilgan. O'zbekistonda 100 dan ortiq ana shunday nodir san'at namunalari aniqlangan.

Xususan, Navoiy viloyatidagi Qoratog' tizmasidagi Sarmishsoy dasidan topilgan sher, yo'lbars, bars kabi yirtqich hayvonlarning to'qnashuvi, ovchining kamdan-kam hollarda qo'lga o'rgatiladigan ov qoplari — gepard yordamida yovvoyi buqani ovlashi tasvirlangan.

Dastlabki san'atning noyob yodgorligi sifatida «Qizil kitob»ga kiritilgan betakror qoyatosh suratlari bugun chet ellarda ham e'tirof etilmoqda.

2008-yilda Zarautsoy, Sarmishsoy kabi bebaho madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ular yo'qolib ketishi xavfining oldini olishga oid hukumat qarorlari qabul qilindi. Eng muhimi, Sarmishsoy suratlari umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO tomonidan ro'yxatga olindi va «Ochiq osmon ostidagi muzey» deb rasman e'lon qilindi.

Atamalar mazmunini bilib oling



YUNESKO – Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti.

Altamira – Ispaniyadagi g'or.

Lasko – Fransiyadagi g'or.

Kapovaya – Ural tog'ining Boshqirdiston hududida joylashgan g'or.

«**Qizil kitob**» – yo'qolib ketish xavfi bor o'simlik va hayvonlarning nomlari kiritiluvchi kitob.

Savol va topshiriqlar



1. Qoyatoshlarga bitilgan suratlarning ahamiyati nimada?
2. O'zbekistonning qaysi hududlaridan qoyatosh suratlari topilgan?
3. Yevropadagi Altamira, Kapovaya va Lasko g'orlaridagi suratlar nimasi bilan ahamiyatli?
4. Dastlabki tasviriy san'at namunalarini yaratishda ajdodlarimiz qanday vositalardan foydalanganlar?
5. Suratlarda, asosan, nimalar aks ettirilgan?
6. Qoyatosh suratlarini saqlash borasida O'zbekistonda qanday ishlar amalga oshirildi?

TOPSHIRIQ

(Jadvalga darslikda berilgan tasvirlarda nimalar aks ettirilganligini yozing)

T/r	G'orning nomi	Tasvirlarda berilgan hayvonlar nomi
1.		
2.		

9-§. YOZUV – INSONIYATNING BUYUK KASHFIYOTI



Ilk yozuvning paydo bo‘lishi. Yer yuzida ilk yozuv belgilari dastlab Osiyo va Shimoliy Afrika (qadimgi Misr) xalqlari tomonidan yaratilgan.

O‘tmish tarix, odamlar yaratgan hayotiy tajriba va bilimlar, kashfiyotlar ajdodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib keldi.

Yodda tuting!

Yozuv – kishilar o‘rtasidagi aloqaga xizmat qiladigan yozma belgilar tizimidir.

Yozuv bugungi shaklidagi ko‘rinishga ega bo‘lgunicha uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Olimlar dastlabki yozuvlarni uzoq vaqtgacha o‘qiy olmadilar. Chunki, bu yozuvlar bugungi yozuvlardan keskin farq qilgan. Ular aslida harf bo‘lmasdan, biror ma‘noni anglatuvchi qandaydir belgilardan iborat bo‘lgan. Ikkinchidan, ular bugungi kunda hech kim gaplashmaydigan tillarda yozilgan. Shunday bo‘lsa-da, olimlar tinimsiz izlanishlari natijasida ularning ko‘pchiligini o‘qishga muvaffaq bo‘ldilar.




O‘zingizni sinang

◆ Yer yuzida dastlabki yozuv belgilari ... tomonidan yaratilgan.

Qadimgi yozuvlar va ularning turlari. Olimlar qadimgi yozuvlarni bir necha turlarga bo‘lganlar. Ulardan dastlabkisi «eslatuvchi belgilar» deb atalgan. Bunday belgilar muayyan miqdorni belgilashda, biror xabarni uzoq masofaga yetkazishda qo‘llanilgan. Masalan, biror miqdorni ifodalash uchun turli hajmdagi toshdan



Misr iyerogliflari.



Qadimgi misrliklar sonni ana shunday ifodalaganlar.



Rasmlı yozuv.



Xitoy iyerogliflari.

yoki chig‘anoqlardan foydalanilgan. Ajdodlarimiz yozuvning «buyumli yozuv» deb ataluvchi turidan ham foydalanganlar. Masalan, qo‘rg‘on rasmi marhum ko‘milgan joyni, non-tuz esa do‘stlikni anglatgan. Qadimgi yozuvning yana bir turi «rasmlı yozuv» edi. Qadimgi ajdodlarimiz turli hayvonlarning rasmlarini toshlarga, suyaklarga va g‘orlarning devorlariga o‘yib tushirganlar. Ular faqat rasmgina bo‘lib qolmay, biror holatni anglatuvchi o‘ziga xos axborot ham edi.

Hayot rivojlanib borgani sari rasmlı yozuvlar kishilar ehtiyojini qondira olmay qoldi. Ular ancha mukammalroq yozuvga ehtiyoj seza boshladilar. Natijada yozuvning yangi turi — «So‘z yozuvi» shakllandi. Qadimgi Misr hamda Xitoy iyerogliflari, Shumer mixxati va boshqalar buning dastlabki namunalari bo‘ldi.

Biroq, iyerogliflar bilan yozish oson ish emas, chunki ko‘p miqdordagi iyerogliflarni yodda saqlab qolish og‘ir edi. Hayot endi «alifboli yozuv» kashf etilishini talab qila boshladi.



O‘zingizni sinang

- ◆ Yozuv — bu
- ◆ Quyidagilar yozuvning to‘rt turini tashkil etadi

Alifboning vujudga kelishi. Siz maktabingizning 1-sinfiga qabul qilinganingizda qo‘lingizga ushlagan birinchi kitobingiz «Alifbe» bo‘lganligini eslasangiz kerak. U boshlang‘ich savod chiqarish kitobi edi. Alifbo arabcha «alif» va «bo» harflarining o‘zbek tilida qo‘shib aytilishidir.

Yodda tuting!

Alifbo — biror tilning yozuvi uchun qabul qilingan va qat‘iy ketma-ketlikda joylashtirilgan yozma belgilardir. Bu belgilar harf deyiladi. «Alifbo» so‘zi esa arab alifbosining birinchi harfi (alif) va ikkinchi harfi (bo)ning qo‘shib aytilishidan hosil bo‘lgan so‘zdir.

Dunyoda birinchi alifboni, ya'ni harfli yozuvni miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida qadimgi finikiyaliklar yaratishdi va u finikiy yozuvi deb ataldi.¹ Finikiy alifbosi 22 ta harfdan iborat bo'lib, u o'ngdan chapga qarab yozilgan. Finikiy tilidagi so'zlarni shu 22 ta harf bilan yoza olish ulkan hodisa edi. Finikiy yozuvi boshqa mamlakatlarda ham tez tarqala boshladi. Ular finikiy alifbosini o'z tillariga moslashtirib oldilar. Dunyodagi hozirgi yozuvlarning beshdan to'rt qismidan ko'progi o'zining asosida finikiy yozuvi yotadi.

Hatto hozirgi kundagi lotin va kirill yozuvlari ham finikiy yozuvidan kelib chiqqan.



O'zingizni sinang

◆ Dunyoda birinchi alifboni ... yaratgan.

Miloddan avvalgi IV–III asrlarda lotin alifbosi yaratildi.² U bir necha asrlardan so'ng G'arbiy Yevropaning ko'plab xalqlari yozuviga asos bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik esa arab alifbosi yaratildi. Rus alifbosi kirillitsa deb atalgan eski slavyan alifbosi asosida vujudga keldi. Eski slavyan alifbosini qadimgi Vizantiyalik aka-uka Kirill va Mefodiyalar IX asrda qadimgi yunon alifbosi asosida yaratdilar. Yaratilgan yangi alifbo Kirillning sharafiga *kirillitsa* deb ataldi. X asr oxirlarida qadimgi Kiyev Rusi davlati ham bu yangi alifboni qabul qildi va u rus tiliga moslashtirildi. Hozirgi zamon kirill-rus alifbosida 33 ta harf va 2 ta belgi mavjud.

O'zbekistonda yozuv. O'zbek xalqi qadim zamonlardan beri turli yozuvlardan foydalanib keldi. Bular xorazm, sug'd, urxun-yenisey³, arab, kirill-rus va lotin alifbolariga asoslangan yozuvlardir.

Xorazm va sug'd yozuvlaridan ajdodlarimiz deyarli ming yil davomida foydalandilar. Sug'd alifbosi dastlab 23 ta harfdan iborat bo'lgan. Bu alifboda so'zlar o'ngdan chapga qarab yozilgan. O'zbekistonda

harf shakli	qaysi so'zdan	
𐤀	tuya	Г
𐤁	eshik	Д
𐤂	kaft	К
𐤃	suv	М
𐤄	bosh	Р

Finikiy alifbosi.

shakli	ma'nosi
Г	Г
Д	Д
К	К
М	М
Р	Р

Kirill alifbosi.

¹ O'zME. — T.: «Ў3МЭ». 2002. 3-jild. 469-bet.

² O'zME. — T.: «Ў3МЭ». 2003. 5-jild. 315-bet.

³ O'zME. — T.: «Ў3МЭ». 2005. 9-jild. 131-bet.

bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidan foydalanilmoqda.



O‘zingizni sinang

◆ Alifbo — bu ◆ Finikiy alifbosida ... ta harf bo‘lgan.

Atama mazmunini bilib oling



Iyeroglif — rasmi, belgili yozuv.¹

Mixxat — mix yoki ponachalarga o‘xshash belgilarni loy taxtachalarga o‘yib tushirilgan yozuv turi.²

Savol va topshiriqlar



1. *Yozuv nima? Yozuvning insoniyat hayotida tutgan o‘rni haqida nimalarni bilib oldingiz?*
2. *Qadimgi yozuv turlarining nomlarini qayd eting va ularning bir-biridan farqi haqida so‘zlab bering.*
3. *Qanday omillar alifboning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan?*
4. *Finikiy alifbosi insoniyat tarixida qanday rol o‘ynadi?*
5. *Lotin, arab va kirill-rus alifbolari haqida nimalarni bilib oldingiz?*
6. *O‘zbekiston xalqlari qadimda qanday yozuvlardan foydalanganlar?*

MUSTAQIL ISH

T/r	Alifbolar	Qachon yaratilgan?	Harflari soni	Yozilish tartibi
1.	Finikiy			
2.	Sug‘d			
3.	Lotin			
4.	Arab			
5.	Kirill-rus			

10-§. «AVESTO» — AJDODLARIMIZ YARATGAN ILK YOZMA TARIXIY MANBA



«**Avesto**» haqida. Miloddan avvalgi IX—VIII asrlarda qadimgi Xorazm diyorida ezgulik dini — zardushtiylik vujudga keldi.³ Bu dinning nomi uning asoschisi Zardusht nomidan olingan.

¹ O‘TIL. — T.: «Ў3МЭ». 2006. 2-jild. 175-bet.

² O‘TIL. — T.: «Ў3МЭ». 2006. 2-jild. 603-bet.

³ O‘zME. — T.: «Ў3МЭ». 2002. 3-jild. 683-bet.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» deb ataladi. Kitobda Ahuramazda («donishmand», «yuksak», «daholi») dunyoni yaratgan xudo deb e'tirof etiladi.

Yodda tuting!

«Avesto» o'zbek tilida «qat'iy o'rnatilgan qonun-qoidalar» degan ma'noni anglatadi. «Avesto» 2700 yil avval Xorazmda yaratilgan.

Eron ahamoniylari podshosi Doro III davrida «Avesto» 12 ming qoramol terisiga tilla bilan yozildi va xazinada saqlandi.

Keyinchalik, makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlari chog'ida uning katta qismi yoqib yuborildi. Astronomiya va tibbiyot ilmlariga oid qismlari esa yunon tiliga tarjima qilindi. Oradan bir necha asrlar o'tib, yurtimizda islom dini keng tarqalgach, «Avesto» unutildi.

«Avesto» O'rta Osiyo, birinchi navbatda, O'zbekistonning o'tmish tarixi, shuningdek, ajdodlarimizning e'tiqodi, urf-odatlariga haqidagi eng qadimgi yozma manba sifatida o'rganiladi.



Zardusht.



O'zingizni sinang

♦ «Avesto» — bu

«Avesto»ning mazmuni. «Avesto»da ta'kidlanishicha, dunyo ezgulik (yaxshilik) va yovuzlik (yomonlik) asosiga qurilgan.

Barcha yovuzliklarni (o'lim, qahraton qish, zararkunanda ha-sharotlar va shu kabilar) yovuzlik homiysi Axriman yuboradi.

Ahuramazda esa hayotni, ezgulikni, yorug'likni va adolatni himoya qiladi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashda oxir-oqibat ezgulik g'alaba qozonadi. Biroq, buning uchun kishilar — yolg'on gapirmasliklari, bergan va'dalarining ustidan chiqishlari va insonlarga faqat yaxshilik qilishlari lozim. Insondagi bu uch xislat barkamollik belgisi hisoblangan. Bu uch xislatni o'zida shakllantirgan kishilar Ahuramazda tarafdoriga aylanadilar.

Yovuz kuchlar ziyon yetkazmasligi uchun odamlar yer haydab dehqonchilik qilishga, gʻalla yetishtirishga, chorvachilik bilan shugʻullanishga daʼvat etilgan va bunday mehnat sharaflangan.

Ezgu fikr (oliyjanob oʻy-fikr), ezgu soʻz va ezgu amallar (xayrli ishlar) zardushtiylik dinining bosh gʻoyasini tashkil etadi.

Diqqat bilan oʻqing!

«Ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal degan tamoyilda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli boʻlgan saboqlar borligini koʻrish mumkin».¹

Zardushtiylik dinida olov, tuproq, suv va havo muqaddas hisoblanadi. Bunga olovning yorugʻlik, tuproq (yer)ning rizq-nasiba, suv va havoning esa hayot manbalari ekanligi asos qilib olingan. Ayni paytda, bu toʻrt unsur barcha borliqning asosi ekanligi uqtilgan.



Oʻzingizni sinang

♦ Zardushtiylik bosh gʻoyasining asosini ... tashkil etadi.

«Avesto»ning 2700 yilligi. «Avesto» nafaqat bizning, balki jahon madaniyatining ham nodir merosi hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqaro YUNESKO tashkiloti Oʻzbekiston hukumatining tashabbusi bilan 1999-yilda «Avesto»ning 2700 yilligini nishonlash toʻgʻrisida qaror qabul qildi. 2001-yilda esa bu qutlugʻ sana nishonlandi.²

Savol va topshiriqlar



1. Zardushtiylik dini va «Avesto» haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Zardushtiylik dinining mazmuni haqida soʻzlab bering.
3. Zardushtiylikda nega olov, yer, suv va havo muqaddaslashtirilgan?
4. Zardushtiylik axloqining uch tayanchini qayd eting. Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimovning ular haqida aytgan fikrlarini keltiring.
5. «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlanganligi nimalarni anglatadi?

¹ Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. — T.: «Oʻzbekiston» NMIU. 2008. 32-bet.

² Q. Rajabov va boshq. Oʻzbekiston tarixining eng asosiy sanalari. — T.: «Oʻzbekiston» NMIU. 2012. 389-bet.

MUSTAQIL ISH

Zardushtiylik dini haqida nimalarni bilasiz?

(Jadvalni to'ldiring)

Zardushtiylik qachon va qayerda paydo bo'lgan?	Zardushtiylikning muqaddas kitobi	Zardushtiylik dinining asosini nima tashkil etadi?	Zardushtiylik axloqining uch ustuni	«Avesto»ning 2700 yilligining nishonlanishi

11-§. MUZEYLAR




Muzeylar nima uchun kerak? Muzeylar tarixiy yodgorliklarni asrovchi, saqlovchi, o'rganuvchi va xalqqa namoyish qiluvchi muassasadir. Muzeylar kishilarning o'zlari uchun qadrlı va yodgorlik bo'lib qoladigan buyumlarni to'plab, ularni kelgusi avlodlarga qoldirish ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi.

Yodda tuting!

Muzeylarda yig'ilgan yodgorliklar kolleksiyalar deyiladi.

Muzeylarning turlari juda ko'p. Tarixga, adabiyot va san'atga, texnikaga, tibbiyotga, hayvonot olamiga, harbiy qurol-yarog' kabilarga oid muzeylar mavjuddir. Muzeylar dastlab ibodatxonalarda tashkil



Ermitaj (Sankt-Peterburg).



Luvr muzeyi (Parij).

etilgan. Yevropada ko‘plab muzeylarning tashkil etilishi XIV–XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Muzeylardan joy olgan eksponatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Jahonning mashhur muzeylari. AQSH, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi jahonning mashhur muzeylari joylashgan mamlakatlar hisoblanadi.



O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi (Toshkent).

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj, Parijdagi Luvr, Londondagi Britaniya muzeyi, Italiyadagi Uffitsi kabi dunyoga dong'i ketgan muzeylarning kolleksiyalari tarkibida tarixiy buyumlarning nodir nusxalari saqlanadi. Masalan, 1546-yilda qurilgan va dastlab qirol saroyi vazifasini o'tagan, hozirda esa dunyoning eng katta muzeyi hisoblanmish Parijdagi «Luvr» muzeyida qadimgi Misr, Yunoniston va qadimgi Rimda yaratilgan noyob san'at durdonalarining asl nusxalari saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining muzeylari. O'zbekiston Respublikasida ham ko'plab muzeylar mavjud. Bu muzeylardagi eksponatlar jahonning mashhur muzeylari eksponatlaridan qolishmaydi.

Hozirgi kunda respublikamizda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston san'at muzeyi, O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi, O'zbekiston sog'liqni saqlash muzeyi kabi muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina O'zbekiston tarixi davlat muzeyining o'zida 250 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar mavjud.



Temuriylar tarixi davlat muzeyi (Toshkent).

Ular xalqimizga va chet elliklarga O‘zbekistonning o‘tmish tarixini ko‘z-ko‘z qilib turadi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo‘lgan muzey binosi uch qavatlidir. Muzey ko‘rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san’at asari ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor» deb nom berilgan. Asar «Tug‘ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismdan iborat.

«Tug‘ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temurning) tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odatlar tasvirlangan.

«Yuksalish» qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya’ni «Tog‘rilik najotdir» degan shiori oltin harflar bilan yozib qo‘yilgan. Shuningdek, bu qismda Sohibqironning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o‘tkazayotgan kengashi aks ettirilgan.

«Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri merosining avloddan avlodga o‘tib kelayotganligi g‘oyasi tasvirlangan.

Jahon davlatlaridagi muzeylar xalqaro tashkilotga birlashgan. U xalqaro YUNESKO tarkibidagi «Muzeylar xalqaro kengashi» deb ataladi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Ekspонат — muzeylarda ko‘rgazmaga qo‘yilgan buyumlar, rasmlar, hujjatlar, kitoblar.¹

Kolleksiya — muzeylarda saqlanayotgan buyumlarning tartibga solingan to‘plami.²

Savol va topshiriqlar




1. Muzeylar qanday vazifalarni o‘tashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Dastlabki muzeylar qayerda tashkil etilgan?
3. Jahonda mashhur muzeylar haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. O‘zbekiston muzeylari haqida so‘zlab bering.

MUSTAQIL ISH

O‘zingiz tomosha qilgan yoki kitoblarda o‘qigan muzeylaringizdan biri haqida qisqacha hikoya tayyorlang.

¹ O‘TIL. — T.: «ЎзМЭ». 2008. 5-jild. 28-bet.

² O‘TIL. — T.: «ЎзМЭ». 2006. 2-jild. 390-bet.



IV bob. DASTLABKI SIVILIZATSIYALAR, SHAHARLAR VA DAVLATLAR

12-§. YEVROPA VA AMERIKADA DASTLABKI SIVILIZATSIYALAR



Sivilizatsiya haqida. Sivilizatsiya deyilganda biror xalqning madaniyati rivojida erishgan yutuqlari darajasi tushuniladi. Shuning uchun ham sivilizatsiya atamasi o'rnida ko'pincha «madaniyat» iborasi ham qo'llaniladi. Mehnat qurollarining takomillashuvi va ishlab chiqarish texnikasining ixtiro qilinishi, shaharsozlik, yozuvning paydo bo'lishi, ilm-fan, adabiyot, san'atning taraqqiyoti va boshqalar sivilizatsiya yoki madaniyat taraqqiyotining belgilaridir. Osiyo va Shimoliy Afrika (qadimgi Misr) ilk sivilizatsiya markazlari bo'lgan. Ularning ta'sirida Yevropada ham sivilizatsiya rivojlangan.

Krit — Yevropaning dastlabki madaniyat o'chog'i. Arxeolog olimlar Yunoniston (bugungi Gretsiya) davlatiga qarashli Krit orolida miloddan avvalgi 3–2-ming yillikka oid shaharlar qoldig'ini topdilar. Shaharda bunyod etilgan saroyning devorlari suvalgan. Suvoq namligidayoq unga o'yib rasmlar solingan. Saroyning quyi qavatidagi ko'plab xonalarda ustaxonalar, qurolxonalar, qimmatbaho buyumlar va oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan omborlar joylashtirilgan.

Kritliklar hunarmandchilikda katta yutuqlarga erishganlar. Arxeologik topilmalar hunarmandchilik, zargarlik, uysozlik va kemasozlik sohalarining rivoj topganligini ko'rsatdi.

Kemasozlikda erishgan yutuqlar kritliklarga savdo qilish va harbiy flot yaratish imkonini berdi. Savdo



Devorga o'yib
ishlangan
rasm.

floti Misr va Bobil kabi davlatlar bilan savdo-sotiq olib borishga xizmat qildi.

Kritliklar o‘z yozuvlarini ham yaratdilar. Ular uzunligi 150–200, eni 70–150 metr kenglikdagi nihoyatda go‘zal yerosti zallari ham qurganlar. Ular yaratgan labirintlar hamon odamlarni hayratga solib kelmoqda.

Yodda tuting!

Miloddan avvalgi 2-ming yillikda Kritda davlat tashkil topdi. Bu Yevropadagi birinchi davlat edi.

Miloddan avvalgi 2-ming yillikning o‘rtalarida yuz bergan vulqon otilishi natijasida Krit madaniyati halokatga uchradi. Biroq yuz bergan bu halokat Krit madaniyatini butunlay yo‘q qilib yubormagan edi. Ko‘p o‘tmay Peloponnes yarimorolida yashovchi yunon qabilalari Kritni egallab oldilar.



Mikenaliklar savdo kemasi.

Mikena madaniyati. Peloponnes yarimorolida miloddan avvalgi 2-ming yillikda Mikena shahar-davlati vujudga keldi. Bu shahar-davlatning madaniyati kritliklar madaniyati ta’sirida rivojlandi. Arxeologik qazishmalar Mikenada hunarmandchilik va savdoning yaxshi rivojlanganligini ham ko‘rsatdi.

Bronzadan yasalgan turli quollar, oltindan ishlangan zeb-ziyatlar, sopoldan tayyorlangan idish qoldiqlari yaxshi saqlangan. Mikenaliklar bunyod etgan qal’a va toshdan qurilgan uylar juda mustahkam edi.



Bronza quollar.

Shaharning yuqori qismida podsho saroyi va badavlat zodagonlarning uylari joylashgan. Saroy yaqinida qoyaga maqbara qurilgan. Maqbaradan bronza quollar va oltin buyumlar topilgan. Shahar atrofida savdogar, hunarmand va dehqonlarning uylari zich joylashgan. Mikenaliklar Krit yozuvini o‘zlariga moslashtirib olganlar.



Mayya piramidasi. To‘rt tarafdagi zinalar soni yil kunlari sonlari – 365 ga teng bo‘lgan.

Mayya madaniyati. Markaziy Amerikaning Yukatan yarimorolida, qalin chakalakzorlar orasida mayyalar yashardi.

Bu xalq yashagan hudud tabiatan yashash uchun juda noqulay bo‘lgan. Biroq ular matonatli mehnatlari bilan bu hududni obod o‘lkaga aylantira oldilar. Mayya xalqi Amerika qit‘asida eng rivojlangan madaniyat namunalaridan birini yaratdi. Bu ular bunyod etgan Tikal shahri timsolida o‘z ifodasini topdi. Shaharda uch mingga yaqin turli imorat (ibodatxona, rasadxona, marosimlar saroyi va uy-joy)lar qurilgan. Shahar markazida qurilgan piramida va saroylar esa uning ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shib turgan.

Milodning birinchi ming yilligida mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keldi. Ularning hukmdorlari «Buyuk inson» deb atalgan. Hukmdorlik nasldan naslga meros bo‘lib o‘tgan. Mayyalar 300 belgidan iborat iyeroglifli yozuvni yaratganlar. Shuningdek, o‘z davri uchun eng aniq bo‘lgan kalendar tuzishga ham muvaffaq bo‘lganlar.

Ibodatxonalarda «xudolarga xizmat qiluvchilar» – kohinlar o‘z davrining eng o‘qimishli kishilari edi. Ular sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi, Quyosh va Oy tutilishi vaqtini oldindan hisoblab

chiqa olganlar. Ming yildan ortiq yashagan bu madaniyat keyinchalik yevropaliklar bosqini oqibatida barham topdi.

Inklar madaniyati. Amerikaning inklar deb atalgan xalqi (dastlab hozirgi Peru davlati hududida yashagan) ham o‘z davlatlarini tashkil etganlar. Davlatni oliy hukmdor — Oliy Inka boshqargan. Oliy Inka-ning yaqin qarindoshi bo‘lgan erkaklar o‘zlarini «Quyosh o‘g‘illari» deb atashgan. Bunga inklarning Quyoshni «bosh xudo» deb hisoblashlari sabab bo‘lgan. «Quyosh o‘g‘illari» davlatda yuqori lavozimlarni egallaganlar. Inklar qudratli sug‘orish tizimi bunyod etganlar. Xar-sangtoshlardan mudofaa inshootlari qurganlar. Ayniqsa, ular yaratgan uch qavatli tosh devorli Quyosh ibodatxonasi mashhur bo‘lgan. Ibodatxona devorlari yarmigacha oltin bilan qoplangan.



Inklar yozuvi — kipu.

Inklar Korikancha ibodatxonasida «Oltin bog‘» barpo etganlar. Bu bog‘ oltin va kumush-dan yasalgan qush, turli hayvon va odamlarning rasmlari bilan bezatilgan. Inklar iplarni turli ko‘rinishda tugish yo‘li bilan o‘ziga xos yozuv yaratdilar. Bu yozuv «kipu» deb ataldi. Inklar davlatida ikki xil maxsus o‘quv muassasasi faoliyat ko‘rsatgan. Ularning birinchisida aslzodalar til, tarix, harbiy va davlatni boshqarish san‘ati yo‘nalishida ta‘lim olganlar. Ikkinchisida esa qiz bolalar o‘qishgan. Ularda ibodatxona xizmatchilari va o‘z hayotini aslzodalar bilan bog‘lovchi oila bekalari tarbiyalangan. Bu o‘quv muassasasida she‘riyat, musiqa va raqs san‘atidan saboq berilgan.

Atamalar mazmunini bilib oling



Labirint — bir-biriga o‘xshash, xonalari behad ko‘p bo‘lgan, kishi yursa adashib qoladigan chalkash yo‘llari bo‘lgan ulkan bino.¹

Savol va topshiriqlar



1. Yevropadagi dastlabki madaniyat o‘chog‘i — Krit madaniyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Mayya madaniyati haqida so‘zlab bering.
3. Krit va Mikena madaniyat o‘choqlarini taqqoslang. O‘xshash va o‘ziga xos tomonlarini toping.
4. Inklar madaniyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

¹ O‘TIL. — T.: «ЎзМЭ». 2008. 2-jild. 481-bet.

13-§. QADIMGI SHAHARLARNING PAYDO BO'LISHI



Shaharlarning paydo bo'lishi. Shahar deyilganda yirik obod manzilgoh tushuniladi. Shaharlarning paydo bo'lishi hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi bilan bog'liq.

Dunyoda shaharlar miloddan avvalgi 5–3-ming yilliklarda dastlab Sharqda — Mesopotamiya, Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlarda paydo bo'ldi.

Hunarmand va savdogarlar to'planib yashayotgan manzillar tobora gavyumlashib bordi.

Asta-sekinlik bilan bu gavyum manzilgohlar shaharlarga aylandi. Shaharlarda katta-katta bozorlar soni tobora ortib bordi. Vaqtlar o'tishi bilan shaharlar ilmfan markaziga ham aylandi.

Memfis shahri. Eng qadimgi shaharlardan biri Qadimgi Misr davlatining poytaxti Memfis shahri edi.

Shahar Misrni yagona davlatga birlashtirgan podsho Menes tomonidan qurilgan. Shahar yirik madaniy va hunarmandchilik markazi ham edi. Misr davlatining hukmdorlari fir'avnlr deb atalgan. Fir'avnlr o'zlarining qudratini namoyish etish maqsadida piramidalar shaklidagi ulkan maqbaralar qurdira boshladilar. Vafot etgan fir'avnlr shu maqbaralarga dafn etilgan. Maqbaralar yaqinida fir'avnlardan biri sfinks shaklida tasvirlangan. Qoyadan ishlangan sfinksning balandligi 20 metrdan ortiq bo'lgan.



Qadimgi Misr shaharlari.



Sfinks.

Sfinks odamlarda qattiq qoʻrquv uygʻotgan. Shuning uchun u «dahshat otasi» deb atalgan. Piramida va sfinks misrliklarga «firʻavnlarning qudratli xudolardir», degan fikrni singdirishi lozim edi. Shaharda mahobatli ibodatxonalar ham qurilgan. Odamlarni xudo va firʻavnlarning qudratiga ishontirish maqsadida ibodatxona oldida yoki ichkarisida firʻavnlarning odam boʻyidan 5–6 marta katta keladigan haykallari qurilgan. Devor va ustunlarga esa ularning ulkan tasvirlari oyʻib ishlangan.

Bobil shahri. Bobil ham qadimgi shaharlardan biri. U bunyod etilgan hudud hozirgi Iroq davlati tarkibiga kiradi.

Yodda tuting!

«Bobil» soʻzi «Xudoning darvozasi» degan maʼnoni anglatadi.

Shahar qadimgi Babil davlatining poytaxti boʻlgan. Davlat ham oʻz nomini shu shahar nomidan olgan. Shahar, ayniqsa, podsho Xammurabi davrida Osiyoning eng mashhur shahriga aylandi. Biroq, keyinchalik shahar tashqi hujumlar natijasida bir necha marta vayron etildi.

Navuxodonosor II hukmronligi davrida Babil Osiyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Shahar markazida 7 qavatli, balandligi 90 metrli ibodatxona minorasi qurildi. Bobilliklar tasavvuricha, bu minora yerni osmon bilan tutashtirib turardi. Shaharning keyingi asrlardagi taqdiri fojiali kechdi. U dastlab Eron, keyinchalik esa makedoniyalik Aleksandr tomonidan bosib olingan.



Navuxodonosor II.

Nineviya shahri. Nineviya shahri ham dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Unga Dajla daryosi boʻyida asos solindi. Bu shaharning ham oʻrni hozirgi Iroq davlati tarkibidadir. Shaharning savdo yoʻllari kesishgan joyda oʻrnashganligi uning gullab-yashnashiga sharoit yaratdi. Keyinchalik shahar qadimgi Ossuriya davlatining poytaxtiga aylantirildi. Ossuriya kuch-qudratga toʻlgan davrlarda

«Jahonning poytaxti» deb ulugʻlandi. Biroq, podsholarning tinimsiz olib borgan urushlari Ossuriyani holdan toydirdi. Nihoyat, miloddan avvalgi 612-yilda Babil davlati uni tor-mor etdi. Nineviya esa yakson etildi.

Afina shahri. Yunonistonda bunyod etilgan Afina shahri bilim va donolik maʼbudasi Afina nomiga qoʻyilgan. Shahar aholisi Afinani oʻzlarining homiysi deb hisoblaganlar. Vaqtlar oʻtishi bilan Afina Yevropaning eng rivojlangan shahriga aylandi. Shaharda ilm-fan yuksak qadrlandi.

Afinaliklar dunyo xalqlari havas qilsa arzigulik madaniyat yaratdilar.



**Maʼbuda Afina
haykali.**

Yodda tuting!


Afina shahri hozirgi Gretsiya (Yunoniston) davlatining poytaxtidir.

Sparta shahri. Qadimgi Yunonistonning hududida qurilgan Sparta shahri ham oʻz davrining yirik shaharlaridan biri edi. Spartani oqso-qollar kengashi boshqargan. Bu kengash aʼzolari spartaliklarning yigʻilishida saylangan. Sparta lashkari qoʻmondonlari ham kengash aʼzolisiga kiritilgan. Kengash eng muhim ishlarni hal etgan. Aybdor kishilarni ham kengash sud qilgan.

Rim shahri. Manbalarda qayd etilishicha, hozirgi Italiya davlatining poytaxti Rim shahriga miloddan avvalgi 753-yilda asos solindi. Keyinchalik shahar Rim davlatining poytaxtiga aylandi.

Davlat ham shaharning nomi bilan ataldi. Vaqtlar oʻtishi bilan qadimgi Rim shahri dunyoning eng taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylandi.

Hatto shaharga quvurlar orqali togʻlardan buloq suvlari olib kelindi. Ibodatxonalar, saroylar va haykallar bunyod etildi. Rim shahri hozirgi kunda Italiya Respublikasining poytaxtidir.



**Rimda qurilgan
teatrlardan biri
(Kolizey).**

Atamalar mazmunini bilib oling



Sfinks — gavdasi shernikiga, boshi odamnikiga o‘xshatib toshga qoya qilib ishlangan afsonaviy jonzot haykali. U fir‘avn qudratining ramzi bo‘lgan.

Ma‘buda — xudoning ayol timsolida tasavvur qilingan xotini yoki qizi.¹

Fir‘avn (Ulug‘ uy, podsho qasri) — Misr podsholarning ulug‘vorligini anglatuvchi unvon.²

Savol va topshiriqlar



1. Shaharlarning paydo bo‘lishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Memfis, Bobil va Nineviya shaharlarini bir-biri bilan taqqoslang. O‘xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlang.
3. Afina va Sparta shaharlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Rim shahri haqidagi ma‘lumotlarni Afina shahri haqidagi ma‘lumotlar bilan taqqoslang.

MUSTAQIL ISH

Qadimgi dunyo shaharlari:

1. Memfis, Bobil, Nineviya, Afina va Rim shaharlariga xos umumiy jihatlarni ayting.

- a) ... ;
- b)

14-§. DUNYONING QADIMGI DAVLATLARI



Qadimgi Misr va Bobil davlatlari. Davlat — ma‘lum bir hududda uyushgan odamlar (kishilik jamiyati)ni qonun kuchi bilan boshqaradigan tashkilotdir. Qonun esa davlat tomonidan belgilab qo‘yiladigan va hammaning bo‘ysunishi shart bo‘lgan tartib-qoidalardir. Davlat dastlab miloddan avvalgi to‘rtinchi ming yillik boshlarida Afrika qit‘asidagi Misr hududida tashkil topdi. Ular kichik-kichik shahar-davlatlar bo‘lib, «nomlar», davlat boshliqlari esa «nomarxlar» deb ataldi. Keyinchalik bu davlatlar o‘rnida ikkita katta davlat tashkil etildi. Davrlar o‘tishi bilan bu ikki davlat yagona davlatga birlashtirildi. Memfis shahri davlat poytaxti etib belgilandi. Davlat hukmdori fir‘avn deb ataldi.

¹ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 563-bet.

² O‘zME. — T.: «ЎЗМЭ». 2001. 2-jild. 259-bet.

Davlatning ichki hayoti o‘zaro urushlarsiz kechmagan. Uzoq davom etgan bu urushlar Misrni zaiflashtirdi. Oqibatda, Misrni dastlab Eron davlati, keyinchalik makedoniyalik Aleksandr, undan keyin esa Rim davlati bosib oldi.

Osiyo qit‘asining Misrdan uncha uzoq bo‘lmagan qismida Frot va Dajla daryolari mavjud. Shu ikki daryo oralig‘i Mesopotamiya deb atalgan. Mesopotamiya yerlari nihoyatda unumdor bo‘lganligi uchun odamlar bu joylarni o‘z manzilgohlariga aylantirdilar.

Mesopotamiyada miloddan avvalgi 2-ming yillikda Babil davlati tashkil topdi. Podsho Xammurapi hukmronligi davrida Babil eng qudratli davlatga aylandi. U Mesopotamiyaning barcha qismini Babilga bo‘ysundirdi.

Qadimgi Xitoy va Hindistonda davlatning vujudga kelishi. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda Xitoyning Xuanxe daryosi etaklarida dastlabki davlatlar vujudga keldi. Vaqtlar o‘tishi bilan ularning soni ko‘payib bordi. Ulardan biri – Sin davlati hukmdori Sin Shi Xuandi miloddan avvalgi III asrda Xitoyni yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Xitoyda astronomiya, tibbiyot, geografiya ilmlari hamda dehqonchilik rivojlandi. Hamma sevib ichadigan choyni xitoyliklar yetishtirganlar. Kompasni ham birinchi bo‘lib xitoyliklar ixtiro qildilar.

Xitoy olimlari o‘z mamlakati tarixini yoritishga astoydil urindilar.



Ikki daryo oralig‘idagi davlatlar.



Qadimgi Hindiston.

Qadimgi hind	XII asrdagi arab	Hozirgi zamon
—	1	1
୧	6	6
୨	8	8
୦	୦	0

Raqamlar taraqqiyoti.

oʻnta raqamni kashf etdilar. Natijada oʻnta raqam orqali istagan sonni ifodalash mumkin boʻldi.

Bu kashfiyot dunyo xalqlariga hali-hanuz ulkan xizmat qilib kelmoqda.

Bu ishni amalga oshirish tarixchi olim Sima Syanga nasib etdi (miloddan avvalgi II—I asr boshlari).

U oʻzining «Tarixiy yilnomalar» kitobi bilan tarixda oʻchmas iz qoldirdi.

Hindistonda esa dastlabki davlatlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda tashkil topdi. Miloddan avvalgi III asrda podsho Ashoka Hindistonni yagona davlatga birlashtirishga erishdi.

Hindlar ilm-fan sohasida ham katta yutuqlarga erishdilar. Xususan, ular «0» (nol) bilan boshlanadigan

Atamalar mazmunini bilib oling



Astronomiya — osmon jismlarining tuzilishi va harakatlarini oʻrganuvchi fan.¹

Tibbiyot — kishilar sogʻligʻini saqlash, kasalliklarning oldini olish va davolash haqidagi bilimlar tizimi.

Savol va topshiriqlar



1. Davlat nima ekanligini izohlab bering.
2. Mulohaza yuriting: nima uchun odamlar uyushmasi (kishilik jamiyati)ni qonunsiz boshqarib boʻlmaydi?
3. Davlatning paydo boʻlishiga qanday omillar sabab boʻlgan?
4. Qadimgi Misr va Bobil davlatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Qadimgi Xitoy va Hindistonni yagona davlatlarga birlashtirgan tarixiy shaxslarni qayd eting.
6. Qadimgi Xitoy va Hindistonning madaniyatda erishgan yutuqlarini taqqoslang.

¹ OʻTIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 1-jild. 112-bet.

15-§. QADIMGI DUNYONING YETTI MO‘JIZASI



Yetti mo‘jiza haqida. Qadimgi manbalarda O‘rtayer dengizi atrofidagi mamlakatlarda bunyod etilgan va o‘z salobati, go‘zalligi bilan o‘sha zamon odamlarini hayratga solgan inshootlardan yettitasi «Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi» deb yozib qoldirilgan.


Misr ehromlari. Qadimgi Misrda vafot etgan fir‘avnlr uchun avval maxsus «uy» — tobut yasalgan. Bunday «uy» (tobut) sarkofag deb atalgan. Fir‘avning mumiyolangan jasi unga solingan. Keyin bu sarkofag doimiy turarjoyga — toshdan qurilgan maqbaraga qo‘yilgan. Bu maqbaralar ehromlar deb atalgan. Misr fir‘avnlari hayotligi paytidayoq o‘zlariga katta toshlardan piramida shaklida ehromlar qurdirib qo‘yganlar. Kitoblarda yozilishicha, ehromlarning eng ulkanini fir‘avn Xufu (yunonlar uni Xeops deb atashgan) qurdirgan. Xufu ehromini qurish uchun 2 million 500 mingta tosh sarflangan. Eng kichik toshning og‘irligi 2,5 tonna bo‘lgan.



Misr ehromlari.

Ehrom toshlariga shunday ishlov berilganki, birining ustiga ikkinchisi qo‘yilganda ular judayam zich yopishib turgan.

Semiramida osma bog‘lari. Qadimgi Yunoniston tarixchisi Gerodotning yozishicha, Semiramida osma bog‘larini qadimgi Ossuriya podshohi — malika Semiramida (asli ismi Shammuramat) mil.avv. VIII asrda barpo ettirgan.¹ Bog‘ supaga o‘xshash qilib qurilgan, supalarni ustunlar ko‘tarib turgan. Supalar ustiga tuproqlar tashlanib, unga rang-barang gullar, har xil ko‘chatlar o‘tqazilgan. Har bir qavatdagi bog‘ga zinapoyalar orqali chiqilgan. Har kuni ko‘plab qullar tepaga suv tashishgan. Bog‘dagi so‘lim daraxtlar soyasi, tepadan pastga jilvirab oqayotgan suv salqini haqiqiy mo‘jizaning o‘zi bo‘lgan. Keyinchalik bu bog‘ni Bobil



Semiramida osma bog‘lari.

¹ P. Zohidov. «Semiramida — Shammuramat izidan». «Tafakkur» jurnali. 2-son. — T.: 2011. 64–69-betlar.



Olimp xudosi Zevs.



Ma'buda Artemida ibodatxonasi.

podshosi Navuxodonosor II vayron qilib tashlagan.

Olimp xudosi Zevs haykali. Afsonalarga ko'ra, yunon xudolari Olimp tog'ida yashaganlar. Zevs xudolarning oliysi va odamzotning «otasi» hisoblangan. Uning nomi «yorug' osmon» degan ma'noni anglatgan. Qudratli Zevs sharafiga yunonlar 4 yilda bir marta mashhur sport musobaqalari — Olimpiya o'yinlarini o'tkazganlar.

Yunonlar Zevsga atab ibodatxona va haykal bunyod etganlar. Xudolar podshosi Zevs taxtda o'tirgan holda tasvirlangan. O'ng qo'lida — ma'buda Nikaning haykali, chap qo'lida — muqaddas burgut o'rnatilgan podsholik hassasi, oltin libosga burkangan, tanasi fil suyagidan taroshlangan, ko'zlari qimmatbaho toshlardan yasalgan Zevs haykalining balandligi 12 metr edi. Haykal shu darajada mahorat bilan ishlanganki, uni tomosha qilgan kishining tashvishlari, g'am-g'ussalari tarqalib ketgan.

Ma'buda Artemida ibodatxonasi. Ma'buda Artemida sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati hududida joylashgan) ko'rganlarni lol qoldiradigan ibodatxona qurilgan.

Afsonalarga ko'ra, Artemida Zevsning qizi bo'lgan. U hosildorlik, ov va Oy ma'budasi edi. Ayni paytda hayvonlar homiysi, shuningdek, ayollar madadkori ham hisoblangan. Artemida ibodatxonasining tomini qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli

ustunlar suyab turgan. Ibadatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan.

Quyosh xudosi Gelios haykali. Miloddan avvalgi III asrda Rodos shahri aholisi shaharning bir yillik qamaldan xalos bo‘lganligi sharafiga shahar homiysi Quyosh xudosi Geliosning haykalini yaratishga qaror qildilar. Balandligi 35 metr bo‘lgan bu haykal misdan ishlandi.

Haykal haykaltarosh Xaros tomonidan 12 yil davomida bunyod etilgan. Haykal Quyosh xudosi Geliosning boshi Quyoshga tegib turgandek tasvirlangan.

Aleksandriya mayog‘i. Mil. avv. 283-yilda o‘sha zamonning ajoyib mo‘jizasi — Aleksandriya mayog‘i bunyod etilgan. Mayoq kemalarning Aleksandriya shahri bandargohiga kirish xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilgan. Mayoqning balandligi 120 metr edi. Uning eng yuqori qismi gumbaz bilan qoplandi. Gumbazning ustiga «dengiz xudosi» Poseydonning 7 metrlik haykali o‘rnatildi. Gumbazni sayqallangan granit (tog‘ jinsi) ustunlar ushlab turgan. Uning ustki qismida kechasi bilan yonib turgan mayoq olovi dengizchilarga uzoqdan ko‘rinib turgan.

Mayoq atrofni kuzatish nuqtasi vazifasini ham bajargan.

Galikarnas maqbarasi. Kichik Osiyoda Kariy viloyati bo‘lgan. Uning markazi nihoyatda boy va go‘zal Galikarnas shahri edi. Galikarnas maqbarasi mil. avv. 353-yilda vafot etgan hukmdor Mavsol xotirasi sharafiga bunyod etilgan. Bu maqbara ibodatxona vazifasini ham bajargan.

Maqbaraning kengligi 66 metr, uzunligi 77 metr, balandligi esa 46 metr bo‘lgan.

Bizning kunimizgacha yetti mo‘jizadan faqat Misr ehromlarigina saqlanib qolgan.



Quyosh xudosi Gelios haykali.



Aleksandriya mayog‘i.


Atamalar mazmunini bilib oling



Mayoq — kemalarga yo‘l ko‘rsatish uchun dengiz qirg‘og‘iga quriladigan va kema yo‘nalishini ko‘rsatib beruvchi jihozlarga ega bo‘lgan minora ko‘rinishidagi qurilma.¹

Maqbara — qabr ustiga qurilgan bino.²

Rodos — O‘rtayer dengizidagi orollardan birining nomi. Orol Yunoniston (hozirgi Gretsiya) davlatiga tegishli.



Galikarnas maqbarasi.

Savol va topshiriqlar



1. Qadimgi dunyoning qaysi obidalari «yetti mo‘jiza» deb atalgan?
2. Misrda ehromlar nima uchun qurilgan?
3. Semiramida osma bog‘lari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Zevs haykali haqida so‘zlab bering.
5. Nega ma‘buda Artemidaga atab ibodatxona qurilgan?
6. Galikarnas maqbarasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

16-§. O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI QADIMGI DAVLATLAR



Qadimgi ajdodlarimiz. Saklar, massagetlar va sug‘dlar bizning qadimgi ajdodlarimizdir. Ularning yashash tarzlari va mehnat faoliyatlari haqida qadimgi Yunoniston va Rim olimlarining asarlarida ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, yunon tarixchisi Gerodot bunday deb yozgan:



Gerodot.

«Massagettlarning barcha buyumlari, hatto nayza, o‘q-yoy va oyboltalari ham oltin va misdan yasalgan. Bosh kiyimlari, kamarlari, otlarining yugan va uzangilari ham oltindan, ko‘krak qalqonlari esa misdan bo‘lgan. Ular oltin va mis konlari ko‘p bo‘lganligi sababli, kumush va temirni ishlatmaganlar».

¹ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 522-bet.

² O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 569-bet.

Yozma manbalarda ta'kidlanganidek, saklar — hozirgi Sirdaryo bo'ylarida, Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida, Farg'ona vodiysida, massagetlar — hozirgi Amudaryoning quyi oqimlari va unga tutash bo'lgan yerlarda, sug'dlar esa hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vohasida hayot kechirganlar.


Ajdodlarimiz sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Xorazm davlati. Miloddan avvalgi VII asrda hozirgi O'zbekiston hududida Xorazm va Baqtriya davlatlari vujudga keldi.

Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Milodiy II—III asrlarda bunyod etilgan Tuproqqal'a Xorazm davlatining yirik shaharlaridan biri bo'lgan. Arxeologlar bu shahardagi shohlar saroyi xonalaridan birida boshiga toj kiygan va qo'lida burgut ushlagan podsho haykalini topganlar.

Saroyda, shuningdek, «jangchilar zali», «g'alabalar zali» kabi zallarning bo'lganligi ham aniqlangan. Xorazm davlatida sug'orma



Xorazm, Baqtriya va Sug'diyona davlatlari xaritasi.



Qadimgi Xorazm tangalari.



**Qadimgi Baqtriya
uy qo'rg'oni.**

dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Amudaryodan suv chiqarish uchun maxsus inshootlar barpo etilgan.

Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan. Tog'lardan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlarga ishlov berilib, har xil buyumlar tayyorlangan. Ular Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlarda sotilgan.

Qimmatbaho metallardan tangalar zarb etilgan. Qadimgi Xorazm davlati o'zbek davlatchiligining ilk poydevori bo'lib, 2700 yillik tarixga ega.

Buni diqqat bilan o'qing!

O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir.¹

Baqtriya davlati. Baqtriya davlati hozirgi O'zbekistonning janubida joylashgan.

Baqtra va Qiziltepa, Baqtriyaning yirik shaharlari bo'lgan.

Baqtra shahri Baqtriya davlatining poytaxti edi. U baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shahar ichida mamlakat podshosining muhtasham qal'asi joylashgan edi. Baqtriyada oltin, la'l kabi qimmatbaho ma'danlar qazib olingan. Baqtriya la'lidan tayyorlangan

¹ *Islom Karimov. Go'zal diyorumiz gavhari. (Ma'naviy yuksalish yo'li-da.)* – T.: «O'zbekiston» NMIU. 1999-yil.

mahsulotlar Xitoy, Hindiston, Misr kabi mamlakatlarda sotilgan. Qimmatbaho ma'danlar qazib olinishi mamlakatda zargarlik, badiiy hunarmandchilikning rivoj topishiga olib keldi.

Sug'd davlati. Zarafshon va Qashqadaryo vohasi atrofidagi yerlar Sug'diyona deb atalgan. Keyinchalik bu hududda Sug'd davlati tashkil topdi.

Aholi, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Afrosiyob (hozirgi Samarqand shahri-ning sharqiy qismi) markaziy shahar bo'lgan.

Hunarmandchilik va savdo ham katta o'ringa ega edi.

Sug'd ham Osiyoning boshqa davlatlari bilan savdo aloqalari o'rnatgan.

Tarixiy joylarni bilib oling



Qiziltepa – hozirgi Surxondaryo viloyati hududidagi qadimgi shahar.


Savol va topshiriqlar



1. Qadimgi ajdodlarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qadimgi Xorazm davlati haqida so'zlab bering.
3. Baqtriya davlatida qanday shaharlar bo'lgan?
4. Sug'd davlati haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL TOPSHIRIQ

Ota-onangiz yordamida «Davlatchilik tarixi» tushunchasining izohini aniqlashga harakat qiling.



V bob. SAVDO VA ALOQA

17-§. TANGALAR – TARIX GUVOHI



Dastlabki tangalar. Dunyo xalqlari hayotida pul katta ahamiyatga ega. U ming yillar davomida insonlarga ayirboshlash vositasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Kishilik tarixida pul bo‘lmagan davrlar ham bo‘lgan. Ular dastlab iste‘mol qiladigan barcha narsalarni o‘zlari ishlab chiqarganlar.

Vaqlar o‘tishi bilan dehqonchilikdan chorvachilik va hunarmandchilikning alohida faoliyat turi bo‘lib ajralib chiqishi savdo-sotiqning kuchayishiga olib kelgan. Endi ular ishlab chiqargan mahsulotlarini o‘zaro ayirboshlashga o‘tganlar. Shu tariqa bir-birlarining hojatlarini chiqara boshlaganlar.

Savdo aloqalarining tobora o‘sib borishi, shaharlarning esa ko‘payib borishi foydalanish uchun eng qulay bo‘lgan ayirboshlash vositasi — pulning yaratilishini zaruriyatga aylantirib qo‘ydi. Metall (mis, kumush va oltin)dan ishlangan dastlabki pul — tanga shu tariqa paydo bo‘ldi.

Yodda tuting!

Tanga (turkiy – tamg‘a so‘zidan olingan) – maxsus ramzlar tushirilgan va ma‘lum og‘irlikka hamda qiymatga ega bo‘lgan metalldan yasalgan pul.

Arxeolog olimlar tanga dastlab miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Lidiya (Osiyoda) davlatida paydo bo‘lganligini aniqladilar.

Lidiya hududida oltin ko‘p bo‘lgan. Bu davlatda oltindan zarb etilgan tanga **starter** deb atalgan.

Eron podshosi Doro I davrida esa o'sha davrning mashhur «darik» deb ataluvchi tanga puli joriy etildi. Bu tanganing har biri 8,4 gramm sof oltindan yasalgan.

Tangalar tarixdan guvohlik beradi. Tangalar, avvalo, o'zining qanday metallardan yasalganligiga qarab shu tangani zarb etgan davlatlar, ularning yerosti boyliklari haqida guvohlik beradi. Ikkinchidan, tangalarning og'irligi va uning zarb etilish usuli, shuningdek, sifati haqida guvohlik beradi.

Uchinchidan, davlatning nomi, hukmdorining ismi, uning taxtga o'tirgan vaqti va hukmronlik qilgan yillari haqida guvohlik beradi.

To'rtinchidan, u yoki bu davlat tangasining boshqa davlatlar hududidan ham topilishiga qarab bu davlatning qaysi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borganligi, tashqi savdoda qaysi davlatning puli katta rol o'ynaganligi haqida ham ma'lumot olish mumkin.

Qadimgi va zamonaviy tangalarda ramzlarning aks etilishi. Qadimgi davrlarda tangalarga turli ramzlar va hukmdorlarning tasviri tushirilgan. Shuningdek, hukmdorning unvoni, ismi va tamg'asi hamda tangani chiqargan davlatning yoki shaharning nomi, zarb etilgan yili yozilgan.

Xususan, Lidiya podsholigining tanga puli — starterning bir tomoniga lidiyaliklar uchun muqaddas hisoblangan **tulki** tasviri tushirilgan. Ayni paytda, tulki lidiyaliklarning bosh xudosi — Bassareyning ramzi ham hisoblanardi.


Qator davlatlar hukmdorlari nomlarini abadiylashtirish maqsadida tangalariga o'z tas-



Yunon-Baqtriya davlati tangalari.



Aleksandr tangasi.



Yevkratid tangasi.



O'zbekistonning yubiley tangalari.



Toshkentning yubiley tangasi.

virlarini tushirganlar. Masalan, Doro I makedoniyalik Aleksandr, Rim hukmdori Yuliy Sezar, Yunon-Baqtriya hukmdori Yevkratid va boshqalar zarb ettirgan tangalar buning dalilidir.

Zamonaviy tangalarda ham turli ramzlarni aks ettirish an'anasi davom etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining pul birligi — so'm 1994-yilning 1-iyulidan muomalaga kiritildi. 10, 25 va 50 so'mlik tanga pullar ham zarb etildi.

Bu tangalarning yuz qismiga uning necha so'm ekanligi, orqa tomoniga esa «O'zbekiston Respublikasi» yozuvi va davlatimiz gerbi tasviri tushirilgan.

O'zbekistonda mashhur allomalarimiz yubileyleri munosabati bilan ham ularning tasviri tushirilgan tanga pullar zarb etilgan. Masalan, 1996-yilda buyuk bobomiz Amir Temur yubileyining 660 yilligi munosabati bilan, 2009-yilda esa Toshkent shahrining 2200 yilligiga atab 100 so'mlik tanga puli zarb etilganligi buning dalilidir.

Atama mazmunini bilib oling



Yubiley — tarixiy voqealar, buyuk tarixiy shaxslarning muayyan yoshini tantanali nishonlash.

Savol va topshiriqlar



1. Pul paydo bo'lguniga qadar savdo ishlari qanday amalga oshirilgan?
2. Dastlabki paydo bo'lgan tanga pullar haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nega tangalar — tarix guvohi deyiladi?
4. Tangalarda aks ettirilgan turli ramzlar, rasmlar va sanalar nimalarni anglatishini izohlab bering.
5. O'zbekiston davlatining tanga pullari haqida nimalarni bilib oldingiz?

18-§. SAVDO YO‘LLARI



Qadimgi karvon savdo yo‘llari. Savdo-sotiq ishlari barcha davrlarda kishilar hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Savdo-sotiq davlat iqtisodiy taraqqiyotiga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. Shu tufayli ham turli mamlakatlar o‘zaro foydali savdodan juda manfaatdor bo‘lganlar.

Bu esa qadimda ham muhim savdo yo‘llari ochilishiga olib keldi. O‘z hududidan savdo karvonlari o‘tadigan mamlakatlar yo‘l atroflariga savdogarlar uchun barcha zarur qulayliklarni yaratib berganlar. O‘zlarining va mollarining xavfsizligini ta‘minlash choralarini ko‘rganlar.

Qadimgi karvon savdo yo‘llaridan biri «La‘l yo‘li» deb atalgan. Bu yo‘l miloddan avvalgi 3–2-ming yilliklarda ochilgan.

Yodda tuting!

Yo‘lning «La‘l yo‘li» deb atalishiga bu yo‘ldan qimmatbaho la‘l toshining tashilishi sabab bo‘lgan. U lojuvard deb ham ataladi.

«La‘l yo‘li» Pomir tog‘idan boshlanib, Eron, Mesopotamiya va Misr orqali o‘tgan. La‘l toshlaridan yasalgan buyumlar hatto Misr fir‘avnlari maqbaralari (ehromlari)dan ham topilgan.

Qadimgi mashhur savdo yo‘llaridan yana biri «Shoh yo‘li» deb ataladi. Unga Eron shohi Doro I asos soldi. Uni Eron shohlari nazorat qilishgan. «Shoh yo‘li» ikki yo‘nalishli bo‘lib, birinchisi O‘rtayer dengizi bo‘yidagi turli shaharlarni Eron bilan bog‘lagan bo‘lsa, ikkinchisi Eron va Baqtriya orqali o‘tib Oltoy va Hindis-tongacha borgan.

Buyuk Ipak yo‘li. Uzunligi 12000 km bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li miloddan avvalgi II asrda ochildi. Bu yo‘l faqat savdo yo‘li emas edi. U, ayni paytda, dunyo xalqlari o‘rtasida madaniy hamda davlatlararo aloqalar yo‘li sifatida ham xizmat qildi. Yo‘l Xitoyning Xuanxe daryosi bo‘yida joylashgan Sian shahridan boshlanib, ikki yo‘nalishli bo‘lgan.

Birinchi yo‘nalish — Xitoydan Samarqandgacha bo‘lgan yo‘nalish edi. Samarqandda yo‘l yana ikkiga bo‘lingan.



Buyuk Ipak yo'li.

Biri Eron orqali O'rtayer dengizigacha, ikkinchisi Shimoliy Kavkaz orqali Qora dengizigacha yetib borgan.

Ikkinchi yo'nalish Xitoydan boshlanib, Pomir – Tyan-Shan tog' tizmalaridan o'tib, Afg'onistonga, undan Hindistonga olib chiqqan.

Yodda tuting!

«Buyuk» so'zi yo'ning juda uzun bo'lganligini hamda juda ko'p xalqlar taqdiriga aloqador bo'lganligini anglatadi, «ipak» so'zi esa yo'ning, asosan, ipak savdosiga xizmat qilganligini bildiradi.

Ipak mahsulotlari Yevropa xalqlarini juda maftun etgan. U zamonlarda Yevropa ipak nimaligini bilmagan. Bizning bobolarimiz va xitoyliklar ipakdan ajoyib matolar to'qiganlar. Bu matolar yevropaliklarni lol qoldirgan. Ba'zi yozma manbalarda yozilishicha, hatto bir vaqtlar ipak mato o'rami pul o'rnida ham ishlatilgan. Buyuk Ipak yo'li



Buyuk Ipak yo‘lidagi bozor.

qaysi davlat hududidan o‘tgan bo‘lsa, shu davlat hukmdorlari yo‘l yoqasida bekatlar, karvonsaroylar qurdirganlar. Yo‘lning xavfsiz bo‘lishi choralari ko‘rganlar.

Chunki, bu yo‘l tufayli shu davlatning ham savdo-sotiq ishlari rivojlangan. Qolaversa, savdo karvonlarining egalari boj ham to‘laganlar. Bu esa davlat xazinasiga katta daromad keltirgan. Buyuk Ipak yo‘li yurtimiz tarixida ham katta iz qoldirdi. Buyuk Ipak yo‘li dunyo xalqlariga o‘n yetti asr davomida xizmat qildi.

Qadimgi dengiz savdo yo‘li. Qadimgi davrlarda dengiz savdo yo‘llari ham mavjud bo‘lgan. Shulardan biri O‘rtayer dengizining sharqiy sohilida yashagan qadimgi finikiyaliklar ochgan dengiz savdo yo‘li edi.

Finikiyaliklar o‘z davrining jasoratli dengizchilari bo‘lganlar. Finikiyaliklar birinchi bo‘lib O‘rtayer dengiziga yo‘l ochganlar. Ular shimolda, Gibraltar bo‘g‘ozi orqali Britaniya orollarigacha, Qizil dengiz orqali Hind okeaniga suzib borganlar. Finikiyaliklar o‘sha davr uchun mustahkam savdo kemalari yasaganlar. Ular yelkanlar yordamida yurgan va ko‘p yuklarni tashiy olgan. Finikiyaliklar kechalari yo‘ldan adashib ketmaslik uchun yulduzlarga qarab suzishni bilganlar.

Atama mazmunini bilib oling



Finikiya — Hozirgi Livan va Suriya davlatlari hududining bir qismida mavjud bo‘lgan qadimgi davlat.¹

Savol va topshiriqlar



1. Nega qadimgi davrlarda ham savdo yo‘llari ochilgan?
2. «La‘l yo‘li» va «Shoh yo‘li» haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Buyuk Ipak yo‘lining ochilishi va uning dunyo xalqlari hayotida tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering.
4. Qadimgi finikiyaliklar ochgan dengiz savdo yo‘llari haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL TOPSHIRIQ

O‘zbekistonning bugungi kunda Xitoy davlati bilan olib borayotgan tashqi savdosida qanday yo‘llardan foydalanayotganligini aniqlab keling.

19-§. YANGI DENGIZ SAVDO YO‘LLARINING OCHILISHI



Dengiz savdo yo‘llariga ehtiyojning o‘sishi. Milodning XV asri oxiri va XVI asr boshlarida Yevropa qit‘asi davlatlarida yangi dengiz savdo yo‘llariga ehtiyoj yanada kuchaydi. Bunga nimalar sabab bo‘ldi?

Birinchidan, XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Yevropada tovar ishlab chiqarish yuqori sur‘atlarda o‘sa boshladi. Bu esa turli xomashyolarga bo‘lgan talabni oshirib yubordi. Biroq, Yevropa qit‘asining o‘zida xomashyo kamligi tufayli ushbu talabni qondira olmadi.

Bundan tashqari, Yevropada savdo-sotiqning rivojlanishi pulga bo‘lgan ehtiyojni ham oshirib yubordi. Ko‘p miqdorda pul zarb etish uchun ko‘plab oltin va kumush kerak edi. Yevropada esa bunday nodir metallar kam bo‘lgan. Shu tufayli yevropaliklar ularni boshqa qit‘a mamlakatlaridan olib kelishni o‘ylay boshladilar. Ularning ongini o‘zga o‘lka xalqlarining oltin-kumushlari va boshqa boyliklarini egallash chulg‘ab oldi. Biroq, yevropaliklar Buyuk Ipak yo‘lidan va O‘rtayer dengizi orqali o‘tadigan dengiz savdo yo‘lidan foydalana olmas edilar. Chunki, bu yo‘llarning nazorati yevropaliklarning asosiy

¹ O‘zME. — T.: «ЎзМЭ». 2008. 9-jild. 252-bet.

raqibi Usmoniyalar davlati (Turkiya) qo‘lida edi. Binobarin, bu yo‘llar yevropaliklar uchun xatarli bo‘lib qoldi. Bunday sharoitda yangi dengiz savdo yo‘llarini ochish zaruriyatga aylandi. Bu davrda yevropaliklarda yangi dengiz savdo yo‘llarini ochishga imkon beruvchi mustahkam kemalar hamda o‘zlarini himoya qilishga imkon beruvchi zamonaviy harbiy qurollar mavjud edi.

Bundan tashqari, ular dengizda **kompas** va **astrolyabiyadan** foydalanishni bilardilar.

Yangi dengiz savdo yo‘llarining ochilishi.

Portugaliya va Ispaniya dengizchilari yangi dengiz yo‘llari ochilishining tashabbuskorlari bo‘lishdi. Yangi dengiz yo‘llarini ochish dengizchilardan katta dovyuraklikni ham talab etgan, albatta.

Yangi dengiz savdo yo‘li ochishga birinchi bo‘lib Ispaniya qirolligiga xizmat qilgan dengiz sayyohi admiral Xristofor Kolumb rahbarlik qildi. U o‘z oldiga Yevropadan Atlantika okeani orqali Hindistonga boradigan dengiz yo‘li ochishni maqsad qilib qo‘ydi.



Xristofor Kolumb.

Nihoyat, 1492-yilning yozida X. Kolumb boshchiligidagi 3 ta kema Atlantika okeani orqali harakatni boshladi. Shu yilning oktabr oyida sayohatchilar quruqlikka kelib tushdilar. X. Kolumb Hindistonga yetib keldim, deb o‘yladi. Biroq, u Hindistonga emas, yangi qit‘a — Amerikaga kelib qolgan edi. Shu tariqa Amerika qit‘asi kashf etildi.

Yodda tuting!

1492-yilning 12-oktabri Amerika qit‘asi kashf etilgan sana bo‘lib tarixga kirdi.

X. Kolumb ochgan o‘lkalar Ispaniya qirolligi mulkiga aylandi.

Keyingi kashfiyotlar. 1498-yilda Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo‘lini portugaliyalik sayyoh Vasko da Gama ochishga muvaffaq bo‘ldi.

Keyinchalik yevropalik boshqa sayyohlar Avstraliya (Janubiy yer) qit‘asini ham kashf etishdi.

Yodda tuting!

Odamlar uchun o'zlari yashagan davrgacha noma'lum bo'lgan yangi yerlarning izlab topilganligiga buyuk geografik kashfiyotlar deyiladi.

Jahon savdo aloqalari. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli yangi savdo yo'llari ochildi. Bu yo'llarning ochilishi, o'z navbatida, jahon savdosini vujudga keltirdi. Natijada kishilik jamiyati rivoji yanada tezlashdi. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Angliya eng muhim dengiz savdo yo'llari ustidagi davlatga aylandi. Bu esa unga jahon savdosida yetakchilikni qo'lga kirita borishga imkoniyat yaratdi. Poytaxt London shahri savdo kemalari to'xtaydigan yirik **port** shahriga aylandi.



XV asr Amerika xaritasi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Admiral (dengiz hukmdori) – harbiy dengiz floti qo‘mondonlariga beriladigan oliy harbiy unvon.¹

Astrolyabiya – XVIII asrgacha biror joyning geografik joylashuv holatini, vaqtini, yulduzlarning chiqish va botish paytini aniqlashda ishlatib kelingan asbob.²

Kompas – dunyoning tomonlarini aniqlaydigan, mili doimo shimolni ko‘rsatib turadigan asbob.³

Port – dengiz yoki daryo qirg‘og‘ida kema turadigan va ta‘mirlanadigan, yuk ortish va tushirishga mo‘ljallangan hamda yo‘lovchilarga xizmat qiladigan maxsus jihozlangan joy.⁴

Savol va topshiriqlar



1. Qanday omillar yevropaliklar oldiga yangi dengiz yo‘llari ochish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ygan?
2. Yangi dengiz yo‘llarining ochilishida X.Kolumb qanday rol o‘ynadi?
3. Portugaliyalik dengiz sayyohlari yangi dengiz yo‘llari ochilishiga qanday hissa qo‘shganlar?
4. Buyuk geografik kashfiyotlar deb nimaga aytilgan va uning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat bo‘lgan?

MUSTAQIL ISH

Mustaqil O‘zbekiston davlatining dengiz savdo flotiga ega emasligi qanday omillar bilan izohlanadi? Bu haqda javoblaringizni tayyorlab keling.

20-§. ISHLAB CHIQRISH TEXNIKASINING PAYDO BO‘LISHI



Ishlab chiqarish texnikasi nima? Ishlab chiqarish texnikasi inson mehnatini yengillashtiradigan va mehnat unumdorligini ko‘p marotaba oshirishga imkon beradigan mehnat qurollaridir.

Yodda tuting!

«Ishlab chiqarish texnikasi» iborasi o‘rnida «mashina» iborasi ham ishlatiladi.


¹ O‘zME. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 1-jild. 40-bet.

² O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 1-jild. 111-bet.

³ O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 396-bet.

⁴ O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2007. 3-jild. 298-bet.

Texnikaning avvalgi mehnat quollaridan asosiy farqi — uning ishlab chiqarishda inson qo‘l mehnatini keskin kamaytirishi yoki unga umuman o‘rin qoldirmasligidir. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Motiga, omoch, plug, charxpalak, urchuq, charx, to‘quvchilik dastgohlari, shamol tegirmoni va boshqalar odam qo‘l mehnatini eng ko‘p darajada yengillashtirishga imkon beradigan texnikani yaratish yo‘lidagi dastlabki ixtirolar bo‘ldi.



«Jenni» mexanik ip yigirish mashinasi.

Sanoatda ishlab chiqarish texnikasining paydo bo‘lish sabablari. Sanoat xo‘jalikning texnika yordamida xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan sohasidir. Sanoatda ishlab chiqarish texnikasining qo‘llanishi XVIII asrga kelib dastlab Angliyada yuz berdi. Bunga qanday omillar sabab bo‘ldi? Bu davrda Angliyada ishlab chiqarish tez suratlarda rivojlandi. U yirik harbiy dengiz va

savdo flotiga ega edi. Bu hol unga chet ellarga katta miqdorlarda tovarlar chiqarib sotish imkonini berdi. Angliya sarmoyadorlari chet ellarga yanada ko‘proq, birinchi navbatda eng xaridorgir to‘qimachilik sanoat mahsulotlarini olib chiqib sotish va undan katta boylik orttirishga intildilar. Ayni paytda, Angliya o‘zi bosib olgan o‘lkalar hisobiga ulkan xomashyo manbalariga ham ega bo‘lib oldi. Buning natijasida Angliya sarmoyadorlarining boyliklari tobora ortib bordi. Bora-bora ularning qo‘lida ko‘plab ist‘emol tovarlari ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan fabrikalar qurish va ularda ilg‘or texnika yutuqlaridan foydalanish imkonini beradigan darajada pul mablag‘i to‘plandi. Shu tariqa, Angliyada ishlab chiqarish texnikalari (mashinalar) ixtiro qilish davr talabiga aylandi.

Buyuk ixtirolarning boshlanishi. Angliyada ishlab chiqarish texnikasidagi ixtirolar dastlab to‘qimachilik sohasida boshlandi. Bunga sifatli matolarga talabning tobora ortib borishi sabab bo‘ldi. Bu talabni faqat ishlab chiqarish texnikasi (mashinalar) yordamidagina qondirish mumkin edi. Dastlabki ixtiro XVIII asrda amalga oshirildi. Chunonchi, 1733-yilda mexanik va to‘quvchi Jon Key to‘quv dastgo-

hini ixtiro qildi. Bu ixtirogacha to‘quvchi o‘rmakni g‘altak iplari orasidan o‘zi o‘tkazib turishga majbur bo‘layotgan edi. Ixtirodan so‘ng esa to‘quvchi bu ishni oyoq qurilmasini bosib turish orqali bajaradigan bo‘ldi. Shu tariqa, Jon Keyning ixtirosi mehnat unumdorligini ikki marta oshirishga imkon berdi. Bu davrda Angliyada yigirilgan ipga ham talab oshib bordi. Bu esa, o‘z navbatida, Jeyms Xargrivs tomonidan bir vaqtning o‘zida 15–18 yigirgich ishlaydigan mexanik urchuq ixtiro qilinishiga olib keldi. U o‘z ixtirosini qizining nomi bilan «Jenni» deb atadi. Endi fabrika egalari uchun yigirilgan iplardan mato to‘quvchi texnika ham kerak edi. Bu muammoni Edmund Kart-rayt hal etdi. U mexanik to‘quv texnikasini ixtiro qildi. Bu texnika to‘quvchining mehnat unumdorligini 40 baravar oshirdi.

Bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi. Fabrika ishlab chiqarishning yanada unumliroq bo‘lishi uchun faqat suv bor joyda emas, istagan joyda ishlatish mumkin bo‘lgan texnika kerak edi. Tez orada bunday texnikani angliyalik Jeyms Uatt ixtiro qildi. Bu – birinchi dvigatel (motor), ya‘ni harakatga keltiruvchi texnika edi.

Hozirgi zamon yengil avtomobili dvigateli (motori)ni ko‘z oldingizga keltiring. Dvigatel o‘t oldirilgach benzin yoki gaz bilan harakatga keladi. Jeyms Uatt yashagan davrda benzin yoki gazdan foydalanish hali kashf etilmagan edi. Shuning uchun dastlabki dvigatel bug‘ bilan harakatga keltirildi va u bug‘ mashinasi deb ataldi. Bug‘ suvni qaynatish yo‘li bilan hosil qilindi. Ip yigiruvchi va mato to‘quvchi texnikalar shu bug‘ mashinasi bilan harakatga keltirildi. Bu hodisa o‘sha davr uchun katta muvaffaqiyat edi. Bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi keyinchalik transport texnikalari uchun ham dvigatel yaratilishiga turtki bo‘ldi. XVIII asrda amalga oshirilgan bu kabi ixtirolar Angliyani dunyoning eng rivojlangan davlatiga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Mexanik – texnika yaratuvchi, texnikani nazorat qiluvchi va ishga soluvchi kishi.¹

Fabrika (ustaxona) – texnika uskunalari yordamida xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan sanoat korxonasi (ishxona).²

¹ O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 584-bet.

² O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2008. 4-jild. 317-bet.

Bug‘ – suvning (suyuqlikning) gazzsimon holati.

Transport – yuk va yo‘lovchi tashuvchi vositalar (masalan, avtomobil, kema, poyezd, samolyot va boshqalar).

Savol va topshiriqlar



1. «Ishlab chiqarish texnikasi» tushunchasining mazmunini izohlab bering.
2. XVIII asrda Angliyada qanday omillar texnika sohasida buyuk ixtirolar amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi?
3. Jon Key va Jeyms Xargrivs amalga oshirgan ixtirolarning o‘xshash va bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini aniqlang.
4. E.Kartrayt amalga oshirgan ixtironing ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Bug‘ mashinasining ixtiro qilinishiga nimalar sabab bo‘ldi va bu ixtiro nega bug‘ mashinasi deb atalgan?

MUSTAQIL ISH

Bugungi kunda yonilg‘ining qanday turlari bilan ishlaydigan dvigatel (motor)lardan foydalanilayotganligi va ular nimalarda qo‘llanilayotganligini aniqlab keling.

21-§. TRANSPORT VOSITALARINING IXTIRO ETILISHI



Bug‘ mashinasidan foydalanish sohasining kengayishi. Vaqtlar o‘tishi bilan konstruktor va ixtirochilar bug‘ mashinasidan boshqa sohalarda ham foydalanishga harakat qildilar.



Birinchi paroxod.

Nihoyat, 1807-yilda amerikalik mexanik Robert Fulton bug‘ bilan harakatlanadigan eshkakli charxlari bo‘lgan birinchi paroxodni qurdi. Uzunligi 40,5 metr, eni 5,5 metrga yaqin bo‘lgan bu paroxod «Klermont» deb ataldi.

Paroxod sinovdan o‘tkaziladigan kuni juda ko‘p odam yig‘ildi. Ular tomoshaga kelishgan edi. Shu vaqtgacha foydalanilib kelingan yelkanli kemalar shamol bo‘lsagina suzar edi. R. Fulton yaratgan kema esa shamolga qarshi ham suza olganligini ko‘rgan tomoshabinlar hayratga tushdilar. Sinov paytida paroxod soatiga 8 km tezlik bilan suzdi.

Shu tariqa dengiz kemasozligi asta-sekin shamolga qaramlikdan xalos bo‘la bordi. Paroxodlar borgan sari takomillashtirilib borildi. Tez orada olamshumul voqea sodir bo‘ldi. Birinchi marta paroxod Atlantika okeanidan suzib o‘tib, 26 kunda Yevropadan Amerikaga yetib bordi.

O‘z vaqtida Xristofor Kolumb bu yerga yelkanli kemalarida 70 kunda yetib borgan edi. Bug‘ mashinadan foydalanish kemasozlik bilan cheklanib qolmadi. 1814-yilda inglialik konstruktor va ixtirochi Jorj Stefenson bug‘ bilan harakatlanadigan birinchi parovozni yaratdi.

Parovoz temir izda sinab ko‘rilganida 8 ta vagonni tortgan holda soatiga 10 km. tezlik bilan yurdi.

Qo‘shimcha ma‘lumot

J. Stefenson yaratgan birinchi transport vositasi – parovozni «Blyuxer», keyinchalik takomillashtirgan turini esa «Raketa» deb atadi.

Jahonda temiryo‘llar qurishning boshlanishi. Temiryo‘llar qurish nima uchun zarur edi? Angliya portlariga qaram o‘lkalardan juda katta miqdorda xomashyo olib keltirila boshlandi.

Ularni mamlakatning turli shaharlarida qurilgan to‘qimachilik fabrikalariga qisqa muddatlarda va arzon narxlarda tashib berish, fabrikalarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni

esa mamlakat portlariga xuddi shu tarzda yetkazib kelish zaruriyatga aylandi. Bu zaruriyat temiryo‘l qurilishiga olib keldi.

Nihoyat, 1825-yilda Jorj Stefenson ikkita shahar o‘rtasida dastlabki temiryo‘lni qurishga muvaffaq bo‘ldi. Oradan to‘rt yil o‘tgach u Angliyaning ikki mashhur shaharlari – Manchester va Liverpul orasida navbatdagi temiryo‘lni ham qurdi. Keyinroq, dastlabki xalqaro temiryo‘l qurildi. Bu yo‘l London shahrini Turkiyaning Istanbul shahri bilan bog‘ladi. Temiryo‘llar keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlarda ham qurila boshlandi.



Birinchi parovoz.



Mojayskiy samolyoti.



Aka-uka Raytlar samolyoti.



Zamonaviy samolyotlar.

Samolyotning yaratilishi. Odamzod uzoq-uzoq davrlardayoq osmonga parvoz qilishni orzu qilgan. XIX asrning oxiri – XX asr boshlariga kelib odamning bu orzusi ushaldi.

Rus olimi Aleksandr Fyodorovich Mojayskiy 1885-yilda ikkita bug‘ dvigateli o‘rnatilgan birinchi samolyotni yaratdi.

Esd a tuting!

Samolyot (ruscha so‘z – *sam* – o‘zim, *letat* – uchmoq) – o‘zi uchadigan, havodan og‘ir, uchuvchi mashina.

Olimlar va konstruktorlar dvigateli yonilg‘i (benzin, kerosin) bilan ishlaydigan samolyot yaratish ustida ham bosh qo‘tirdilar.

Nihoyat, 1902-yilda amerikalik aka-uka Uilber va Orvill Raytlar dunyoda birinchi shunday samolyot yaratdilar. Ular 1903-yilda 3 metr balandlikda birinchi parvozni amalga oshirdilar. Parvoz atigi 12 sekund davom etdi.

Shu vaqt ichida 30 metr masofa bosib o‘tildi. Parvoz juda qisqa davom etgan bo‘lsa-da, bu katta tarixiy hodisa edi. Chunki, bu ham uchib, ham qo‘nilgan birinchi haqiqiy parvoz bo‘ldi.

Keyingi yillarda aka-ukalar samolyotni takomillashtirishni davom ettirdilar va soatiga 60 km. tezlik bilan uchadigan samolyot yaratdilar.

1913-yilda esa rossiyalik konstruktor Igor Sikorskiy «Русский Витязь» (Rus pah-

lavoni) deb atalgan ajoyib samolyot yaratdi. U dunyodagi birinchi 4 dvigatelli samolyot edi.

Bugungi kunda samolyot millionlab kishilarning uzog‘ini yaqin qilmoqda. Ming-minglab tonna yuklar tashilmoqda.

Ular safida «O‘zbekiston havo yo‘llari» aviakompaniyasining samolyotlari ham bor.

Atamalar mazmunini bilib oling



Vagon – temiryo‘llarda yo‘lovchi va yuklarni tashishga mo‘ljallangan g‘ildirakli maxsus qurilma.¹

Konstruktor – mashina va inshootlarning loyahasini tuzuvchi mutaxassis.²

Paroxod – bug‘ bilan ishlaydigan dvigatel (motor) o‘rnatilgan kema.³

Parovoz – bug‘ bilan ishlaydigan dvigatel o‘rnatilgan va vagonlarni tortishga mo‘ljallangan mashina.⁴

Savol va topshiriqlar



1. Amerikalik R. Fulton va angliyalik J. Stefensonlar ixtirolari haqida so‘zlab bering.

2. Qanday omillar Angliyada dastlabki temiryo‘llar qurilishiga sabab bo‘lgan?

3. Asosiy transport vositalaridan biri – samolyotning yaratilishi tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL ISH

«O‘zbekiston havo yo‘llari» haqida ota-onangiz bilan suhbat qiling. Suhbat chog‘ida O‘zbekistonda qaysi rusumli samolyotlardan foydalanilayotganligini ham aniqlang.

22-§. ALOQA VOSITALARINING IXTIRO ETILISHI



Telegrafning ixtiro etilishi. Telegraf turli xabarlarni uzoq masofalarga yozuv orqali tez uzatishga mo‘ljallangan qurilmadir.

¹ O‘TIL. – T.: «Ў3МЭ». 2006. 1-jild. 430-bet.

² O‘TIL. – T.: «Ў3МЭ». 2006. 2-jild. 401-bet.

³ O‘TIL. – T.: «Ў3МЭ». 2007. 3-jild. 227-bet.

⁴ O‘TIL. – T.: «Ў3МЭ». 2007. 3-jild. 226-bet.

Bunday qurilmani birinchi bo‘lib 1832-yilda rus olimi Pavel Shilling ixtiro qildi. Qurilma xabarlarini nuqta va tirelar (chiziq) ko‘rinishida uzatgan.

1837-yilda amerikalik olim Semyuel Morze ham shunday qurilma va unda foydalaniladigan maxsus alifbo yaratdi. Bu alifbo tarixga «Morze alifbosi» nomi bilan kirdi.

Bu alifboda harflar o‘rniga nuqta va tire (chiziq)lar ishlatiladi.

Masalan, nuqta va bitta tire A harfini; tire va uch nuqta «B» harfini; nuqta, tire va yana ikki nuqta «V» harfini anglatgan. Bu alifbo dunyo xalqlari uchun ko‘p yillar xizmat qildi.

Hozirgi kunda esa undan hamon dengiz halokati ro‘y berganligi haqidagi xabarni berish chog‘ida foydalanilmoqda.

Balki siz dengiz halokati ro‘y berganligini anglatuvchi belgi «SOS» ekanligini bilarsiz? Dengizlarda halokatga uchragan kemalar «SOS» xabarini yuborish uchun Morze alifbosidagi «Uchta nuqta, uchta tire va yana uchta nuqta» belgisi – (signali)ni yuboradilar.

Bu belgilarni qabul qilib olgan boshqa kema yoki qirg‘oq qutqaruv guruhi tezda yordamga yetib kelish choralari ko‘radi. Xalqaro qoidalarda shunday tartib o‘rnatilgan.

Yodda tuting!

Dengizda uzatilgan halokat xabarlarini qabul qilib olish uchun har 5 daqiqada «radiosukunat» vaqti joriy qilingan.

Morze qurilmasida nuqta va tirelar telegraf kaliti yordamida uzatiladi. Xabar beruvchi kalitni bosganida qurilmadagi batareya qurilma tarmog‘iga tok beradi.

Elektr toki suyuq bo‘yoq ichiga botirib qo‘yilgan g‘ildirakcha (harf bosuvchi)ni harakatga keltiradi. G‘ildirakcha esa tasmaga o‘xshab tayyorlangan qog‘ozga harflar belgisini tushiradi.

Kalit bosilgach darhol qo‘yib yuborilsa «nuqta», uzoqroq bosib turilsa «tire» belgisini tushiradi. Har bir belgining qaysi harfni anglatishini bilib olgan kishi Morze alifbosida yozilgan yozuvni bemalol o‘qiy oladi. Hozirgi kunda Morze alifbosiga moslashtirilgan telegraf qurilmasi o‘rniga teletayp qurilmasidan foydalanilmoqda.



Teletayp qurilmasi.

Diqqat bilan o‘qing!

Teletayp — yozuv mashinkasiga o‘xshash klaviaturali, uzoqdan yuborilgan axborotlarni qog‘oz lentaga avtomatik ravishda yozib oladigan mexanizmli telegraf apparati.

Teletaypda kalit yo‘q, lekin yozuv mashinasidagi yoki kompyuterdagiga o‘xshash harf klavishlari bor. Xabar jo‘natuvchi uzatuvchi qurilmaga xabar matnini yozadi.

Qabul qiluvchi qurilma esa xabarni qog‘oz tasmasi (lentasi)ga yozib oladi. Olimlarning izlanishlari natijasida ushbu qurilma takomillashdi.

Bugungi kunda qulay aloqa vositalaridan yana biri fakstdir. U matnli, jadvalli, rasmi va boshqa shu kabi xabarlarni qanday bo‘lsa shundayligicha belgilangan joyga yetkaza oladi. Aloqaning bu vositasi deyarli barcha yirik korxonalar va tashkilotlarda mavjud. Faks qurilmasi yana ko‘p narsalarga qodir. Masalan, u istalgan rasm va hujjatdan nusxa (kopiya) ham olishi mumkin. Bundan tashqari, istalgan tilda yozilgan xabarni ham qabul qila oladi.



Zamonaviy telefon apparatlari.



Aleksandr Stepanovich Popov.

Telefonning yaratilishi. Bugungi kunda deyarli barcha oilalarda hech bo‘lmaganda bitta uyali telefon apparati bor.

U xabar uzatish va qabul qilish uchun juda qulay. Bir so‘z bilan aytganimizda, odamlarning uzog‘ini yaqin qiladigan «dastyor». Xo‘sh, bu dastyorning o‘tmishdoshi bo‘lgan simli telefon apparati qachon yaratilgan?

Dastlabki telefon apparatini 1876-yilda Angliyada tug‘ilib, Amerikada yashagan Aleksandr Bell yaratdi. Keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlari ixtirochilari uni takomillashtirdilar. Bugungi kunda insonlar dunyoning istalgan qismi bilan telefonda aloqa qila oladilar.

Radio tarixi. Radio nima ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. U turli xil xabarlarni tarqatishda katta ahamiyatga ega. Dunyoda birinchi radioni rus olimi Aleksandr Stepanovich Popov 1895-yilda ixtiro qildi. Shu yilning 7-may kuni Rossiya poytaxti Peterburg shahrida u ixtiro qilgan radio namoyish qilindi.

Aleksandr Stepanovich Popov dunyoda birinchi bo‘lib xabarni dastlab 250 metrga,

keyinchalik 45 km ga, nihoyat, 150 km ga radio orqali yetkazishga muvaffaq bo‘ldi. Radio uchun simlarning keragi yo‘q. Radioto‘lqinlarga hech qanday masofa to‘siq bo‘la olmaydi.

Yodda tuting!

Radioto‘lqinlar soniyasiga 300 ming km tezlikda tarqaladi.

Biz bilan Siz tomosha qilayotgan televizordagi teleko‘rsatuvlar ham radio to‘lqinlari orqali ekranimizga yetib keladi.

Hozirgi kunda radioning ahamiyati cheksiz. Radioaloqa borligi tufayli samolyotlar bexavotir parvoz qiladi. Kosmosga uchgan kosmik raketalar bilan ham radioto‘lqinlar orqali doimiy aloqa ushlab turiladi.

Ha, radioning xizmati beqiyos. Shuning uchun ham kishilar rus olimi Aleksandr Stepanovich Popovning nomini hurmat bilan tilga oladilar.

Atamalar mazmunini bilib oling



Faks (bajar) – matn, jadval, rasm va boshqalarning tasvirlarini telefon tarmog‘i orqali uzatish.¹

Radio (tarqataman) – xabarlarini radio to‘lqinlari orqali simsiz uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilma.²

Savol va topshiriqlar



1. *Telegrafning ixtiro qilinishi kishilar uchun qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?*
2. *«SOS» xabarini yuborish uchun Morze alifbosidan teriladigan belgilarni qayd eting.*
3. *Telefonning yaratilishi va uning kishilar hayotida tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering.*
4. *Radioning yaratilishi qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?*

MUSTAQIL ISH

O‘quvchilarning maktabda qo‘l telefonlaridan foydalanishlari tartibi haqida nimalarni bilishingizni daftaringizga yozib keling.

¹ O‘TIL. – T.: «Ў3МЭ». 2008. 4-jild. 59-bet.

² O‘TIL. – T.: «Ў3МЭ». 2007. 3-jild. 337-bet.



VI bob. VATANIMIZDA VA YEVROPADA ILM-FAN TARAQQIYOTI

23-§. MAKTAB – BILIM O‘CHOG‘I



Insoniyat hayotida maktabning o‘rni. Mana, beshinchi yildirki, Siz maktabning sinfdoshlaringiz va o‘zingizning shaxsiy hayotingizda qanday o‘rin tutib kelayotganligini bilib bormoqdasiz.

Yodda tuting!

«Maktab» arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «o‘qish joyi», «yozishga o‘rgatadigan joy» degan ma‘nolarni anglatadi.¹

Odamlar maktablarda xat-savod o‘rganadilar. Turli fanlarga oid bilimlarni egallaydilar.

Maktabda barcha fanlardan a‘lo bahoga o‘qigan o‘quvchilarning hayotda qanday muvaffaqiyatlarga erishayotganligiga o‘zingiz guvohsiz. «Umid nihollari» sport musobaqalarida, «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovlarida yoki fanlar bo‘yicha o‘tkazilayotgan xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib chiqayotgan yurtdoshlaringizni bir ko‘z oldingizga keltiring-a. Ularning barchasi maktablarda a‘lo baholarga o‘qishgan.



Maktab (XX asr boshlari).

O‘tmishda jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk bobolarimiz ham maktablarda a‘lo baholarga o‘qiganlar. Binobarin, Sizning

¹ O‘TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 532-bet.

kelajakda qanday kishi bo‘lib yetishishingiz bugungi kunda maktabda qanday o‘qishingizga ham bog‘liq.

Maktab ayni paytda tarbiya beradigan joy hamdir. Barcha zamonlarda shunday bo‘lgan, hozir ham shunday. Siz maktablarda ta‘lim-tarbiya berayotgan kishilarni muallim, ustoz yoki murabbiy kabi so‘zlar bilan atalishini ham bilasiz. Ular bir so‘z bilan pedagog deb ham ataladilar.

Yodda tuting!

«Pedagog» – yunoncha (grekcha) so‘z bo‘lib, «bola yetaklovchi kishi» degan ma‘noni anglatadi.¹

Qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da quldorlarning bolalarini maktabga yetaklab boradigan kishilar *pedagog* deb atalgan. Ilk maktablar Misr, Bobil, Xitoy va Hindistonda, O‘rta Osiyoda, Yevropada esa Yunoniston va Rim davlatlarida paydo bo‘ldi. Maktablar dastlab ibodatxonalarda faoliyat ko‘rsatdi.

To‘g‘ri, ilk maktablar hozirgi zamon maktablari ko‘rinishida bo‘lmagan. Ularga qabul qilishda bolalarning yoshi hisobga olinmagan. Bolalar bugungi kundagidek sinflarga bo‘lib o‘qitilmagan. Bolalarni yoshiga qarab sinflarga bo‘lib o‘qitish va dars mashg‘ulotlarini jadval asosida tashkil etish XVII asrda dastlab Yevropada amalga oshirildi. Bu yangilikning asoschisi chexiyalik mashhur olim Yan Amos Komenskiy bo‘ldi.



Yan Amos Komenskiy.

O‘rta Osiyoda ta‘lim. O‘rta Osiyoda, shu jumladan, bizning yurtimizda barcha zamonlarda bolalarning ta‘lim-tarbiyasiga katta e‘tibor bilan qaralgan. Maktabda bolalarga xat-savod o‘rgatish bilan bir qatorda ularning axloqiy va jismoniy tarbiyasiga ham katta e‘tibor berilgan. Buni xorazmlik bobomiz Zardushtning «Tarbiya hayotning eng muhim tayanchidir» degan hikmatli so‘zi ham isbotlaydi.

¹ O‘TIL. – T.: «ЎзМЭ». 2007. 3-jild. 245-bet.

VIII asrda arablar yurtimizni egallagach, arab alifbosi joriy etildi. Masjidlar qoshida maktablar ochildi. Maktablarda o'qish arab yozuvi asosida olib borildi. O'g'il va qiz bolalar uchun alohida-alohida boshlang'ich ta'lim maktablari ochildi. Ular *maktabxona* deb atalgan. O'g'il bolalar maktablarining ko'pchiligi masjidlar qoshida, qiz bolalar maktablari esa muallima ayollarning uylarida ochildi. O'g'il bolalarni o'qitadigan erkak muallim domla, qiz bolalarni o'qitadigan ayol muallima esa otinoyi, otinbibi, bibiotin, bibixalifa deb atalar edi. Bolalar maktabxonaga 5–6, ba'zan 6–8 yoshidan qabul qilingan. O'qish muddati 5–8 yil davom etgan. Maktabxonalarda bolalar o'qish-yozishga o'rgatilgan va madrasalarga o'qishga kirishga tayyorlangan.

Qorixona. O'qish-yozish malakasini hosil qilgan, yod olish qobiliyati kuchli, ovozi nihoyatda ta'sirli o'g'il bolalar 10 yoshidan qorixonalarda qabul qilingan. Qorixona o'quvchilari, asosan, Qur'oni karimni yod olganlar va uni qiroat bilan o'qishni o'rganganlar. Ularga qiroati kuchli bo'lgan qorilar dars berishgan. Qiroatxonada o'qish 3–4 yil davom etgan. So'ng bo'lajak qorilar imtihon topshirganlar. Eng iqtidorli o'quvchiga «qorilar qorisi» unvoni berilgan. Shundan so'ng ular xalq va din yo'lida xizmat qilishgan. Xohlaganlari madrasada o'qishni davom ettirgan.

Madrasalar, asosan, davlat boshqaruvi xizmatchilari hamda diniy ulamolarni tayyorlagan. Yurtimizda dastlabki madrasa X asrda Buxoro shahrida ochildi. Madrasalarda o'qish talabalarning iqtidoriga qarab 7–12 yil davom etgan.

Madrasa o'qituvchilari *mudarrislar* deb atalgan. Madrasalarda talabalarga diniy bilimlardan tashqari astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, geografiya, tarix, adabiyot, xattotlik, musiqa, axloq va notiqlik san'ati, tijorat kabi fanlardan saboq berilgan.



O'zingizni sinang

◆ Maktab –

◆ Pedagog –

Xorazm Ma'mun akademiyasi. U yoki bu davlatda ilm-fan taraqqiyoti davlat hukmdorining ilm-fan sohasida tutgan yo'liga bog'liq bo'lgan. Ya'ni, oliy hukmdor ilm-fanga homiylik qilgan bo'lsa ilm-fan taraqqiy etgan. Olimlarga g'amxo'rlik qilgan bo'lsa, ular ilm-fan

sohasida katta kashfiyotlarni amalga oshirganlar.

Tariximizda Xorazmshohlar davlatini to‘rtta sulola boshqardi. Ulardan ikkinchisi – ma‘muniylar sulolasi hukmronligi davrida (995–1017-yillar) ilm-fan taraqqiyotiga katta e‘tibor berildi. Sulolaning so‘nggi hukmdori Ma‘mun ibn Ma‘mun (999–1017-yillar) ayniqsa, bu borada tarixda o‘chmas iz qoldirdi.



Ma‘mun akademiyasi.

U o‘z davrining ilmlarini puxta egallagan hukmdor edi. Ayni paytda, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga homiylik ham qildi. Uning homiyligi va rahbarligida 1004-yilda mamlakat poytaxtida «Dor-ul hikma va maorif» ilm-fan markazi tashkil etildi.

Keyinchalik olimlar uni «Xorazm Ma‘mun akademiyasi» deb atadilar. Bu ilm-fan markazida Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abulxayr ibn Hammor kabi o‘sha davrning o‘nlab buyuk allomalari faoliyat yuritdilar.

Yodda tuting!

«Ilm – insonlar hojatini chiqarmoqlikka xizmat qilsin», – degan ibora akademiya allomalarining shiori edi.

Akademiya allomalari matematika, astronomiya, tuproqshunoslik, geografiya, tibbiyot va qonunshunoslik kabi fanlar bilan shug‘ullandilar va jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdilar. Afsuski, akademiya atigi deyarli 14 yil faoliyat ko‘rsatgan, xolos.

1017-yilda Xorazmshohlar davlati o‘z mustaqilligini yo‘qotgach akademiya faoliyati to‘xtab qolgan.



O‘zingizni sinang

◆ Ma‘mun ibn Ma‘mun – ◆ 1004-yilda –

1997-yilda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Xorazm Ma‘mun akademiyasini qayta tiklash haqidagi tarixiy farmoni e‘lon qilindi. Ha, oradan salkam ming yil o‘tib shunday qilindi. Akademiyani qayta tiklashdan qator ilmiy va amaliy maqsadlar ko‘zlangan, albatta.

Biroq, ular orasida Siz kabi yosh avlod qalbida iftixor va gʻurur, oʻtmish tariximizga chuqur hurmat tuygʻusini oʻstirish alohida oʻrin tutadi. Qayta tiklangan akademiya Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi-ning boʻlimi sifatida faoliyat yuritmoqda. Uning tarkibida arxeologiya, tarix, til va adabiyot, biologiya kabi boʻlimlar tashkil etildi.

2006-yilda yurtimizda Xorazm Maʼmun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.¹

Atamalar mazmunini bilib oling



Akademiya — mashhur olimlar toʻplangan ilm-fan markazi.²

Alloma — ilm-fanning bir necha sohasini toʻla egallagan shaxs.³

Masjid — islom diniga eʼtiqod qiluvchilar toʻplanib namoz oʻqiydigan joy.⁴

Fan — dunyo haqidagi bilimlar yigʻindisi.⁵

Savol va topshiriqlar



1. Nima uchun Siz maktabda aʼlo baholarga oʻqishingiz va goʻzal odob-axloq egasi boʻlishingiz zarur?
2. Dastlabki maktablar haqida nimalarni bilib oldingiz? 78-betdagi rasmga qarab hozirgi maktab bilan eski maktabni taqqoslang.
3. Madrasalar qanday maqsadda ochilgan edi?
4. Xorazm Maʼmun akademiyasi tashkil etilishi va unda faoliyat koʻrsatgan buyuk allomalar haqida soʻzlab bering.
5. Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida Xorazm Maʼmun akademiyasining qayta tiklanishi haqida nimalarni bilib oldingiz?

24-§. YURTIMIZNING BUYUK ALLOMALARI



Aniq va tabiiy fanlarning rivoji. IX–XII asrlarda yurtimizda ilm-fan yuksak taraqqiyotga erishdi. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk bobolarimiz jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshdilar. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar taraqqiyotiga qoʻshgan betakror hissalarini bilan oʻz nomlarini abadiylikka muhrladilar. Bu

¹ Q. Rajabov va boshq. Oʻzbekiston tarixining eng asosiy sanalari. — T.: 2012. «Oʻzbekiston» NMIU. 410-bet.

² OʻTIL. — T.: «Y3MƏ». 2006. 1-jild. 61-bet.

³ OʻTIL. — T.: «Y3MƏ». 2006. 1-jild. 72-bet.

⁴ OʻTIL. — T.: «Y3MƏ». 2006. 2-jild. 550-bet.

⁵ OʻTIL. — T.: «Y3MƏ». 2008. 4-jild. 324-bet.

abadiylikka muhrlanganlar ro‘yxati buyuk bobomiz **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** nomi bilan boshlanadi.

Al-Xorazmiy 783-yilda Xorazmning Xiva shahrida tug‘ildi. Dastlab Xiva shahrida ilm olib yetuk olim bo‘lib yetishdi. So‘ng O‘rta Osiyoning o‘sha davrdagi yirik ilm-fan markazi bo‘lgan Marv shahrida (hozirgi Turkmanistondagi shahar) ijod qildi. Keyinroq Bag‘dod shahridagi (hozirgi Iroq davlati poytaxti) ilm-fan markazi – «Bayt ul-hikmat»da faoliyatini davom ettirdi. Uning eng yirik ishlaridan biri hindlar kashf etgan «0» dan «9» gacha bo‘lgan o‘nta raqam bilan har qanday sonni yozish mumkinligini, uning murakkab rim raqamlaridan afzalliklarini isbotlab berdi. To‘rt amal – qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish qoidalarini yaratdi.

Al-Xorazmiy Siz 7-sinfдан boshlab o‘rgatadigan algebra fanining asoschisi hamdir. Uning bu fanga bag‘ishlab yozgan asari «Al-jabr val muqobala» deb ataladi.

Al-Xorazmiyning bu asari XII asrdan boshlab Yevropada tarqala boshladi. Yevropaning ba‘zi xalqlari «al-jabr» o‘rniga «algebra» atamasini ishlatganlar. Allomaning o‘z nomi esa matematika fanida ko‘p ishlatiladigan (bu haqda yuqori sinflarda bilib olasiz) «algoritm» atamasida yashab kelmoqda. Dunyoda o‘z nomi yoki asarining nomi fan nomiga aylanib ketgan allomalar juda kam. Siz bu hodisa bilan har qancha g‘ururlansangiz, faxrlansangiz arziydi. Al-Xorazmiy 850-yilda Bag‘dod shahrida vafot etdi.

Ahmad al-Farg‘oniy. Jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yana bir buyuk bobomiz Ahmad al-Farg‘oniy 797-yilda Farg‘onaning Quva shahrida tug‘ildi. U yoshligidan ilm-fan asoslarini chuqur o‘rgandi. O‘z ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida O‘rta Osiyoning o‘sha davrdagi eng yirik ilm-fan markazi Marv shahriga keldi. So‘ng Bag‘dod shahridagi «Bayt ul-hikmat»da astronomiya, matematika



Al-Xorazmiy.



Rim raqamida
qo‘shish amali.



Ahmad al-Fargʻoniy.

va geografiya kabi fanlar sohasida ijod qildi. Uning nomini mashhur qilib yuborgan «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» asari XII asrda Yevropada lotin tiliga tarjima qilindi.

Bu asar Ahmad al-Fargʻoniyini Yevropada «Alfraganus» nomi bilan mashhur qilib yubordi. Ayni paytda, asarning oʻzi Yevropa mamlakatlari universitetlarida (oliy oʻquv yurtlari) bir necha asr davomida darslik sifatida oʻqitildi.


Jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk bobomiz 865-yilda Misrda vafot etdi.

Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1998-yilda buyuk bobomiz tavalludining 1200 yilligi nafaqat Oʻzbekistonda, balki dunyo miqyosida ham keng nishonlandi.



Oʻzingizni sinang

- ◆ Al-Xorazmiyning mashhur asari —
- ◆ Alfraganus —



Abu Rayhon Beruniy.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048). Abu Rayhon Beruniy bobomiz ham jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk allomadir. Ul zot Xorazmning Kat shahrida tugʻildi. Zehni nihoyatda oʻtkir boʻlgan Beruniy Xorazm Maʼmun akademiyasida ijod qilgan. Beruniy, ayniqsa, astronomiya, matematika, fizika, maʼdانشunoslik, geografiya, til, tarix kabi fanlarni puxta egalladi. Ayni paytda oʻzi ham bu fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshdi.

Bizga Beruniydan koʻplab asarlar meros boʻlib qoldi. Ularning ichida astronomiyaga oid asari benihoya katta ahamiyatga ega boʻlgan. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan

yodgorliklar» va «Hindiston» kabi asarlari tarix fani uchun muhim manba hisoblanadi.

U «Hindiston» asarida ummon ortida qit'a borligi haqidagi taxminni ilgari surdi. Yevropalik sayyoh olimlar esa Beruniydan qariyb 500 yildan so'ng bu qit'aning borligini amalda isbotladilar.

Buni o'qing!

«XI asr Beruniy asridir», — deb yozgan edi AQSHning fanlar tarixi bilan shug'ullanuvchi olimi Jorj Sarton.

Abu Ali ibn Sino. O'z zamonasida Shayx ur-ra'is, ya'ni «olimlar raisi», deb ulug'langan buyuk alloma Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi. Ibn Sino o'z davrining barcha bilimlarini puxta egalladi. Ibn Sino dunyoga, avvalo, buyuk tibbiyot allomasi bo'lib tanildi. Uning tibbiyotga oid mashhur asari «Tib qonunlari» deb ataladi. Asar XII asrda Yevropada lotin tilida chop etildi va Ibn Sino Yevropada «Avitsenna» nomi bilan mashhur bo'ldi.



Abu Ali ibn Sino.

«Tib qonunlari» XVII asrgacha Yevropa mamlakatlari universitetlarida darslik sifatida xizmat qildi. Ibn Sinoning nomi yer yuzida hamon mashhurligicha qolmoqda.

2000-yilda Yevropaning Belgiya davlatida uning xotirasiga haykal o'rnatilganligi buning yana bir dalilidir.



O'zingizni sinang

- ◆ Beruniydan tarixga oid ... asarlari qolgan.
- ◆ Ibn Sino ... nomlari bilan ulug'langan.

Savol va topshiriqlar



1. IX–XII asrlar yurtimiz ilm-fani taraqqiyotida qanday o'rin tutadi?
2. Al-Xorazmiyning matematika fani taraqqiyotida tutgan o'rni nimalar bilan belgilanadi?
3. Ahmad al-Farg'oniyning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

4. Amerika olimi J. Sarton «XI asr Beruniy asridir», deb yozganida nimalarga asoslanganligi haqida mulohaza yuritib ko'ring.
5. Ibn Sinoning jahon tibbiyot ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida so'zlab bering.

MUSTAQIL TOPSHIRIQ

(Jadvalni to'ldiring)

T/r	Buyuk allomalar	Tug'ilgan joyi va yili	Ijod qilgan joylari	Yozib qoldirgan mashhur asarlari	Vafot etgan yili va joyi	Tavallud topganligi nishonlangan yillar
1.	Al-Xorazmiy					
2.	Ahmad al-Farg'oniy					
3.	Beruniy					
4.	Ibn Sino					

25-§. MIRZO ULUG'BEK VA UNING AKADEMIYASI



Mirzo Ulug'bekning yoshlik yillari. XIV–XV asrlar Vatanimiz ilm-fani va madaniyati taraqqiyotida oltin asr sanaladi. Bu davrda yashab, ijod etgan buyuk alloma bobolarimiz ilm-fan va madaniyat taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'tardilar.



Mirzo Ulug'bek.

Bu yuksaklik, o'z navbatida, Yevropada ham ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu hodisa buyuk bobolarimiz Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bekning ilm-fan hamda madaniyat taraqqiyotiga ko'rsatgan beqiyos e'tiborlari va homiyliklari natijasi edi.

Mirzo Ulug'bekning otasi Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzodir. Ulug'bek 1394-yilda tug'ildi. Amir Temur bu xushxabarni eshitgach, nabirasiga Muhammad Tarag'ay deb o'z otasining

ismini qo‘ydi. Munajjimlar uning kelgusida katta olim va buyuk hukmdor bo‘lishini bashorat qildilar.


Shu tufayli Amir Temur toleyi ulug‘ nabirasini Ulug‘bek deb ham atay boshladi. Ulug‘bek Movarounnahrda 40 yil hukmronlik qildi. O‘z davrining ilm-fani sirlarini o‘rganishida mashhur matematik va astronom allomalar Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiya unga ustozlik qildilar. Bu esa Ulug‘bekning kelgusida buyuk astronom va matematik bo‘lib yetishishini belgilab berdi.

Ulug‘bek buyuk alloma. Ulug‘bek ilmfanning ko‘p sohalari bilan shug‘ullangan alloma. Ularga oid qator asarlar ham yozib qoldirdi. Biroq ilm-fanda u, avvalo, buyuk astronom sifatida mashhur bo‘ldi. Ulug‘bek osmon jismlarini kuzatish maqsadida rasadxona qurdirdi.

Rasadxona ichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy sayyoralar va yulduzlar holati o‘rganildi. Rasadxonada olib borilgan kuzatishlari natijasida «Ulug‘bek ziji» deb ham ataladigan dunyoga mashhur asarini yozdi. Asarda 1018 ta yulduzning o‘rni va holati sharhlab berildi.

Ulug‘bek tarix faniga oid «To‘rt ulus tarixi» asarini ham yozib qoldirdi.

Ulug‘bek akademiyasi. Ulug‘bek Samarqandda qurdirgan madrasa-rasadxona bilan birgalikda «Ulug‘bek akademiyasi» nomi bilan ham tarixga kirdi. Bu Xorazm Ma‘mun akademiyasi tashkil etilganidan oradan to‘rt asrdan ko‘proq vaqt o‘tgach yurtimizda tashkil etilgan ikkinchi akademiya bo‘ldi.



Ulug‘bek rasadxonasi.

Buni o‘qing!

...Amir Temurning o‘rniga taxtga o‘tirgan mashhur Ulug‘bek Samarqandda... akademiyaga asos soldi.

Volter, XVIII asrda yashab ijod qilgan Fransiya olimi.

Ulug‘bek o‘sha davrning ko‘plab iste‘dodli olimlarini akademiya-ga to‘pladi. Ularning ijod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berdi.

Ulug‘bekning ustozlari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va shogirdi Ali Qushchilar akademiyaning eng mashhur olimlari edilar.

Diqqat bilan o‘qing!

«Ulug‘bek jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi bilan tirikligidayoq o‘ziga haykal o‘rnatib ketgan buyuk allomadir».

B. Ahmedov, o‘zbek tarixchi olimi.



O‘zingizni sinang

- ◆ ..., ... Ulug‘bekka ustozlik qilishgan.
- ◆ Ulug‘bekdan tarixga oid ... nomli asar qolgan.

Ulug‘bek ilm-fan homiysi. Ulug‘bek faqat davlat ishlari va ijod bilan shug‘ullanib qolmadi. U ayni paytda ilm-fan ravnaqiga homiylik ham qildi.

Buxoro, Samarqand va G‘ijduvon shaharlarida 3 ta madrasa barpo ettirgani buning yorqin dalilidir.

Samarqand madrasasida talabalarga asosiy ma‘ruzalarni Qozizoda Rumiy, Ulug‘bek, Koshiy va Ali Qushchilar o‘qishdi. Buxoroda qurilgan madrasa eshigi tabaqalariga «Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir» degan ibora o‘yib yozilgan edi. Ulug‘bek bu madrasaga tashrif chog‘ida talabalarga in‘omlar tarqatgan.

Ulug‘bek tavalludining nishonlanishi. 1994-yilda yurtimizda va xalqaro miqyosda buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi nishonlandi. Samarqanddagi tantanalarda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ham qatnashdi va nutq so‘zladi.

Prezidentimiz o‘z nutqida Ulug‘bekni «Sharqning yorqin yulduzi» deb atadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2009-yilni Ulug‘bek sharafiga «Xalqaro astronomiya yili» deb e‘lon qilganligi esa Ulug‘bek buyuk xizmatlarining yana bir e‘tirofi bo‘ldi.

Diqqat bilan o‘qing!

Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647-yilda nashr qilingan «Selenografiya» nomli kitobida yozilishicha Oydagi kraterlardan ikkitasi Ahmad Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek nomlari bilan atagan.¹



O‘zingizni sinang

- ◆ Vatanimizda tashkil etilgan birinchi akademiya —
- ◆ Vatanimizda tashkil etilgan ikkinchi akademiya —

Savol va topshiriqlar



1. Mirzo Ulug‘bekning yoshlik yillari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ulug‘bek tomonidan bitilgan mashhur asarlarning nomlarini qayd eting.
3. Ulug‘bek akademiyasi va Xorazm Ma‘mun akademiyasi faoliyatini taqqoslang. O‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.
4. Ulug‘bekning ilm-fan homiysi bo‘lganligini dalillar bilan asoslab bering.
5. Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi yurtimizda va dunyo miqyosida nishonlanishi haqida nimalarni bilib oldingiz?

26-§. YURT OBODONCHILIGI, ADABIYOT VA SAN‘AT



Shaharlarning obodonlashtirilishi va me‘morchilik. Amir Temur mamlakatning, xususan, poytaxt Samarqandning obodonchiligiga alohida e‘tibor berdi va uni dunyoning go‘zal shahriga aylantirishga qaror qildi.

U ulkan bunyodkorlik ishini Samarqandning mudofaa devorlarini tiklashdan boshlattirdi. Shaharga bu devorlarga o‘rnatilgan oltita darvoza orqali kiriladigan bo‘ldi. Samarqandga Zarafshon daryosidan suv keltirildi.

Temuriylar davri me‘morchiligining ajoyib namunasi Amir Temurning qarorgohi — Ko‘ksaroy shaharning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadigan darajada hashamatli qilib qurildi.

¹ *Islom Karimov.* «Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch». «O‘zbekiston» NMIU. — T.: 2008. 42-bet.



**Go'ri Amir
maqbarasi.**

Amir Temur ayni paytda turmush o'rtog'i Bibixonim (Saroymulxonim) nomi bilan ataluvchi Jome masjidi ham qurdirdi.

Amir Temur 1403-yilda yosh vafot etgan suyukli nabirasi Muhammad Sulton uchun maqbara qurdirdi.

1405-yilda Amir Temur vafot etgach uning o'zi ham shu yerga dafn etildi va maqbara «Go'ri Amir maqbarasi» deb atala boshlandi. Bu maqbara dunyoda mashhur me'moriy inshootdir.

U Temuriylarning sulolaviy xilxonasiga aylandi. Keyinchalik, bu maqbaraga Amir Temurning o'g'illari Umar Shayx, Mironshoh va Shohrux, nabirasi Mirzo Ulug'bek hamda Amir Temurning piri Sayyid Baraka sag'analari ham qo'yildi. Maqbara gumbaz bezaklarining jilosi har qanday kishini hayratga soladi.

Amir Temur poytaxt Samarqand atrofida o'ndan ortiq bir-biridan go'zal bog'-rog'lar barpo ettirdi. Ularning eng mashhuri «Bog'i Dilkusho» deb atalardi.

1404-yilda Samarqandga kelgan Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida bu bog'da favvoradan suv otilib turganligini, bog'ga kiriladigan darvoza juda keng va u oltin hamda boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligini, shuningdek, ustiga taxtiravon o'rnatilgan oltita fil ham borligini yozib qoldirgan.

Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur davrida Samarqandning dovrug'i tillarda doston bo'ldi.

Buni diqqat bilan o'qing!

Amir Temur ma'naviy merosining o'zagi Samarqanddir. Samarqand jahon me'morchiligining durdonasidir.

Islom Karimov



O'zingizni sinang

◆ Go'ri Amir – bu

Amir Temur Movarounnahrning boshqa shaharlarida, jumladan, Shahrisabz shahrida ham ajoyib me'moriy obidalar bunyod ettirdi. Ulardan biri otasi va o'g'li Jahongirning qabri ustiga qurdirgan maqbara edi.

Turkiston shahrida buyuk mutafakkir Ahmad Yassaviy qabri ustiga qurilgan maqbara, Toshkent viloyatidagi Zangiota me'moriy majmuasi ham yuksak namunadagi me'moriy inshootlardir.

Alisher Navoiy (1441–1501). O'zbek xalqining buyuk mutafakkir shoiri, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug'ildi.

Otasi G'iyosiddin Bahodir Temuriylar xizmatida bo'ldi. Shu tufayli Alisher temuriyzoda, keyinchalik hukmdor bo'lib yetishgan Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalandi.

Alisher Navoiy 4 yoshidan maktabda ilm o'rgandi. Turkiy va forsiy tillardagi she'rlarni yod oldi. 10 – 12 yoshidan boshlab esa o'zi ham she'r yoza boshladi.

Uning she'riyatga bo'lgan ixlosi va iste'dodi hatto o'z davrining mashhur shoiri Lutfiyni ham hayratga soldi. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida elga tanildi. Turkiy (o'zbek) tilidagi she'rlarini «Navoiy» va forsiy tilidagi she'rlarini «Foniy» taxallusi bilan yozdi. Turkiy tilda birinchi beshta katta kitob – shoh asari «Xamsa»ni yaratdi. Ungacha nazm, asosan, fors tilida yaratilgan.

Bu asar o'zbek adabiyotining shuhratini olamga yoydi. Jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.

Bundan tashqari, o'zbek tilidagi she'rlarini to'plab, to'rt qismdan iborat «Ma'nolar xazinasi» devonini tuzdi.

Keyinchalik esa forsiy tilda yozgan she'rlarini to'plab «Devoni Foniy»ni yaratdi. Bu bilan forsiy she'riyat taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.



Alisher Navoiy.

Buni diqqat bilan o'qing!

Olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.¹



O'zingizni sinang

- ◆ 1441-yil —
- ◆ «Navoiy» —
- ◆ «Foniy» —

Kamoliddin Behzod (1455 — 1536).² O'z davrining buyuk rassomi Kamoliddin Behzod Alisher Navoiyning zamondoshi edi. U Alisher Navoiyning muruvvati bilan buyuk miniatyurachi rassom bo'lib voyaga yetdi. Noyob qobiliyat egasi bo'lgan Behzod Husayn Boyqaroning davlat kutubxonasiga rahbar etib tayinlandi. Bu kutubxona o'z davrining badiiy akademiyasiga aylandi. Akademiyaga keyinchalik «Behzod akademiyasi» deb nom berildi.

Behzod Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Jomiyning «Salomon va Absol», Sa'diyning «Bo'ston», Xotifiyning «Temurnoma» asarlariga, shuningdek, Alisher Navoiyning kitoblariga betakror miniatyuralar chizdi. Sulton Husayn Boyqaroning majlislari tasvirlangan miniatyuralar yaratdi. Sulton Husayn, Alisher Navoiy, Shayboniyxon va boshqa davlat arboblari hamda ulug' zotlarning suratlarini ham chizib qoldirdi. Kamoliddin Behzodning asarlari go'zallik shaydolarini hamon hayratga solib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida Behzodning nomini abadiylashtirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Toshkentdagi Milliy rassomlik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berildi.

2000-yilda yurtimizda YUNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545-yilligi nishonlandi.³



O'zingizni sinang

- ◆ Behzod tasviriy san'atning, asosan, ... shug'ullangan.

¹ *Islom Karimov*. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch». — T.: «O'zbekiston» NMIU. 2008. 47-bet.

² *Q. Rajabov* va boshq. O'zbekiston tarixining eng asosiy sanalari. — T.: «O'zbekiston» NMIU. 2012. 102-bet.

³ *Q. Rajabov* va boshq. O'zbekiston tarixining eng asosiy sanalari. — T.: «O'zbekiston» NMIU. 2012. 383-bet.

Atamalar mazmunini bilib oling



Miniatyura — o‘ta nafis qilib ishlangan kichik hajmli tasviriy san’at asari.

Sag‘ana — qabr ustiga o‘rnatilgan yodgorlik turi.

Xilxona — bir sulolaga mansub marhumlarni dafn etadigan joy.

Hiro — hozirgi Afg‘oniston davlati hududidagi shahar.

Savol va topshiriqlar



1. *Amir Temur mamlakat poytaxti Samarqandni obodonlashtirish borasida qanday bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan?*
2. *Amir Temur qanday me‘moriy obidalar bunyod ettirgan edi?*
3. *Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotida qanday o‘rin tutadi?*
4. *Alisher Navoiyning shaxsi va yaratgan asarlari haqida so‘zlab bering.*
5. *Kamoliddin Behzod ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?*

27-§. YEVROPADA ILM-FAN KASHFIYOTLARI



Nikolay Kopernik. XVI asrdan boshlab

Yevropada ham ilm-fan taraqqiy eta boshladi.

Ayniqsa, tabiiy fanlari sohasida buyuk kashfiyotlar amalga oshirildi. Bu kashfiyotlar polshalik Nikolay Kopernik va Italiya olimlari Jordano Bruno va Galileo Galileylar nomi bilan bog‘liqdir. Polshalik astronom olim Nikolay Kopernik o‘zigacha astronomiya fanida hukm surib kelgan qoida va tasavvurlarning noto‘g‘ri ekanligini isbotlab berdi. Kopernikka astronomiyada qanday qoida hukmron bo‘lgan?



Nikolay Kopernik.

Milodning ikkinchi asrida yunon olimi Ptolemey Yer olam markazidir, degan qoidani fanga kiritgan. Bu qoidaga ko‘ra Quyosh, Oy va yulduzlar Yer atrofida aylanadi. Yerning o‘zi harakatsizdir. Ptolemey qoidasining xato ekanligini birinchi bo‘lib Nikolay Kopernik isbotladi. U 30 yillik kuzatishlari natijasida Ptolemey qoidasini rad etdi. Kopernik Yer bir sutkada o‘z o‘qi atrofida bir marta, bir yilda esa Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishini isbotlab berdi. Demak, Quyosh Yer atrofida emas, Yer Quyosh atrofida aylanadi. Olamning markazi Yer emas, Quyoshdir. Bu haqiqat fandagi buyuk kashfiyot edi.

Yodda tuting!


Nikolay Kopernik olamning markazi Quyosh ekanligini isbotlab berdi.



Quyosh – olam markazi.



Jordano Bruno.



Galileo Galiley.

Bu kashfiyot ayni paytda diniy aqidalarga ham zarba berdi. Kopernik «Osmon jismlarining aylanishi haqida» kitobida o‘z kashfiyotining mazmunini bayon qildi. Mazkur kitob tezda mashhur bo‘lib ketdi. Biroq, kitob ruhoniylarning qahriga uchradi va taqiqlab qo‘yildi.

Jordano Bruno. Italiyalik olim Jordano Bruno yoshligidanoq astronomiya faniga katta qiziqish bilan qaradi. Shu soha olimlarining asarlarini qunt bilan o‘rgandi. Nikolay Kopernik qoidasini yoqlab chiqdi. Uning fikricha, olam cheksizdir. Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat. Ularning har biri Yerdan ancha uzoqda joylashgan Quyoshdir. Jordano Bruno bunday fikrlari uchun ruhoniylar tomonidan zindonga tashlandi. Biroq, zindon azobi ham uni o‘z fikridan qaytara olmadi. Brunoning dushmani bo‘lgan ruhoniylar uni 1600-yilda gulxanda yoqib kuydirdilar.

Galileo Galiley. Italiyaning yana bir olimi Galiley dunyoda birinchi bo‘lib Nikolay Kopernik va Jordano Bruno aytgan fikrlar to‘g‘riligini osmon jismlarini o‘zi yaratgan teleskop yordamida kuzatish orqali isbotlab berdi. Bu ishi uchun 1633-yilda ruhoniylar uni qattiq ta‘qib ostiga oldilar. O‘lim bilan qo‘rqitib, qattiq azob-uqubatlarga duchor etdilar. Natijada, Galiley o‘z fikridan voz kechishga majbur bo‘ldi.

Biroq, u qalban Kopernik ta‘limotining tarafdori bo‘lib qolaverdi.



O‘zingizni sinang

- ◆ Nikolay Kopernikdan asari meros bo‘lib qoldi.

Atama mazmunini bilib oling



Teleskop — osmon jismlarini kuzatish, suratga olish va o‘rganish uchun mo‘ljallangan asbob.

Savol va topshiriqlar



1. Yevropa olimlari astronomiya ilmi rivojiga qanday hissa qo‘shdilar?
2. Nega ruhoniylar astronom olimlarni ta‘qib ostiga olganlar?



Teleskop.

28-§. TURKISTON MA’RIFATPARVARLARI



Ma’rifat va ma’rifatparvarlik haqida. Ma’rifat — ta’lim va tarbiya orqali kishilarning bilimi va ongini oshirish yo‘lida qilinadigan harakatdir. O‘z faoliyatlarini bu ishga bag‘ishlagan kishilar esa ma’rifatparvarlar deb ataladi. Yurtimizda ma’rifatparvarlik harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida vujudga keldi va u jadidchilik harakati nomi bilan shuhrat qozondi. Jadidchilik harakatining namoyandalari esa jadidlar deb atalishgan. Jadidlarni Rossiya mustamlakasiga aylanib qolgan yurtimizning taraqqiyotda orqada qolib ketganligi tashvishga solgan. Ular yurtimizni ozod va obod ko‘rishni xohlagan edilar.

Yodda tuting!

Jadid (arabcha — yangi) — yangilik tarafdori, yangilik uchun kurashuvchi.¹

Jadidlar Turkistonning ilg‘or mamlakatlar qatoriga ko‘tarilishi, avvalo, zamonaviy bilimlarni egallagan kishilarning qanchalik ko‘p bo‘lishiga bog‘liq ekanligini yaxshi tushunganlar. Mavjud maktabxon va madrasalar bilan esa bu vazifani hal etib bo‘lmas edi. Shuning uchun ham ular o‘z oldilariga, birinchi navbatda, yurtimiz maktablarida hukm surayotgan eski tartiblar va eski o‘qitish usullarini yangilash maqsadini qo‘ydilar.

¹ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 64-bet.

Eski maktablarda, asosan, diniy bilimlar o‘qitilgan. Tabiiy fanlari esa (fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, zamonaviy tibbiyot kabi fanlar) deyarli o‘qitilmagan. Yosh avlodga bunday fanlarni o‘rgatmay turib yurt taraqqiyotiga erishib bo‘lmas edi.

Jadidchilik harakatiga yurtimizning taraqqiyparvar ziyolilari rahbarlik qilishdi. Ular ishni dastlab yangi usul (usuli jadid) maktablarini ochishdan boshladilar. Yangi usul maktablarida diniy ta‘lim bilan bir qatorda tabiat fanlaridan ham saboq berildi. Jadidlar iqtidorli bolalarni chet ellarga o‘qishga yuborishni ham tashkil etdilar.

Qoloqlikka ko‘nikib qolgan xalqning ongini o‘zgartirish uchun turli gazeta va jurnallar nashr ettirdilar. Teatrlar tashkil etib, ularda kishilarni o‘yga toldiruvchi asarlarni sahnalashtirdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari edilar.



**Mahmudxo‘ja
Behbudiy.**

Mahmudxo‘ja Behbudiy. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Behbudiy 1875-yilda Samarqandda tug‘ildi. O‘z davrining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egalladi. U dastlab Samarqand shahri yaqinidagi bir qishloqda jahon ilm-fani yutuqlaridan saboq berishga mo‘ljallangan yangi usul maktabini ochdi. Bu maktab uchun qator darsliklar yaratdi. Chunonchi, «Savod chiqarish kitobi», «Qisqacha umumiy geografiya», «Aholi geografiyasiga kirish» deb nomlangan darsliklar shular jumlasidan edi.

Behbudiy yosh avlod tarbiyasida teatrning ham katta rol o‘ynashini to‘g‘ri baholay oldi. Shuning uchun sahna asari ham yozdi. Uning «Padarkush» nomli sahna asari katta shuhrat qozondi. Bu asar o‘qimagan, johil va nodon o‘g‘ilning qanday qilib o‘z otasi qotiliga aylanganligi haqida hikoya qiladi. Behbudiy «Samarqand» deb ataluvchi gazeta va «Oyna» deb ataluvchi jurnal ham nashr ettirdi. Ularning sahifalarida yosh avlodni vatanparvar bo‘lishga, jahon ilm-fani yutuqlarini puxta egallashga da‘vat etdi.

Diqqat bilan o‘qing!

«Zamon ilmi va fanidan behahra xalq boshqalarga poymol bo‘lur».

Behbudiy

Behbudiy, ayni paytda, yosh avlodni Vatan taraqqiyoti yo‘lida bir nechta xorijiy tilni o‘rganishga ham chaqirdi.

Abdulla Avloniy. O‘z davrining atoqli ma’rifatparvari, shoiri, jurnalist, davlat arbobi bo‘lgan Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida tug‘ildi. Maktabxona va madrasada ilm oldi. U arab, fors va rus tillarini yaxshi o‘rganib oldi. Yangi usul maktablarining ahamiyatini yaxshi tushunganligi uchun Toshkentda shunday maktab ochdi. O‘zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. O‘quvchilar uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar (O‘qish kitoblari) yaratdi. «Turon» deb ataluvchi teatr jamoasini tuzdi. Qator sahna asarlarini, jumladan, Behbudiyning «Padarkush» asarini ham sahnalashtirdi.



Abdulla Avloniy.

Munavvar qori Abdurashidxonov. Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkentda ziyoli oilasida tug‘ildi. 1901-yilda Toshkentda yangi usul maktabini ochdi. Yangi usul maktablari uchun «Tovush chiqarib o‘qish usuli», «O‘qish kitobi», «Yer yuzi» (Geografiya) kabi darsliklar yozdi. Munavvarqori bora-bora Turkiston jadidlar harakatining yo‘lboshchisiga aylandi.

U qoloqlikni qoralab, yoshlarni Yevropa ilm-fanini o‘rganishga chaqirdi. Turkistonning mustamlaka holatidan qattiq qayg‘uga tushdi. Bu esa mustamlakachi kuchlarga yoqmasdi. Shuning uchun ham ular turli uydirmalar to‘qib unga tuhmat qilishdi va 1931-yilda otib tashlashdi.



**Munavvar qori
Abdurashidxonov.**

Ozodlik uchun kurashganlar nomi va xotirasi barhayot. Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlarning nomi hech qachon unutilmaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach ularning qutlug' nomlari, sha'nlari to'la tiklandi. Bu ishga shaxsan Yurtboshimiz Islom Karimov rahbarlik qildi. U kishining tashabbusi bilan 2000-yilda Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi bunyod etildi.

2002-yilda esa shu majmuaning tarkibiy qismi sifatida, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi barpo etildi. Shu tariqa Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlar xotirasi abadiylashtirildi.



O'zingizni sinang

◆ Jadidchilik – bu ◆ Jadidlar uchun kurashganlar.

Atamalar mazmunini bilib oling



Ziyoli – ma'rifat, ilm tarqatuvchi.¹

Mustamlaka – kuchli davlat tomonidan bosib olingan mamlakat.

Qatag'on – erkin fikrlovchi kishilarni quvg'in qilish, jismonan yo'q qilish.²

Savol va topshiriqlar



1. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatini vujudga keltirgan sabablarni qayd eting.
2. Jadidlar nega o'z faoliyatlarini yangi usul (usuli jadid) maktablarini tashkil etishdan boshlaganlar?
3. Behbudiy hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Avloniy qanday darsliklar yaratgan edi?
5. Munavvar qori Abdurashidxonov hayoti va faoliyati haqida so'zlab bering.

MUSTAQIL ISH

Turkiston ma'rifatparvarlari (jadidlar)

(Jadvalni to'ldiring)


T/r	Turkiston ma'rifatparvarlari	Qachon va qayerda tug'ilgan edi	Maqsadlari	Qachon va qayerda yangi usul maktablari ochganlar	Yaratgan darsliklari	Yozgan sahna asarlari
1.	Behbudiy					
2.	Avloniy					
3.	Munavvar qori					

¹ O'TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 147-bet.

² O'TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2008. 5-jild. 259-bet.



29-§. TO‘MARIS VA SHIROQ JASORATI

 **Ahamoniylarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi.** Miloddan avvalgi VI asr o‘rtalarida qadimgi Eron hududida ahamoniylar sulolasi asos solgan Fors podsholigi hukmdorlari o‘z oldilariga yurtimiz Turonni bo‘ysundirish maqsadini qo‘ydilar.

Sulola vakili shoh Kir II bu maqsadni amalga oshirish uchun dastlab ajdodlarimiz massagetlar yurtini bosib olishga qaror qildi.

Kir II ning hujumi arafasida massagetlar yurtida malika To‘maris hukmronlik qilardi. Oqila va jasur hukmdor To‘maris haqida ko‘p hikoya va rivoyatlar saqlanib qolgan. Shulardan biri Gerodotning «Tarix» kitobida keltirilgan.



Kir II qo‘shinlari bilan.



To‘maris.

Yovuz Kir II massagetlar yurtini bo‘y-sundirish uchun miloddan avvalgi 530-yilda Amudaryoni kechib o‘tdi.

Hal qiluvchi jang oldidan Kir II hiyla yo‘li bilan To‘marisning o‘g‘li Sparganisni asirga tushirdi.

Kir II asir Sparganisga qarata dedi:

– Onangga ayt: menga turmushga chiqsin. Shunda sizlarni ozod qilaman.

Sparganis undan qo‘lini yechishni iltimos qildi. Qo‘llari kishandan bo‘shagan yigit nomusi zo‘rligidan yonida turgan soqchining xanjarini tortib olib o‘ziga urdi. Hayratga tushgan forslar Sparganisni ehtirom bilan dafn etdilar. O‘g‘lining o‘limidan larzaga tushgan To‘maris Kir II ga quyidagi maktubni yo‘lladi: «O, qonxo‘r Kir! Maqtanma, o‘g‘limni ochiq jangda emas, hiyla yo‘li bilan yengding. Endi yurtingga qayt! Aks holda tangrim nomi bilan qasam ichamanki, seni o‘z qoningga to‘y-diraman».

Kir II uning gapiga quloq solmadi. To‘maris bor qo‘shinini yig‘ib, Kir II ustiga yurish qildi. Ikki tomon o‘rtasida dahshatli jang bo‘lib o‘tdi. Jangda Kir II o‘ldirildi.

Massagetlardan bir yigit Kir II ning kesilgan boshini To‘marisning oyog‘i ostiga tashladi.

Malika Kir II ning boshini qon to‘ldirilgan meshga solishni buyurdi va baland ovozda: «O‘g‘limni o‘ldirding, yurtimning qonini ichmoqchi bo‘lding. Tirikligingda inson qoniga to‘ymagan eding. Mana, endi to‘yguningcha ich, qonxo‘r!», deb xitob qildi.



To‘maris jangga otlanmoqda.

Massagetlar bilan Kir II o'rtasidagi bu urush tillarda doston bo'ldi. «Mening bilishimcha, urushlar ichida bunday urushni hali hech kim ko'rmagan», deb yozgan edi Gerodot hikoyasining yakunida.



O'zingizni sinang

◆ Kir II — ◆ To'maris —

Shiroq jasorati. Kir II halokatga uchragan bo'lsa-da, ahamoniylar Turonni bosib olish niyatidan voz kechmadilar. Shu sulola vakili Doro I miloddan avvalgi 519-yilda saklar yashayotgan hududlarni bosib olish uchun qo'shin tortdi.


Saklar dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Buni saklar qabilasiga mansub Turonning mard o'g'loni Shiroq jasorati misolida ko'rish mumkin.

Shiroq qabiladoshlariga bosqinchilarni yo'q qilish rejasini aytdi va o'zining quloq, burnini kesishlarini talab qildi. Shundan so'ng u shoh Doro I oldiga borib, vatan-doshlaridan alamzada ekanligini, ulardan o'ch olish uchun forslarga yordam berishini, ularni sak askarlari joylashib olgan joyga yaqin yo'ldan boshlab borishini aytdi.

Doro I quloq-burni kesilgan Shiroqning gaplariga ishonadi.

Shiroq ularni cho'l ichkarisiga boshladi. Doro qo'shini qancha yurmasin, manzildan darak bo'lmadi. Bu orada forslar qo'shinining oziq-ovqat zaxirasi tugadi. Darg'azab bo'lgan forslar aldanganini tushunib yetdilar. Shunda vatanparvar Shiroq ularga qarab:

— Men bir o'zim Doro I qo'shinini halokatga uchratdim. Vatandoshlarimni esa o'lim va talon-tarojdan saqlab qoldim. Dushman qo'shini halokatga mahkumdir, — deganicha qah-qah urib kuldi.



Doro I.



Shiroq dushmanlar orasida.

Turonning mard o‘g‘loni Shiroq dushman qo‘lida halok bo‘ldi. Lekin xalqini, Vatanini bosqinchilardan saqlab qoldi. Doroning qo‘shini sahroda qolib ketib, halokatga uchradi. Biroq ahamoniylar bu mag‘lubiyatdan so‘ng ham Turonni bo‘ysundirish niyatidan qaytgan emaslar.

Dushman harbiy kuch jihatdan baribir kuchli edi. Oxir-oqibat Fors podsholigi yurtimizni bo‘ysundirdi va har yili katta miqdorda o‘lpon to‘lab turishga majbur etdi.



O‘zingizni sinang

- ◆ Doru I –
- ◆ Shiroq –

Atamalar mazmunini bilib oling



Ahamoniylar — qadimgi Eronda miloddan avvalgi 558—330-yillarda hukmronlik qilgan sulola.¹

O‘lpon — soliq.

Savol va topshiriqlar



1. Ahamoniylar kimlar edi va ular qachon Turonga bostirib kelganlar?
2. To‘maris jasorati haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Shiroq jasorati haqida so‘zlab bering.

30-§. SPITAMENNING QAHRAMONLIGI



Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurishi. Miloddan avvalgi IV asr o‘rtalarida Yevropada Makedoniya davlati tashkil topdi. Uning podshosi Filip II bosqinchilik urushlari olib borish uchun katta qo‘shin to‘pladi.

Biroq u o‘ldirilgach taxtni 20 yashar o‘g‘li Aleksandr egalladi (mil. avv. 356—323-yillar). U juda ko‘p mamlakatlarni bosib olib, Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan mashhur bo‘ldi. Boshqa bosqinchilar qatori Aleksandrni ham yurtimizning bitmas-tuganmas boyliliklari o‘ziga rom etgan edi. Shuning uchun ham u Vatanimizni bosib olishga intila boshladi.

¹ Q. Rajabov va boshq. O‘zbekiston tarixining eng asosiy sanalari. — T.: «O‘zbekiston» NMIU. 2012. 26-ber.

Miloddan avvalgi 329-yilda dastlab Baqtriyani bosib oldi. So'ng So'g'diyonaga qarshi yurish boshladi va Marokanda (hozirgi Samarqand) shahrini egalladi va uni o'zining qarorgohiga aylantirdi. So'ngra, Sirdaryo tomon yurishni davom ettirdi.



O'zingizni sinang

- ◆ Makedoniyalik Aleksandr —
- ◆ Miloddan avvalgi 329-yilda —



Makedoniyalik Aleksandr.


Spitamening qahramonligi. Bosqinchilar yurtimizni hech qachon osongina bosib ololmaganlar. Turonning mard o'g'lonlari bu safar ham Vatan ozodligi yo'lida mardlarcha kurashdilar. Bu ozodlik harakati uch yil davom etdi. Unga sug'diyonalik mohir lashkarboshi Spitamen rahbarlik qildi.

Sug'diyonaliklar quyidagi vatanparvarlik qo'shig'ini baralla kuylar edilar:

*Gullab-yashna, go'zal Sug'diyona,
Biz shu Vatan o'g'lonlarimiz.
Sen uchun bizlar parvona
Senga qurbon bo'lsin jonimiz.*

Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilar dastlab Marokanda shahrida qoldirilgan Aleksandr qo'shinini tor-mor etib shaharni egalladilar. Buni eshitgan Aleksandr Spitamen qo'zg'olonini bostirish uchun katta qo'shin yubordi. Biroq Spitamen ularni ham tor-mor keltirdi.

Endi Aleksandrning o'zi katta qo'shin bilan kelib, Marokandani qattiq iskanjaga oldi. Og'ir janglarning birida Aleksandr



Spitamen.

hatto yarador ham bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, yaxshi harbiy ta'lim olgan Aleksandr qo'shinining qo'li baland keldi.

Oqibatda Spitamen chekinishga majbur bo'ldi. Bosqinchilik urushi davomida Aleksandr yurtimizni bo'ysundirish oson emasligini tushunib yetdi va boshqa usulni qo'lladi.

U dastlab Spitamenga, agar qo'zg'olonni to'xtatsa, unga Sug'diyona hokimligini in'om etmoqchi ekanligi haqidagi xabarni yubordi. Biroq Spitamen Vatanini sotishdan ko'ra o'limni afzal ko'rib rad javobini berdi.

Endi, Aleksandr hiyla-nayrang yo'liga o'tdi: «Spitamen yo'q qilinishi kerak! – deb o'ylardi Aleksandr. – Iloji boricha tezroq! Butun Osiyoni oyoqqa turg'azmasidan burun yo'q qilinishi kerak. Ammo qanday qilib? Axir bu «quturgan Qoplon»ni minglab jangchilar izma-iz quvlayotgan bo'lsa-da, hech qanday kuch uni yenga olmayapti-ku. Kuch bas kelmadimi, demak, makr bas keladi! Nahotki «quturgan Qoplon»ning qo'shini orasida birorta «chiyabo'ri topilmasa?!»

Yurtdoshlari Spitamenni Qoplon deb atashardi. Unga bunday nom berilishiga uning qoplon terisini ustiga yopib yurishigina emas, balki qoplondek dovyurak va chaqqonligi ham sabab bo'lgan.

Shu tariqa Aleksandr Vatan xoinlaridan foydalanishga qaror qildi va bunga erishdi. Aleksandr Spitamenni xoinlar yordamida hiyla-nayrang yo'li bilan yengdi. Bu voqea miloddan avvalgi 328-yilda yuz berdi.¹ Sug'diyonaliklar Spitamenni katta izzat-ikrom bilan dafn etdilar.

Spitamen halok bo'lsa-da, bosqinchilarga qarshi xalq kurashi yana bir yil davom etdi. Ozodlik qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, u Vatan o'g'lonlarining mardligini, jasoratini namoyon etdi.

Aleksandr yurtimizni o'ziga tobe qilishga erishdi. Biroq bu unga juda qimmatga tushdi.

U yangi urushlarga tayyorgarlik ko'rish paytida bezgak kasaliga chalinib, 33 yoshida vafot etdi. Aleksandrning vafotidan so'ng u asos solgan davlat ham parchalanib ketdi.

¹ O'zME. – T.: «ЎзМЭ». 2004. 8-jild. 43-bet.



O'zingizni sinang

- ◆ Spitamen bo'lgan edi.
- ◆ Spitamen ... yo'li bilan mahv etildi.

Savol va topshiriqlar



1. Makedoniya davlati qachon va kim tomonidan barpo etildi?
2. Makedoniyalik Aleksandr Vatanimizni bosib olishdan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
3. Spitamen boshchiligida Vatanimiz ozodligi uchun olib borilgan qo'zg'olon haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Aleksandr Spitamenni qanday yo'l bilan mag'lub etgan edi?

31-§. ARABLARGA QARSHI XALQ OZODLIK KURASHI



Muqanna qo'zg'olonining sabablari. Vatanimizning qulay tabiiy iqlim sharoiti, behisob boyliklari arablarning ham diqqat-e'tiborini o'ziga tortdi. Shuning uchun ham ular VIII asrda Vatanimizni bosib olishga kirishdilar.

Bu bosqinchilik yurishiga tajribali arab sarkardasi Qutayba ibn Muslim rahbarlik qildi. Bosqinchilik yurishi boshlanishi arafasida Vatanimizda yagona qudratli davlat yo'q edi.

Bu esa arab bosqinchilari uchun juda qo'l keldi. Shunday bo'lsa-da, ajdodlarimiz bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Biroq qudratli qo'shinga ega bo'lgan arablar 715-yilda yurtimizda o'z hukmronligini o'rnatdilar.

Yodda tuting!

Arablar yurtimizni Movarounnahr (daryoning narigi tomoni) deb atay boshladilar.

Arablar Movarounnahr aholisiga jabr-zulm o'tkaza boshladilar. Chunonchi, ular mahalliy aholidan olinadigan soliqlar miqdorini oshirdilar.

Bu ham yetmaganidek, eng yaxshi yerlar ko'chirib keltirilgan arablarga olib berildi. Yurtimiz boyliklari talandi.



Qutaybaning harbiy yurishi.

Ayni paytda, o‘zlarini taraqqiyotda ulardan oldinda bo‘lgan mahalliy aholidan ustun qo‘y-dilar.

Ularni nazar-pisand qilmadilar. Bu adolatsizliklar va o‘tkazilgan jabr-zulmlar mahalliy aholida keskin norozilik uyg‘otdi. Bular oxir-oqibat 769-yilda Muqanna boshchiligida qo‘zg‘olon boshlanishiga olib keldi.

Qo‘zg‘olonning natijasi. Muqannaning asl ismi Hoshim ibn Hakim edi. U doim yuzini niqob bilan bekitib yurgan. Qo‘zg‘olonchilar arablardan ajralib turish uchun oq

kiyim kiyib olganlar. Shuning uchun bu qo‘zg‘olon tarixga «Oq kiyimlilar qo‘zg‘oloni» nomi bilan kirdi.

783-yilgacha davom etgan bu qo‘zg‘olon arab bosqinchilarini tahlikaga solib qo‘ydi. Ular qo‘zg‘olonni bostirish uchun barcha choralarni ko‘rdilar.

Shunga qaramay qo‘zg‘olonchilar qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Biroq kuchlar teng emas edi.

Bu esa arablarga qo‘zg‘olonchilarni birin-ketin mag‘lubiyatga uchratish imkonini berdi. Nihoyat, arablar Qashqadaryo vohasiga bostirib kirdilar.

Bu yerda qo‘zg‘olonchilarning asosiy tayanchi bo‘lgan Som qal‘asini qamal qildilar va uni egalladilar.

Shu tariqa Muqanna qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchradi. Chorasiz qolgan Muqanna o‘zini yonib turgan tandirdagi olovga otib halok bo‘ldi.

Arab bosqinchilari yaxshi harbiy ta‘lim olgan doimiy qo‘shinga ega bo‘lganligi uchun g‘alaba qozondilar.

Qo‘shin davlat tomonidan barcha zarur narsalar bilan o‘z vaqtida ta‘minlanib turilgan. Muqanna qo‘shini davlat qo‘shini bo‘lmaganligi sababli maxsus harbiy ta‘lim ko‘rmagan edi.



Муқанна қо‘зғ‘олони.

Муқанна қо‘зғ‘олони yengilgan bo‘lsa-da, u arablar bosqinchiligining ildizlariga zarba berdi.

Ayni paytda bu қо‘zғ‘olon xalq kuch-qudrati uning mustahkam birligida ekanligini ham ko‘rsatdi.



O‘zingizni sinang

- ◆ Arablarga qarshi ... yilda
- ◆ «Oq kiyimlilar» –



Муқанна.

Savol va topshiriqlar



1. Vatanimiz qaysi jihatlari bilan arablar e’tiborini o‘ziga tortgan edi?
2. Muqanna қо‘zғ‘olonining sabablari haqida nimalarni bilib olingiz?
3. Muqanna қо‘zғ‘oloni nima uchun mag‘lubiyatga uchragan edi?
4. Muqanna қо‘zғ‘oloni qanday ahamiyatga ega?

32-§. JALOLIDDIN MANGUBERDI XALQIMIZNING MILLIY QAHRAMONI



Mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash. 1206-yilda Mo‘g‘ulistonda «Yakka mo‘g‘ul ulusi» deb atalgan davlat vujudga keldi.¹ Bu davlatni o‘z davrining mashhur sarkardasi Temuchin tashkil etdi. Davlat hukmdori Temuchin Chingizxon unvoni bilan atala boshlandi.



Chingizxon.

Chingizxon o‘z davri uchun qudratli qo‘shin tuza oldi. Endi, u dunyo hukmdori bo‘lishga intildi. Qisqa vaqt ichida juda katta hududlarni bosib olib, o‘z davlatini ulkan davlatga aylantirdi. Nihoyat, uning davlati chegaralari yana bir ulkan davlat — Xorazmshohlar davlati chegaralarigacha yetib keldi.

Bu davrda Xorazmshohlar davlatining hukmdori Alouddin Muhammad edi. Chingizxonning maqsadi — Xorazmshohlar davlatini qulatish va Osiyoda tanho hukmdor bo‘lib olish edi.

1219-yilda Chingizxon Xorazmshohlar davlatiga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Xorazmshoh sulton Alouddin Muhammad mamlakat mudofaasini tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ydi. Harbiy kuchlarni birlashtirish o‘rniga, har bir shahar-qal’a o‘z mudofaasini tashkil etishi to‘g‘risida ko‘rsatma berdi. Xorazmshohlarning har bir qal’asi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi.

Ammo qudratli Chingizxon Movarounnahr shaharlarini birin-ketin vayronaga aylantira bordi. Tez orada mamlakat



**Xorazmshoh sulton
Alouddin Muhammad.**

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. — T.: «Sharq» NMAK. 2011. 150-bet.

poytaxti Urganch shahriga hujum boshladi. Urganchliklar zamonasining buyuk allomasi Najmiddin Kubro boshchiligida dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatdilar.

Najmiddin Kubro mudofaachilarga qarata: «Yo Vatan, yo sharafli o'lim», — deb murojaat qildi. Shaharda ko'cha janglari yetti oy davom etdi.

Oxiri, qo'lida qurol ushlagga holi qolmagan shahar mudofaachilari ilojisizlikdan taslim bo'ldilar. Urganch mudofaasida Najmiddin Kubro ham mardlarcha halok bo'ldi.

Urganchni egallagan mo'g'ullar shaharni xarobaga aylantirdilar. Natijada, uzoq yillar davomida barpo etilgan bu ko'rkam shaharda hayot to'xtadi.

Jaloliddin Manguberdi (1198–1231) jasur va mohir sarkarda. Og'ir kasalga chalingan sulton Alouddin Muhammad o'limidan oldin katta o'g'li Jaloliddin Manguberдини taxt vorisi etib tayinladi.

Biroq bungacha barcha imkoniyat boy berib bo'lingan edi. Mamlakat uchun shunday og'ir sharoitda Jaloliddin bosqinchilarga qarshi kurash boshladi. 1221-yilda Valiyon qal'asini qamal qilib turgan mo'g'ullarga hujum qilib, ularni tor-mor keltirdi. Bu mo'g'ullar ustidan qozonilgan birinchi yirik g'alaba edi.

Bundan xabar topgan Chingizxon Jaloliddinga qarshi 45 ming kishilik qo'shin yubordi.

Jaloliddin qo'shinni G'azna yonidagi Parvonda qarshi oldi va jangda g'alaba qozondi.



Alouddin Muhammad o'g'li Jaloliddin Manguberdiga olmos qilichini tutqazmoqda.



Jaloliddin Manguberdi.

Yodda tuting!

Tarixga «Parvon jangi» nomi bilan kirgan bu jangda Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi barcha lashkarni otlaridan tushirib dushmani kamondan o'qqa tutish va keyin yalpi hujumga o'tish usulini qo'lladi.

Endi Chingizxonning o'zi katta qo'shinga bosh bo'lib, Jaloliddinga qarshi urushga otlandi.

Hal qiluvchi jang. Ikki tomon o'rtasida hal qiluvchi jang Sind daryosi yonida 1221-yilning 24–26-noyabr kunlari bo'lib o'tdi va bu jang tarixga «Sind jangi» nomi bilan kirdi.¹



O'zingizni sinang

- ◆ Jaloliddin Parvon jangida ... qo'lladi.
- ◆ Sind jangi ... yilda bo'lib o'tdi.

Jaloliddin qo'shini oz sonli bo'lishiga qaramay, qudratli dushman bilan mardonavor olishdi. Jang taqdirini Chingizxonning pistirmaga qo'ygan saralangan qo'shini hal etdi. Mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin oz sonli jangchisi bilan daryoning narigi sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi. Chingizxon dushmani bo'lsa-da, Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolib: «Otaga shunday jasur o'g'il lozim. U ikki girdob – olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi», degan. Sulton Jaloliddin Manguberdi yengilgan bo'lsa ham 1231-yilgacha mo'g'ullarga qarshi tinim bilmay kurashdi. U zafar quchdi, mag'lubiyat alamini tortdi, ammo yengilmadi. Jaloliddin Manguberdi 1231-yilning avgust oyida hozirgi Turkiya hududida halok bo'ldi.

Xalqimizning milliy qahramoni mangu barhayot. Davlatimiz tomonidan mustaqillik yillarida Sulton Jaloliddin Manguberdining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi ko'rsatgan mislsiz jasorati, Vataniga va xalqiga sadoqati, cheksiz muhabbati yuksak qadrlandi.

Diqqat bilan o'qing!

«Jaloliddin Manguberdi – ona Vatan himoyachisi, jasur sarkarda.., xalqimiz tarixida ...o'chmas iz qoldirgan milliy qahramon».

Islom Karimov.

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. – T.: «Sharq» NMAK. 2011. 83-bet.

Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan 1999-yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdiga Xorazmda haykal oʻrnatildi. Koʻcha va maydonlarga uning nomi berildi.

2000-yilda esa davlatimizning oliy harbiy mukofotlaridan biri – «Jaloliddin Manguberdi» ordeni taʼsis etildi.



«Jaloliddin Manguberdi» ordeni.

Atamalar mazmunini bilib oling



Valiyon – hozirgi Afgʻoniston hududidagi qadimgi shahar.

Parvon – Afgʻonistondagi shaharcha.

Sind – hozirgi Pokistonning shimolidan oqib oʻtuvchi katta daryo.

Savol va topshiriqlar



1. Chingizxon tuzgan moʻgʻullar davlati haqida nimalarni bilib olдингiz?
2. Nega Alouddin Muhammad Xorazmshoh mamlakat mudofaasini tashkil eta olmagan?
3. Jaloliddin qaysi shaharlarda moʻgʻullar ustidan gʻalaba qozongan?
4. Sind daryosi boʻyidagi jang haqida soʻzlab bering.
5. Vatanimiz mustaqilligi yillarida Jaloliddin Manguberding xotirasini abadiylashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

MUSTAQIL ISH

Vatan ozodligi uchun kurashgan qahramonlar

(Jadvalni toʻldiring)

T/r	Qahramonlar	Qachon va kimlarga qarshi kurashgan?	Qahramonlarning taqdiri
1.	Toʻmaris		
2.	Shiroq		
3.	Spitamen		
4.	Muqanna		
5.	Jaloliddin Manguberdi		

33-§. SOHIBQIRON AMIR TEMUR



Amir Temur hayoti va faoliyati. Amir Temur 1336-yil 9-aprelda hozirgi Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ildi.

Uning otasi Amir Tarag‘ay Bahodir o‘zbeklarning barlos urug‘i va Kesh viloyatining nufuzli amirlaridan biri bo‘lgan.



Amir Temur.

Onasi Takina Mohbegim Buxoroning yetuk ilm ahli xonadonlaridan birining qizi bo‘lgan. Amir Temurning yoshligi Shahrizabzda o‘tdi. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq ustozlar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘ldi. U o‘z davrining ilmlarini puxta egalladi. Otasining piri shayx Shamsiddin Kuloldan saboq oldi. Teran fikrli, yuksak fazilatli, ziyrak va dovyurak bo‘lib voyaga yetdi.

17 yoshida otasining butun mulkini o‘zi mustaqil boshqara boshladi. Amir Temur tug‘ilgan davrda Vatanimiz hududi Chingizxonning o‘g‘illaridan biri Chig‘atoy nomi bilan ataluvchi ulus (davlat) tarkibida edi.

XIV asrning o‘rtalarida Chig‘atoy ulusida hokimiyat uchun kurash nihoyatda kuchaydi. Natijada ulus parchalanib ketdi. Amir Temur ana shunday og‘ir vaziyatda tarix sahnasiga chiqdi. U o‘zining ilk harbiy faoliyatini qo‘l ostidagi askarlari bilan turli viloyatlar amirlariga xizmat qilishdan boshladi. Ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko‘rsatdi. Bu esa uning nomini Qashqadaryo vohasida mashhur qilib yubordi. Kurashlarda toblana borgan Amir Temur endi o‘z oldiga Vatanni mo‘g‘ullardan ozod etishdek muqaddas vazifani qo‘ydi.



Amir Temur davlati bayrog‘i.

Amir Temur qudratli davlat asoschisi. Tez orada Amir Temur mo‘g‘ullarga qarshi ozodlik kurashini boshlab yubordi. Bu kurash sakkiz yil

davom etdi. Nihoyat, ozodlik kurashchilari mo‘g‘ul qo‘shinini Movarounnahr hududidan quvib chiqardilar. 1370-yilning 9-aprel kuni esa Amir Temur Movarounnahr hukmdori deb e‘lon qilindi. Bu vaqtda u 34 yoshga to‘lgan edi.

Amir Temurga piri shayx Sayyid Baraka oliy hokimiyat ramzi bo‘lgan katta nog‘ora va bayroqni tutqazdi. Samarqand davlatning poytaxti etib belgilandi.

Yodda tuting!

1370-yilda Sohibqiron Amir Temur buyuk davlatga asos soldi.

Amir Temur Yevropa xalqlari xaloskori. Bu davrda Amir Temur davlatiga mo‘g‘ullar barpo etgan Oltin O‘rda davlati xavf sola boshladi. Bu davlat taxtida To‘xtamishxon o‘tirar edi. Amir Temur Oltin O‘rdaning tahdidlarini bartaraf etishga kirishdi. 1395-yilda Amir Temur To‘xtamishxonning qo‘shinini tor-mor etdi.

Bu g‘alaba Oltin O‘rdani zaiflashtirib qo‘ydi. Shuningdek, Oltin O‘rdaga qaram bo‘lgan Rus (Rossiya)ning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lishini tezlashtirdi.

Diqqat bilan o‘qing!

«Amir Temur Rusning Oltin O‘rda zulmidan xalos bo‘lishini hamda bu davlatning yuksalishini tezlashtirdi».


Mixail Ivanin (rus tarixchi olimi). «Ikki buyuk sarkarda» kitobi.

Amir Temur G‘arbiy Yevropa xalqlariga katta tahdid solayotgan Usmoniylar imperiyasi (Turkiya) sultoni Boyazid qo‘shinini 1402-yilda Anqara yonida bo‘lgan jangda tor-mor etdi.

Usmoniylarning bu mag‘lubiyati uning Yevropa davlatlariga solayotgan tahdidini yo‘qqa chiqardi.

Boyazidning tahdididan xalos bo‘lgan Yevropa davlatlari Amir Temurga minnatdorchilik maktublarini jo‘natishdi.

Fransiya va Ispaniya qirollari esa elchilar ham yuborishdi. Sohibqironga G‘arbiy Yevropada XV asrdayoq yodgorlik o‘rnatilib, unga «Yevropa xaloskoriga» degan chuqur ma‘noli so‘zlar yozib qo‘yildi.



Amir Temur haykali.

Amir Temur yurtni qudratli markazlashgan davlatga aylantira oldi. Ayni paytda Yevropa xaloskoriga ham aylandi. Amir Temurning jahon tarixida tutgan oʻrni kattadir.

Shu boisdan ham YUNESKO tashkiloti qarori bilan 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

Diqqat bilan oʻqing!

«Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, gʻururimiz!».

Islom Karimov

Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari oʻrnatildi. Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi. Vatanimizning yuksak mukofotlaridan biri — «Amir Temur» ordeni taʼsis etildi.

Oʻzingizni sinang



- ◆ 1395-yilda
- ◆ Anqara jangi —
- ◆ M. Ivanin —

Atama mazmunini bilib oling



Anqara — hozirgi Turkiya Respublikasining poytaxti.

Savol va topshiriqlar



1. Amir Temur kurash maydoniga chiqqan davrda Vatanimizda ahvol qanday edi?
2. Amir Temurning Vatan mustaqilligi yoʻlida olib borgan kurashi va buyuk davlat barpo etganligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nega Amir Temur Yevropa xaloskori deb ataldi?
4. Mustaqillik yillarida buyuk Amir Temurning pok nomini tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

QO‘SHIMCHA MA’LUMOT

Buyuk bobomiz Amir Temurning «Temur tuzuklari» (qonunlari) asarida yozib qoldirgan o‘gitlaridan

- ◆ Millatning dardiga darmon bo‘l.
- ◆ Kuch adolatdadir.
- ◆ Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.
- ◆ Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

34–35-§. ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET MUSTAMLAKACHILIGI



Rossiya imperiyasining maqsadi. Vatanimizning beqiyos tabiiy boyliklari Rossiya podshosi Pyotr I ning ham havasini keltirdi. Shuning uchun u o‘z oldiga yurtimizning bu boyliklarini qolga kiritish maqsadini qo‘ydi. O‘z maqsadini amalga oshirishdan avval, O‘rta Osiyo (Xiva, Buxoro va Qo‘qon) xonliklaridagi ichki vaziyatni o‘rganish va oltin zaxiralari bor bo‘lgan joylarni aniqlashga qaror qildi.

Shu maqsadda 1717-yilda Xiva xonligiga 10 mingdan ortiq harbiylar va turli mutaxassislardan iborat ekspeditsiya yubordi. Biroq ekspeditsiya halokatga uchradi.

Pyotr I bundan xabar topsa-da, Xiva xonligidan o‘ch olish uchun qo‘shin yubora olmadi. Chunki, Rossiya boshqa urush bilan band edi.

Pyotr I ning orzularini XIX asrda uning keyingi avlodlari amalga oshirdi. Yurtimizni bosib olishda O‘rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy jihatdan qo‘loqligi, zamonaviy qurollantirilgan va ta‘lim berilgan qo‘shinning yo‘qligi hamda ular o‘rtasida o‘zaro ziddiyatning kuchliligi Rossiya imperiyasiga qo‘l keldi.



Pyotr I.

Bosqinning boshlanishi. 1864-yilda Rossiya imperatori Aleksandr II O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakat boshlashga buyruq berdi. Dastlab, Qo'qon xonligiga qarashli bir qancha qal'a va shaharlar bosib olindi.

1865-yilda general Mixail Chernyayev qo'mondonligidagi qo'shin Toshkent shahriga hujum qildi. Qo'qon xonligi qo'shinlari amirlashkari (bosh qo'mondoni) Mulla Alimqul boshchiligida shahar mardonavor himoya qilindi.

Biroq harbiy kuchlar teng emas edi. Mulla Alimqul mardlarcha halok bo'ldi. M. Chernyayev shaharni suv ta'minotidan uzib qo'ydi. Oxir-oqibat shahar bosib olindi. Bosib olgan hududlarda Turkiston oblasti tashkil etildi. M. Chernyayev Turkiston oblasti harbiy gubernatori (hokimi) etib tayinlandi.

1867-yilda esa Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. 1868-yilda Buxoro amirligi, 1873-yilda esa Xiva xonligi Rossiyaga tobe davlatlarga aylantirildi. Ulardan tortib olingan hududlar esa Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib olindi.

Qo'qon xonligining tugatilishi. Turkiston general-gubernatori Kaufman Qo'qon xonligini butunlay tugatishga kirishdi. Buning uchun Qo'qon xonligida qulay imkoniyat vujudga keldi. Chunonchi, Xudoyorxon vaqtini o'yin-kulgi, sayr-u sayohat, sayd-u shikorda o'tkazib, ulamo va fuzaloning maslahatlariga quloq solmadi. Aksincha jabr-u sitam yo'liga kirib oldi. Oqibatda xalq Xudoyorxon zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Xon qo'zg'olonni bostirish uchun mingboshi Abdurahmon oftobachi boshchiligida qo'shin jo'natdi. Biroq Abdurahmon oftobachi qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib ketdi. Bu esa Rossiya bosqinchilariga qo'l keldi.

Kaufman Farg'ona vodiysi tomon katta qo'shinni safarbar etdi. Tengsiz janglarda Qo'qon himoyachilari tor-mor etildi.

1876-yilda Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoniga binoan Qo'qon xonligi tugatildi. Uning o'rnida Farg'ona oblasti tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Milliy ozodlik kurashi. Rossiya imperiyasi yurtimizni bosib olgach mustamlakachilik tartiblarini joriy etdi. Boyliklarimiz talon-taroj qilindi. Og'ir soliqlar va majburiyatlar joriy etildi. Eng unumdor yerlar Rossiyadan ko'chirib kelinganlarga bo'lib berildi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoqosti qilindi. Bu omillar Turkiston aholisining mustamlakachilarga qarshi ozodlik qo'zg'oloni ko'tarishiga sabab bo'ldi.

Ayniqsa, 1898-yilda Andijonda Muhammadali Eshon boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon keskin tus oldi. Qo'zg'olonning maqsadi Qo'qon xonligini qayta tiklash edi. Biroq kuchlar teng bo'lmaganligi va puxta tayyorgarlik ko'rilmaganligi uchun qo'zg'olon mag'lubiyatga uchradi. Bosqinchilar qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi.

Muhammadali va uning yaqin safdoshlari osib o'ldirildi. Yuzlab ishtirokchilar surgunga jo'natildi. Biroq bu shafqatsizliklar xalqimizning irodasini buka olmadi.

Sovet mustamlakachiligining o'rnatilishi. 1917-yilning fevral oyida Rossiyada uch yuz yildan ortiq taxtda o'tirgan Romanovlar sulolasi-ning hokimiyati barham topdi. Mamlakat boshidan og'ir inqirozli kunlarni kechira boshladi. Biroq yangi hukumat bu inqirozni bartaraf eta olmadi. Oqibatda hokimiyatni kommunistlar partiyasi (xususiy mulk bo'lmaydigan jamiyat uchun kurashuvchi) egallab oldi.

Biroq kommunistlar partiyasi Rossiya imperiyasi davrida bosib olingan o'lka xalqlariga mustaqillik bermadi. Shu jumladan, bizning yurtimiz ham Sovet Rossiyasi mustamlakasi bo'lib qolaverdi.

Sovet imperiyasi (Sovet Rossiyasi) 1917-yilda dastlab Qo'qon shahrida tuzilgan milliy hukumatimizni ag'darib tashladi. Shaharda qirg'in uyushtirdi. Bu xunrezlik butun Turkistonni larzaga keltirdi. Bolsheviklar xalqlarning milliy qadriyati, madaniyati va urf-odatlarini mensimadi. Mustamlakachilik qaramligi yanada kuchaytirildi. Bu esa milliy-ozodlik kurashi boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu kurashga Madaminbek va Shermuhammadbek kabi qo'rboshi (qo'mondon) bobolarimiz rahbarlik qildilar. Kurash bir necha yil davom etdi.

Biroq harbiy kuchlar teng emasdi. Buning ustiga milliy-ozodlik kurashi yo'l boshchilari o'zaro to'la hamjihatlikka erisha olmadilar. Natijada Turkistonning ozodligi uchun olib borilgan kurash mag'lubiyatga uchradi. Turkiston ozodligi uchun kurashganlar tahqirlanib «bosmachilar» deb ataldi.

Yangi hukumat mahalliy ziyolilarni ayovsiz qatag'on qildi. Chunki, ular Vatanimiz ozodligining eng faol kurashchilari edilar.

Ular orasida Siz 30-mavzuda bilib olgan, mustaqilligimiz uchun jonlarini fido qilgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriylar, mashhur shoir Usmon Nosir kabi yuzlab bobolarimiz bor edi.

Sovet mustamlakachiligi yillarida F. Xo'jayev, A. Ikromov kabi ko'plab davlat rahbarlari ham qatag'on qurboni bo'ldilar. Rossiya imperiyasi va sovet davlatiga qaramlik salkam 130 yil davom etdi.

Ozodlik uchun kurashchilar unutilmaydi. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Vatanimiz ozodligi yo'lida halok bo'lganlar nomi, hurmati o'z o'rnini topdi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yilda Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi bunyod etildi.



«Shahidlar xiyoboni» yodgorlik majmuyi.

2002-yilda esa bu majmuada «Qatagʻon qurbonlari xotirasi» muzeyi ochildi. Shu tariqa mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasi abadiylashtirildi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Rossiya imperiyasi — Chor Rossiyasi (podsho Rossiyasi) — rus tilida podsho — «царь» deb ataladi. Turkiston aholisi uni «chor» deb talaffuz qilgan. Kitoblarda chor Rossiyasi oʻrnida Rossiya imperiyasi atamasi ham ishlatiladi.

Sovet imperiyasi — sobiq Rossiya imperiyasining 1922-yildan boshlab atala boshlagan nomi. «Sovet» (Kengash) soʻzi sovet imperiyasida davlatni ishchilar, dehqonlar va soldatlar tomonidan saylangan vakillar (deputatlar)ning oʻzaro kengashib boshqarishi tartibi joriy etilganligini anglatadi.

Savol va topshiriqlar



1. Nega Rossiya imperiyasi yurtimizni bosib olishni rejalashtirgan?
2. Nima sababdan Rossiya imperiyasi oʻzbek davlatlarini boʻysindirishga erisha olgan?
3. Buxoro amirligi va Xiva xonligining tobe davlatlarga aylantirilganligi haqida soʻzlab bering.
4. Nega Qoʻqon xonligi tugatib yuborilgan?
5. Turkiston aholisining milliy-ozodlik kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Yurtimizda sovet mustamlakachiligi qay tariqa oʻrnatildi?
7. Yurtimizda milliy ozodlik uchun kurashda qurbon boʻlganlar xotirasini abadiylashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?



VIII bob. O‘ZBEKISTONNING QADIMGI SHAHARLARI, TARIXIY YODGORLIKLARI

36-§. O‘ZBEKISTONNING TARIXIY SHAHARLARI



Samarqand shahri. Samarqand O‘zbekistonning eng qadimgi shahridir.

Yodda tuting!

2007-yilda Samarqandning 2750 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Samarqand shahri Vatanimizning yuksak mukofoti – «Amir Temur» ordeni bilan taqdirlandi.¹



«Amir Temur» ordeni.

Sug‘d yozma manbalarida shahar Smarakand nomi bilan qayd etilgan. Qadimgi Yunoniston tarixchilari esa Samarqandni Marokand nomi bilan yozib qoldirganlar. Marokand dastlab atrofi mudofaa devori bilan o‘ralgan qal‘a-qo‘rg‘on edi.

Samarqand miloddan avvalgi IV asrdan Sug‘d davlatining poytaxti bo‘lgan. Keyinchalik chet ellik bosqinchilarning hujumi natijasida shahar bir necha bor vayron etildi.

Samarqandning gullab-yashnashi, dunyoning eng mashhur va go‘zal shaharlaridan biriga aylanishi buyuk bobomiz Amir Temur nomi bilan bog‘liqdir.

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. – T.: «Sharq» NMAK. 2011. 412-bet.

Samarqand Amir Temur saltanatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo‘ldi va «abadiy shaharlar» qatoriga qo‘shildi.

Yodda tuting!

Samarqand nihoyatda go‘zal shaharga aylantirilganligi uchun «Dunyo-ning husni» deb ham ulug‘langan.

Samarqandda 70 dan ortiq yirik tarixiy me‘moriy yodgorliklar mavjud. Bu yodgorliklar 2001-yilda xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan «Jahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritildi.

Davlatimiz mustaqilligi yillarida O‘zbekistonning eng qadimgi shahri bo‘lgan Samarqandning qiyofasi yanada go‘zallashdi.



O‘zingizni sinang

◆ «Abadiy shahar» — ◆ «Dunyoning husni» —

Buxoro shahri. Buxoro ham O‘zbekistonning eng qadimiy va hamisha navqiron, mashhur shaharlari qatorida turadi. 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

Ayrim tarixchi olimlarning taxminicha, shaharning nomi «Tangri jamoli» degan ma‘noni anglatadi. Buxoroni ajdodlarimiz «Ezgulik shahri» deb ham ataganlar. Buxoro dastlab IX–X asrlarda, keyin XVI asrdan boshlab poytaxt maqomiga ega bo‘ldi.



Buxoro arki.

Bugungi kunda Buxoro shahrida yuzdan ortiq yirik tarixiy me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Buxoro arki (hukmdorlar qarorgohi), Ismoil Somoniy maqbarasi, Minorayi Kalon, Mir Arab va Ulug'bek madrasalari kabilar ularning eng mashhurlaridir.

Qadimgi Buxoro ayni paytda navqiron shahar hamdir. Mustaqillik yillarida shaharning ko'rinishi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Shahar yanada go'zallashdi. Ayniqsa, 107 gektardan iborat «Buxoro madaniy markazi» O'zbekistonning har bir fuqarosida Vatan bilan faxrlanish hissining yanada ortishiga xizmat qilmoqda. 2010-yilda bu markazda «Ko'hna va boqiy Buxoro» monumenti bunyod etildi.

Xiva shahri. Xiva hozirgi Xorazm viloyatidagi shahar. U yosh jihatdan Buxoro bilan tengdosh. 1997-yilda Xivaning ham 2500 yilligi nishonlandi. Shahar Sharqning durdonasi hisoblanadi. Unga nisbatan «Ming gumbaz shahri» iborasi ham ishlatiladi. Xiva Ichan qal'asi oldingi holati butunligicha saqlanib qolgan yagona shahar bo'lganligi uchun 1967-yildayoq qo'riqxon-shahar deb e'lon qilindi. 1990-yilda esa «Jahon madaniy merosi» ro'yxatiga kiritildi.

Ba'zi olimlarning fikricha, shaharning nomi «qumloqdan iborat joy», «qal'a» ma'nolarini anglatadi. Xiva XVII asr boshlarida Xiva xonligining poytaxtiga aylandi. Shaharning bu maqomi 1920-yilgacha davom etdi. Ilgarigi zamonlarda Xivaning butun tevarak-atrofi suvli xandaq bilan o'rab olingan edi. Shaharga maxsus qurilgan ko'priklar orqali kirilgan. Bu ko'priklar kechalari ko'tarib qo'yilgan.

Shahrisabz shahri. Shahrisabz hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz tumanining markazidir. Shahar o'tmishda Kesh nomi bilan atalgan. Yam-yashil bog'lar va ko'zga quvonch baxsh etuvchi gulzorlari bilan kishilarni maftun etganligi uchun Shahrisabz (yashil shahar) nomi berilgan. Bu shaharga yaqin Xoja Ilg'or qishlog'ida buyuk bobomiz Amir Temur tug'ilgan. Amir Temur davlatiga kelgan Ispaniya qirolligi elchisi Klavixo o'z esdaliklarida shaharda ko'plab mahobatli binolar va masjidlar qurilganligini, ularning eng mashhuri Oqsaroy ekanligini qayd etgan.

Afsuski bu mahobatli va go'zal Oqsaroy yodgorligi to'la saqlanib qolmagan. Shunday bo'lsa-da Mustaqillik yillarida saroyda katta ta'mirlash ishlari o'lib borildi. 1996-yilda Shahrisabz Amir Temur



Qqsaroyning bugungi holati.

bobomiz tavalludining 660 yilligi munosabati bilan «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlandi. Shaharda buyuk bobomizning mahobatli haykali oʻrnatildi. 2002-yilda shaharning 2700 yilligi nishonlandi va Shahrisabz «Jahon madaniyati merosi» roʻyxatiga kiritildi.¹

Qarshi shahri. Shahar dastlab Naxshab, keyinchalik Navtaka va Nasaf nomlari bilan atalgan. XIV asrdan boshlab esa Qarshi deb atala boshlangan. «Qarshi» soʻzi saroy, qasr maʼnolarini bildiradi.

Yodda tuting!

«Naxshab» — suv obod qilgan manzil, «Navtaka» esa yangi bino degan maʼnolarni anglatadi. Arablar Naxshabni «Nasaf» deb talaffuz qilganlar.

Shahar milloddan avvalgi VII asrda bunyod etildi.

Qarshi shahri bugungi kunda Qashqadaryo viloyatining markazidir. Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida Qarshi shahrida ham katta

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. — T.: «Sharq» NMAK. 2011. 394-bet.

bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. 2006-yilda shaharning 2700 yilligi nishonlandi.¹

Termiz shahri. O‘zbekistonning yana bir qadimgi shahri Termizdir. Bu nom qadimgi baqtriya tilida «narigi sohildagi manzil» degan ma’noni bildiradi. Shahar O‘rta Osiyoning yirik hunarmandchilik va savdo markazi bo‘lgan. O‘tmishdagi Buyuk ipak yo‘lining markazida joylashgan bu shahar turli xalqlarni va ularning madaniyatini o‘zaro bog‘lab turgan. Dunyoga mashhur allomalar, muhaddis Imom at-Termiziy va sufiylik faylasufi Hakim at-Termiziylar ham shu zaminda tug‘ilshgan. Shahar o‘z tarixida bir necha bor bosqinchilar hujumiga uchradi va vayron qilindi. Termiz shahri bugungi kunda Surxondaryo viloyatining markazidir. 2002-yilda shaharning 2500 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. 2014-yilda esa «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlandi.

O‘zingizni sinang



- ◆ 2500 yilligi nishonlangan shaharlar
- ◆ «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlangan shaharlar
- ◆ Mamlakat poytaxti bo‘lgan shaharlar

Atamalar mazmunini bilib oling



Muhaddis — hadislarni to‘plash, saralash va sharhlash bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

Savol va topshiriqlar



1. Samarqand shahri haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Buxoro shahri haqida olgan bilimlaringizni so‘zlab bering.
3. Buxoro va Xiva shaharlari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslang: o‘xshash va o‘ziga xos tomonlarini aniqlang.
4. Samarqand va Buxoro shaharlari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslang: o‘xshash va o‘ziga xos tomonlarini aniqlang.
5. Shahrisabz, Qarshi va Termiz shaharlari tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL ISH

(Jadvalni to‘ldiring)

Shaharlar	Shahar nomining ma’nosi	Shaharga nisbatan ishlatilgan o‘xshatmalar	Poytaxtlik maqomiga egalik davri	Shahar yubileyleri nishonlangan yillar
Samarqand				

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. — T.: «Sharq» NMAK. 2012. 410-bet.

Buxoro					
Xiva					
Shahrisabz					
Qarshi					
Termiz					

37-§. O‘ZBEKISTON POYTAXTI TOSHKENT – 2200 YOSHDA



Toshkentning qadimgi o‘rni. Bugungi Toshkent shahri 2200 yillik tarixga ega. Arxeolog olimlar uzoq yillik izlanishlardan so‘ng Toshkent shahrining qadimgi o‘rni hozirgi temiryo‘l vokzali yaqinida, Salar kanali sohilida joylashganligini aniqladilar. Bu joy «Ming o‘rik» va «Ming o‘rik tepa» nomlari bilan atalgan. Shaharning bunday nomi bilan atalganligiga bu joyda katta o‘rikzor barpo etilganligi sabab bo‘lgan. Shahar VI asrda Choch (Toshkent) viloyatining markaziga aylangan.

«**Toshkent**» **atamasi haqida.** Milodning dastlabki asrlariga oid Xitoy manbalarida Toshkent «Shi» nomi bilan tilga olinadi. Bu nom «Tosh shahar» degan ma‘noni anglatadi. Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» nomli kitobida «Toshkent» atamasini ishlatgan. Shahar arablar tasarrufiga o‘tgach, arab alifbosida «ch» harfi yo‘qligi sababli «Choch» «Shosh», «Shoshkent», «Madinat ash-Shosh», «Binkat» nomlari bilan atalgan. Shahar atrofi kuchli mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Arablargacha bo‘lgan davrda shahar ichi ark va shahristonga ajratildi. Arkda hukmdor saroyi va ibodatxona joylashgan. Shaharning amaldorlar yashaydigan qismi shahriston, hunarmandlar yashaydigan qismi esa rabot deb ataldi.

Toshkent xalqaro savdo karvon yo‘lida joylashganligi tufayli shaharda hunarmandchilikning turli sohalari yuksak taraqqiy etdi.

Arxeolog olimlar shahar hududidan turli mamlakatlarning tanga pullarini topishdi. Bu esa Toshkentning qizg‘in savdo markazi ham bo‘lganligini tasdiqlaydi.



O‘zingizni sinang

◆ Ming o‘rik –

◆ Binkat –



Toshkent shahri gerbi.

Toshkent – mustaqil O‘zbekiston davlatining poytaxti. Toshkentning poytaxtlik maqomi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 6-moddasida ham yozib qo‘yildi. Toshkent shahri bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyoning, ayni paytda dunyoning ham eng go‘zal shaharlaridan biriga aylanmoqda.

Mustaqillik va ulkan bunyodkorlik. Poytaxtimizdagi bu o‘zgarishlar mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarining natijasidir.

1991-yilda shaharda barpo etilgan Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy bog‘i bu bunyodkorlikning debochasi bo‘ldi. Bog‘da bobomizning purviqor haykali ham o‘rnatilib, u diyorimizning eng go‘zal va asosiy sayilgohiga aylandi.

Har yili yurtimizda nishonlanayotgan «Mustaqillik kuni» va Navro‘z bayramlariga bag‘ishlangan respublika tantanalari shu bog‘da o‘tkazilmoqda.



Mustaqillik va ezigulik monumenti.

Bosh maydonimiz – Mustaqillik maydonida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari hammamizning ko‘nglimizni faxr va g‘ururga to‘ldirdi. 1992-yilda maydonda o‘rnatilgan Mustaqillik monumentida O‘zbekiston xaritasi tasviri tushirilgan. Bu tasvir jahonda O‘zbekistondek mustaqil davlat borligini anglatib turadi. Uni ko‘rgan vatandoshlarimiz esa milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini his etadilar.

2005-yilda bu monument oldidan «Baxtiyor ona» siymosi joy oldi va Mustaqillik monumenti endi «Mustaqillik va ezigulik monumenti» deb ataladigan bo‘ldi.



Ezgulik arkasi.

«Mustaqillik va ezgulik monumenti»ga yo‘l «Ezgulik arkasi» dan boshlanadi.

Uning tepasiga o‘rnatilgan oppoq laylak tinchlik va farovonlikning, qanot qoqayotgan turnalar esa — davlatimiz buyuk kelajak sari parvoz qilayotganligining timsolidir.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi binosi.



Oliy Majlis Senati binosi.

«Baxtiyor ona» haykali esa davlatimizda oila qoʻrgʻonining charogʻboni boʻlgan ayollarga koʻrsatilayotgan yuksak eʼtibor va ehtiromning yorqin ifodasidir. Uni ziyorat qilgan kishi farzandini bagʻriga bosib turgan baxtiyor Ona siymosida oʻz onasini, begʻubor bolaligini koʻrgandek boʻladi.

Shahar markazidagi eng katta xiyobon Amir Temur nomi bilan atalib, 1993-yilda bu yerda Sohibqironga haykal oʻrnatildi.¹ Haykal xalqimizga faxr va gʻurur baxsh etib turibdi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari uchun qurilgan binolar, Amir Temur xiyobonining quyosh chiqish tomonida qurilgan muhtasham «Oʻzbekiston xalqaro anjumanlar saroyi», Alisher Navoiy nomli Milliy kutubxona va Maʼrifat markazi binosi, Hazrati Imom (Xasti Imom) majmuasi va 2014-yilda qurilgan «Minor» masjidi kabi meʼmorchiligimizning mashhur namunalari oʻzining goʻzalligi va salobati bilan poytaxt koʻrkiga koʻrk bagʻishlab turibdi. Taʼlim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha xalqaro islom tashkiloti 2007-yilda Toshkent shahrini «Islom madaniyati poytaxti» deb eʼlon qildi.

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. — T.: «Sharq» NMAK. 2012-y. 329-bet.

Xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan 2009-yilda Toshkentning 2200 yilligi nishonlanib, davlatimizning oliy ordeni – «Mustaqillik» ordeni bilan mukofotlandi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov yubiley tantanalarida so‘zlagan nutqida Toshkentni: «Tarixi boy, buguni go‘zal, kelajagi buyuk shahar», deb atadi.



«Mustaqillik» ordeni.

Atamalar mazmunini bilib oling



Binkat – uzoqdan ko‘rinib turuvchi shahar.

Savol va topshiriqlar



1. Sizingcha olimlar Toshkent shahrining 2200 yoshda ekanligini qanday aniqlaganlar?
2. Toshkentning o‘tmish tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. «Toshkent» atamasi va Toshkentning turli davrlarda qanday nomlar bilan atalganligi haqida so‘zlab bering.
4. O‘zbekiston mustaqilligi yillarida Toshkent shahrida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?


38–39-§. O‘ZBEKISTONNING TARIXIY-ME’MORIY YODGORLIKLARI




Ismoil Somoniy maqbarasi. Buxoro shahrining madaniyat va istirohat bog‘i hududida Ismoil Somoniy maqbarasi qad ko‘tarib turibdi. U IX asrda Movarounnahrning mashhur hukmdori Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan. Maqbaraning to‘rt tomoni ham deyarli bir xil o‘lchamli va bir xil ko‘rinishdadir. Pishiq g‘ishtdan ko‘tarilgan ushbu maqbaraning devori ko‘rinishidan bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Maqbaraning usti gumbaz bilan qoplangan. Gumbaz atrofiga to‘rtta qubba o‘rnatilgan.

Minorayi Kalon. Minorayi Kalon (Katta minora) Buxoro shahrida bunyod etilgan eng go‘zal me‘moriy yodgorliklardan biri. Uni Movarounnahr hukmdori Arslonxon 1127-yilda qurdirdi.¹

¹ Q. Rajabov va bosh. JTMS. – T.: «Sharq» NMAK. 2012. 75-bet.



Ismoil Somoni maqbarasi.



Minorayi Kalon.

Minoraning poydevori yer sathidan 9 metr chuqurlikda bunyod etilgan.

U tosh va maxsus qorishmadan ko‘tarilgan. Balandligi 50 metr bo‘lgan minora pishgan g‘ishtdan terilgan bo‘lib, yuqori qismiga atrofni kuzatish maqsadida 16 ta darcha ochilgan. Minora tepasiga uning ichiga qurilgan 104 ta aylanma zina orqali chiqilgan. Minorayi Kalon hamon savlat to‘kib, qad ko‘tarib turibdi.

Registon majmuasi. Registon deyilganda Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, O‘zbekistonda ham shaharning markaziy maydoni tushunilgan. Tarixda bunday maydonlarda turli tadbirlar – bayramlar, sayllar, tomoshalar o‘tkazilgan. Maydon o‘yilib ketmasligi uchun uning ustiga mayda tosh yotqizilgan.

Keyinchalik Registon maydonida Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat me‘moriy majmua bunyod etildi.

Ulug‘bek madrasasi XV asrda qurildi. U ikki qavatli bo‘lib, atrofi hujra va darsxonalar bilan o‘ralgan. Madrasalarning qolgan ikkitasi – Sherdor va Tillakori madrasalarini XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir qurdirgan. Sherdor madrasasi Ulug‘bek mad-



Registon me'moriy majmuasi.

rasasining ro'parasida joylashgan. Madrasa to'rt burchakli va ikki qavatli qilib qurilgan. Peshtoqqa qizg'ish zarhal tusli sher oq ohuni quvib borayotgani tasvirlangan. Quyosh esa bodomqovoq, qiyiq ko'zli qilib tasvirlangan. Peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan.

Tillakori (tilla bilan ishlangan) madrasasi dastlab Yalangto'shbiy kichik madrasasi deb nomlandi. Madrasa binosidan o'rin olgan masjidning bezagiga ko'p miqdorda oltin sarflangani uchun madrasa Tillakori nomini oldi.

Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan Tillakori madrasasida ham katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda Registon maydonida mashhur «Sharq taronalari» xalqaro musiqiy festivallari o'tkazilib kelinmoqda. Bu xalqaro festivalning ahamiyati haqida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bunday degan edi: «Sharq taronalari» musiqa festivali xalqlarimiz madaniyatlarini o'zaro boyitadi..., xalqlarimizni ... bir-biriga yaqinlashtiradi».

Oqsaroy. Oqsaroy obidasi hozirgi Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida joylashgan. Uni buyuk bobomiz Amir Temur o'z

onasining sharafiga qurdirgan. Obida naqshlariga berilgan ranglar oy yorug'ida jilolanib, oqarib turganligi uchun Oqsaroy deb atalgan. U o'z davrining eng go'zal va salobatli me'moriy inshooti edi. Bu obida tepasiga aylanma zinalar orqali chiqilgan. Oqsaroy devonxonasi peshtoqiga Quyosh, Arslon va Amir Temur davlatining uch halqa shaklidagi tasviri tushirilgan. Ayniqsa, Oqsaroy tomi tepasiga barpo etilgan hovuz saroyning eng noyob jihati edi. Bu hovuzga suv dovondan qo'rg'oshin quvurlar orqali olib kelingan. Hovuzdagi ortiqcha suv sharshara hosil qilish yo'li bilan pastga oqizilgan. Hozirda Oqsaroy me'moriy majmuasi restavratsiya qilinib (qayta tiklanib) markaziy maydonda Amir Temur haykali o'rnatildi.

Oqsaroyning go'zalligi va salobati hatto chet elliklarni ham hayratga solgan.

E'tibor bilan o'qing!

Hatto mohir ustalari jahonga mashhur bo'lgan Parijda ham bu ish juda go'zal hisoblangan bo'lar edi.

Gonzales de Klavixo – Ispaniya qirolligi elchisi.

O'z davrida dunyoni lol etgan Oqsaroydan hozirgi kunda ulkan peshtoqning ikki chekkasidagi minora va poydevorining bir qismigina saqlanib qolgan, xolos.

Ichan qal'a. Jahonning durdona yodgorliklaridan biri bo'lgan Ichan qal'a Xiva shahrining ichki qismidir. U o'tmishda ajdodlarimiz mohirlik bilan bunyod etgan 54 ta noyob tarixiy-me'moriy obidalar majmuasiga kiradi. Bu majmua Ko'hna Ark (arxonona), madrasa, masjid, maqbaralar va boshqa shu kabi inshootlarni o'z ichiga oladi. Dunyoda bunday noyob va go'zal obidalar bilan saqlanib qolgan shaharlar juda kam.

Shuning uchun ham 1961-yildayoq Ichan qal'a majmuasi muzeyga aylantirildi. Bu muzey-qo'riqxonaning maydoni 26 gektarni tashkil etadi. 1990-yilda esa xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan Ichan qal'a «Jahon madaniyati merosi» ro'yxatiga kiritildi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Maqbara — vafot etgan kishining jasadi qo'yiladigan me'moriy inshoot.



Ichan qal'a majmuasi.

Minora — pastdan yuqoriga qarab kichrayib boradigan tarzda qurilgan baland inshoot. Minoralar, asosan, masjid va madrasalar yonida qurilgan. Minoralar din vakilining azon aytishi va shahardagi me'moriy majmualarga ko'rk, salobat berish hamda uni qurdirgan kishining kuch-qudratini namoyish etish uchun qurilgan.

Registon (mayda tosh to'shalgan joy) — Sharq mamlakatlarida shaharning markaziy maydoni.

Savol va topshiriqlar



1. *Ismoil Somoniy maqbarasi va Minorayi Kalon haqida so'zlab bering.*
2. *Oqsaroy haqida nimalarni bilib oldingiz?*
3. *Ichan qal'aning muzey-qo'riqxonaga aylantirilganligi va Jahon merosi ro'yxatiga kiritilganligi nimani anglatadi?*

MUSTAQIL ISH

Siz yashayotgan hududda qanday tarixiy yodgorliklar borligini aniqlab keling.

IX bob. INSONIYAT TARIXIDAGI JAHON URUSHLARI



40-§. BIRINCHI JAHON URUSHI



Urushning sabablari. Urushlarning hammasi dahshatli. Ammo ularning ichida eng dahshatlisi jahon urushlari bo‘ldi. Chunki bu urushlarda dunyoning ko‘plab davlatlari ishtirok etishdi. Bino-barin, qirg‘in va vayronagarchilik, xalqlar boshiga tushadigan azob-uqubatlar ham shunchalik ko‘p bo‘lgan. Insoniyat bugungi kungacha ikkita jahon urushini boshidan kechirdi. Ularning birinchisi 1914-yilda boshlanib, 1918-yilda tugadi.

Xo‘sh, bu urushning sabablari nimalardan iborat edi? Qudratli davlatlar 1914-yilgacha dunyoning kuchsiz davlatlari hududlarini bosib olib, ularni o‘z mustamlakalariga aylantirib bo‘ldi. Buyuk Britaniya (Angliya), Fransiya va Rossiya imperiyasi dunyoning eng yirik mustamlakachi davlatlariga aylanishdi.

Yodda tuting!

Boshqa davlatlar hududlarini zo‘rlik yo‘li bilan bosib olgan davlatlar mustamlakachi davlatlar deyiladi.

Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiyaning mustamlakalari esa kamroq edi. Germaniya buni bahona qilib dunyoni qayta bo‘lishni talab eta boshladi.

Avstriya-Vengriya da‘vo qilayotgan hududlar, asosan, Rossiya ta‘siri ostida, Italiya da‘vo qilayotgan hududlar esa Fransiya ixtiyorida edi. Shuning uchun ham ular Germaniyani qo‘llab-quvvatladilar. Buyuk

Britaniya, Fransiya va Rossiya Germaniyaning talablarini rad etishdi. Natijada Yevropaning qudratli davlatlari oʻrtasidagi ziddiyatlar yanada kuchaydi. Oxir-oqibatda ular bir-biriga dushman boʻlgan ikkita ittifoqqa birlashdilar. Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiyani birlashtirgan birinchi ittifoq «Uchlar ittifoqi», Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiyani birlashtirgan ittifoq esa «Antanta» deb ataldi.

Yodda tuting!

«Uchlar ittifoqi» va «Antanta» oʻrtasida dunyoni qaytadan boʻlib olishga urinish – Birinchi jahon urushining asosiy sababi boʻldi.

Urushning boshlanishi va uning natijalari. Birinchi jahon urushi 1914-yilning yozida Avstriya-Vengriyaning Serbiyaga hujum qilishi bilan boshlanib ketdi. Bunga javoban Rossiya Avstriya-Vengriyaga, Germaniya Rossiya va Fransiya, Buyuk Britaniya esa Germaniyaga urush eʼlon qildi.

Shu tariqa Yevropani Birinchi jahon urushi alangasi qoplab oldi. Urush bora-bora dunyoning 38 davlatini oʻz domiga tortdi.

Urush boshlangach «Antanta» katta vaʼdalar evaziga Italiyani oʻz tomoniga ogʻdirib olishga erishdi.

Birinchi jahon urushida mutlaqo yangi qurollar – suvosti kemasi, xlorli gaz va tanklar qoʻllanildi.

Germaniya suvosti kemalari hatto yoʻlovchi tashuvchi kemalarga ham hujum qildi. Jumladan, 2000 dan ortiq yoʻlovchisi boʻlgan «Luzitaniya» kemasi shulardan biri edi. Hujum oqibatida ularning koʻpchiligi halok boʻldi.



Tanklar.



«Luzitaniya» kemasi-ning choʻkishi.

Birinchi jahon urushi 1918-yilning kuzida Germaniya va ittifoqchilarining magʻlubiyati bilan tugadi. Bu magʻlubiyat oqibatida Germaniya, Avstriya-Vengriya va Usmoniylar imperiyalari parchalandi. Germaniyada imperator taxtdan agʻdarildi. U chet elga qochib ketishga majbur boʻldi. Buyuk Britaniya va Fransiya magʻlublarning mustamlakalariga ega boʻlib oldi. Biroq urush ularni zaiflashtirib ham qoʻydi.

Rossiyada esa uch yuz yildan ortiq hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining hokimiyati 1917-yilda barham topdi. 1917-yilda urushga qoʻshilgan AQSH urush qatnashchilariga qurol-yarogʻ sotish va qarz berish evaziga katta boylik orttirdi.

U hatto dunyoning eng yirik mustamlakachi davlati Buyuk Britaniyani ham qarzdor qilib qoʻydi va dunyoning yetakchi davlatiga aylandi.

Oʻzingizni sinang



- ◆ «Uchlar ittifoqi»ga
- ◆ «Antanta» – bu
- ◆ Birinchi jahon urushi ... boshlandi.

Urushning insoniyat uchun fojiali oqibatlari. Toʻrt yildan ortiq davom etgan bu dahshatli urush dunyo xalqlariga juda katta fojialar keltirdi. Urushda 10 million kishi halok boʻldi. 20 million kishi esa yarador, mayib-majruh boʻlib qoldi. Davlatlar juda katta miqdorda moddiy talafot koʻrdilar.

Savol va topshiriqlar



1. Qanday sabablar Birinchi jahon urushining yuz berishiga olib keldi?
2. Urushning kelib chiqishiga asosiy aybdor boʻlgan davlatlar guruhlarini qayd eting.
3. Urush qanday holatda boshlandi va u qanday yakun topdi?
4. Urushning natijalari va fojiali oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL ISH

(Jadvalni to'ldiring)

Birinchi jahon urushi kelib chiqishiga sababchi bo'lgan davlat guruhlari	Urushning boshlangan va tugagan yillari	Urushning Germaniya va uning ittifoqchilari uchun oqibatlari	Urushning Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya imperiyasi uchun oqibatlari	Urushning AQSH uchun oqibatlari	Urushning dunyo xalqlariga keltirgan fojialari

41-§. BIRINCHI JAHON URUSHI VA TURKISTON



Urushning Turkistonga ta'siri. Birinchi jahon urushi Vatanimiz Turkistonni ham chetlab o'tgani yo'q. Chunki Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasi edi. Turkiston hududida urush harakatlari olib borilmadi. Biroq urush yillarida mustamlakachi Rossiyaning Turkiston mahalliy aholisiga o'tkazayotgan zulmi yanada kuchaydi. Chunonchi, urush ehtiyojlari uchun deb aholidan olinadigan soliqlar miqdori ko'paytirildi. O'lkadan olib ketiladigan paxta, don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdori ortdi.

Bu ham yetmaganidek, 1916-yilda Rossiya imperatori Nikolay II farmoniga ko'ra, Turkistonning 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkak aholisi mardikorlikka safarbar etila boshlandi. Ular Rossiyaga borib qo'shin uchun mudofaa inshootlari, temir yo'llar qurish kabi ishlarda qatnashishlari lozim edi. Mardikorlikka olish natijasida ko'plab oilalar o'z boquvchilaridan ajrab qoldi. Qishloq xo'jaligi esa inqirozga yuz tuta boshladi. Imperatorning qarori Turkiston aholisining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Bu esa oxir-oqibatda xalq qo'zg'oloni boshlanishiga olib keldi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Xalq qo'zg'oloni butun Turkiston o'lkasini qamrab oldi. Joylarda mustamlakachilarning askarlari bilan qonli to'qnashuvlar yuz berdi. Toshkentda boshlangan qo'zg'olon

qatnashchilari Beshyog‘ochdagi politsiya mahkamasi oldida to‘plandilar.

Qo‘zg‘olonning faol ishtirokchisi Rizvonbibi Ahmadjonova amaldorlariga qarata: «Bizni o‘ldirsanglar ham o‘g‘illarimizni bermaymiz», — deb baralla aytdi. Politsiyachilar Rizvonbibiga qarata o‘q uzishdi. Bundan g‘azablangan xalq politsiya mahkamasini bosib oldi. Politsiyachilarga yordamga kelgan askarlar o‘ndan ortiq qo‘zg‘olonchini otib tashladi. Shunday vahshiyona usul bilan qo‘zg‘olon bostirildi.

Jizzax qo‘zg‘oloni. Mardikorlikka olish to‘g‘risidagi farmondan norozilik, ayniqsa, Jizzaxda keskin tus oldi. Jizzaxdan jami 11 ming kishi mardikorlikka jo‘natilishi kerak edi. Jizzaxliklar mardikorlikka olish to‘g‘risidagi farmonni bekor qilishni va mardikorlikka olinadiganlarning ro‘yxatini tuzishni to‘xtatishni talab qilib chiqdilar. Biroq bu talab rad etildi. Oqibatda qudratli qo‘zg‘olon yuz berdi.



Politsiyaning Rizvonbibiga o‘q uzishi.

Aslida bu milliy-ozodlik kurashi ham edi. Qo‘zg‘olonga Nazirxo‘ja Abdusalomov va Abdurahmon jevachilar rahbarlik qildilar.

Biroq kuchlar teng emas edi. Oqibatda qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchradi. Mustamlakachilar qo‘zg‘olonchilar va ularning rahbarlarini ayovsiz jazoladi. Qo‘zg‘olon ko‘targan qishloqlarga o‘t qo‘yildi. Hatto qo‘zg‘olonchilarning oila a‘zolariga ham shafqat qilinmadi.

Qo‘zg‘olon rahbarlari esa o‘lim jazosiga hukm qilindi. Qolgan ishtirokchilar turli muddatlarga qamoqqa va surgunga jo‘natildi.

Qo‘zg‘olonchilarga xayrixoh bo‘lganlik yoki ularni tutib olishda yordam bermaganlikda ayblanganlar cho‘lga haydab yuborildi.



O‘zingizni sinang

◆ Mardikorlik — bu ...

◆ 1916-yilgi qo‘zg‘olon ... edi.

Qo‘zg‘olonning yengilish sabablari va ahamiyati. Qo‘zg‘olonchilar mustamlakachilarga qarshi kurashda hech qanday tajribaga ega emas edilar. Ular hech qanday maxsus tayyorgarlikdan o‘tmaganlar ham. Ularning qurollari, asosan, ketmon, panshaxa va tayoqlardan iborat edi.

Mustamlakachilarning askarlari esa zamonaviy qurol-yarog‘ bilan ta‘minlangan edi. Qolaversa, qo‘zg‘olonga oldindan puxta tayyorlanilmadi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘zg‘olon ishtirokchilari mustamlakachilar tomonidan poymol qilingan haq-huquqlarini tiklash uchun kurashdilar. Vatanning fidoyi farzandlari ekanligini ko‘rsatdilar. Kuchlar noteng bo‘lgan jangda ko‘rsatgan jasoratlari bilan Vatanimiz tarixida o‘chmas nom qoldirdilar.

1916-yilgi milliy-ozodlik harakati Rossiya imperiyasini qattiq sarosimaga solib qo‘ydi. Uning Turkistondagi kuch-qudratini zaiflashtirdi.

Qo‘zg‘olon Turkiston aholisini mardikorlikka safarbar etish to‘g‘risidagi farmonning to‘la bajarilishiga yo‘l qo‘ymadi. Natijada mardikorlikka rejadagidan ikki barobar kam — jami 120 mingdan ortiq kishi yuborildi. Ular Rossiyaning turli burchaklarida og‘ir mehnatdan, ochlikdan, xorlikdan mislsiz azob chekdi. Ko‘plari qattiq sovuqdan va turli kasalliklardan o‘lib ketdilar. Bir qismi esa umrbod nogiron bo‘lib qoldi.

Qo‘zg‘olon vatandoshlarimizning o‘z haq-huquqlari uchun kurasha olishi mumkinligini isbotladi. Mustamlakachi hukumatga ozodlik va mustaqillik uchun kurash tuyg‘ulari hech qachon so‘nmasligini yana bir bor ko‘rsatib qo‘ydi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Jevachi — qurol-aslahalar saqlanadigan omborxonada mudiri.

Mardikor — vaqtincha ishga yollanuvchi ishchi.

Savol va topshiriqlar



1. Birinchi jahon urushi nega Turkistonga ta'sir etmay qolmadi?
2. Mardikorlikka safarbarlik nima edi?
3. 1916-yilning yozida Turkistonda boshlangan milliy-ozodlik qo‘zg‘olonining sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Nega 1916-yilgi milliy-ozodlik qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchradi?
5. 1916-yilgi milliy-ozodlik qo‘zg‘olonining tarixiy ahamiyati haqida so‘zlab bering.

42-§. IKKINCHI JAHON URUSHI



Ikkinchi jahon urushining sabablari. 1933-yilda Germaniyada nemislarning boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilishini da‘vo qiluvchilar hokimiyat tepasiga kelishdi.

Ularning yo‘lboshchisi Adolf Gitler mamlakatda o‘zining yakka hukmronligini o‘rnatdi.

U o‘z oldiga Birinchi jahon urushidagi mag‘lubiyat uchun g‘oliblardan o‘ch olish, dunyoni qayta bo‘lish, butun Yevropani bo‘ysundirish, so‘ngra dunyoda hukmron bo‘lib olish maqsadini qo‘ydi. Bu mudhish maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun zo‘r berib yangi urushga tayyorgarlik ko‘rdi. Italiya va Yaponiya bilan o‘zaro ittifoq tuzdi. Tez orada o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga kirishdi.

Chunonchi, 1939-yilning 1-sentabrida Germaniya Polshaga hujum qildi. Bunga javoban Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e‘lon qildilar. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. Buyuk Britaniya, Fransiya va sobiq Sovet Ittifoqi o‘zaro qarama-qarshiliklar va ishonchsizliklar tufayli urushning oldini ola olmadilar.

Yodda tuting!

Gitler Germaniyasining dunyoda hukmron bo'lib olishga intilishi Ikkinchi jahon urushining asosiy sababi bo'ldi.

Buyuk Britaniya va Fransiya Polshani saqlab qolish uchun qat'iy choralar ko'rmadi. Oqibatda Polsha 17 kunda taslim bo'ldi.

Urushning borishi. Urush boshlangach, Germaniya juda qisqa muddat ichida deyarli butun G'arbiy Yevropa davlatlarini bosib oldi.

1940-yilda hatto Fransiyaning ham tormor etdi. Uning navbatdagi maqsadi Buyuk Britaniya va sobiq Sovet Ittifoqini bo'ysundirish edi. Biroq, Buyuk Britaniyaning harbiy-dengiz floti va harbiy havo kuchlari qudratli bo'lganligi uchun uni bosib ololmadi. Shuning uchun Gitler avval sobiq Sovet Ittifoqini bosib olishga qaror qildi va 1941-yilning 22-iyunida unga hujum qildi.

Dekabr oyida esa Yaponiya Tinch okeanida AQSHga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi.

Gitler Sovet Ittifoqini juda qisqa vaqt ichida zabt etishni rejalashtirgan edi.

Germaniya qo'shini dastlab shiddat bilan birin-ketin zafar quchib olg'a siljidi. Sobiq Sovet Ittifoqi poytaxti Moskva shahrining bosib olinishiga oz qoldi. Biroq sobiq Sovet Ittifoqi qo'shini mardonavor qarshilik ko'rsatdi. Natijada Gitlerning Sovet Ittifoqini qisqa muddat ichida bosib olish rejasi barbod bo'ldi. Tarkibida o'zbekistonlik jangchilar ham bo'lgan sobiq Sovet Ittifoqi qo'shinining qaqshatqich zarbalari ostida Germaniya qo'shini chekinishga majbur bo'ldi. Ayni paytda sobiq Sovet Ittifoqi, AQSH va Buyuk Britaniya Germaniyaga qarshi urushda o'zaro hamkorlik qilish haqida kelishuvga erishdilar. Shu tariqa Gitler Germaniyasiga qarshi ittifoq vujudga keldi. AQSH va Buyuk Britaniyaning birlashgan qo'shini Germaniyaning ittifoqchisi Italiyani



Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq Sovet Ittifoqi ishlatgan qurol – katyusha.



Germaniyaning taslim bo‘lganligi haqida hujjat imzolanmoqda.

taslim bo‘lishga majbur etdi. Sobiq Sovet Ittifoqi qo‘shini 1944-yilda o‘z hududidan Germaniya qo‘shinini butunlay quvib chiqardi. Ittifoqchi davlatlarning Germaniyani taslim etishi muqarrar bo‘lib qoldi. 1945-yilda Adolf Gitler va uning ayrim safdoshlari o‘z jonlariga qasd qildilar.

Nihoyat, 1945-yilning 8-may kuni Germaniya ittifoqchi davlatlar oldida so‘zsiz taslim bo‘ldi. Bu haqda tegishli hujjat ham imzolandi.

Sobiq Sovet Ittifoqi hukumati fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga 9-may kunini «G‘alaba kuni» deb e‘lon qildi.

2-sentabr kuni Yaponiyaning taslim bo‘lganligi haqidagi hujjat imzolandi. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushi uni boshlagan davlatlarning mag‘lubiyati bilan tugadi.

Urushning fojiali oqibatlari. Ikkinchi jahon urushi urushlar tarixidagi eng dahshatli urush bo‘ldi. Urushda 60 dan ortiq davlat qatnashdi.

Yodda tuting!

Ikkinchi jahon urushi 6 yil davom etdi.

Olti yil ichida 60 mln. dan ortiq kishi halok bo‘ldi. 90 mln. dan ortiq kishi esa yarador va mayib-majruh bo‘lib qoldi. Gitlerchilar o‘zlari bosib olgan hududlarda nafaqat katta yoshdagilarni, hatto bolalarni ham ishlatish uchun olib ketishdi. Ular va asir olingan askarlar maxsus lagerlarda saqlandi. Bunday lagerlarda saqlanganlarning 16 mln. nafari azob-uqubatlarda o‘lib ketishdi.

Ular lagerlardagi maxsus joylarda gaz bilan bo‘g‘ib o‘ldirildi. O‘lganlarning jasadlari maxsus olovxonalarda yondirilib, kullari o‘g‘it o‘rnida ishlatildi. Bular insoniyat nima uchun yer yuzida mustahkam tinchlik uchun kurashmog‘i kerak, degan savolga javobdir.

Jinoyat jazosiz qolmaydi. Yuqorida keltirilgan raqamlar gitlerchilar insoniyatga qarshi sodir etgan mudhish jinoyatlarning ko‘rsatkichidir

edi. Shuning uchun ham 1946-yilda bu jinoyatning omon qolgan aybdorlari ustidan xalqaro sud hukmi o‘qildi. Unga ko‘ra, jinoyatchilardan 12 nafari o‘lim jazosiga hukm qilindi. Qolganlariga uzoq muddatli yoki umrbod qamoq jazosi belgilandi.

O‘zingizni sinang



- ◆ 1939-yilda –
- ◆ 1945-yil 8-may – bu
- ◆ 1945-yil 2-sentabr

Savol va topshiriqlar



1. *Gitler Germaniyasining maqsadi nima edi?*
2. *Nega sobiq Sovet Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Fransiya Ikkinchi jahon urushining oldini ola olmadilar?*
3. *Ikkinchi jahon urushining yakunlari haqida so‘zlab bering.*
4. *Ikkinchi jahon urushining fojiali oqibatlari insoniyatga qanday saboq berdi?*

MUSTAQIL ISH

(Faktlarni taqqoslab jadvalni to‘ldiring)

T/r	Savollar	Birinchi jahon urushi	Ikkinchi jahon urushi
1.	Urushning boshlangan yili va sanasi		
2.	Urush qanday boshlandi?		
3.	Urushda ishtirok etgan asosiy davlatlar		
4.	Urush natijalari		
5.	Urushning fojiali oqibatlari		

43-§. GITLER GERMANIYASI USTIDAN QOZONILGAN G‘ALABAGA O‘ZBEKISTONNING QO‘SHGAN HISSASI



O‘zbekiston xalqining mehnat jasoratlari. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston hali sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida edi. Binobarin, 1941-yilning 22-iyunida Gitler Germaniyasi sobiq Sovet Ittifoqiga hujum qilgach, O‘zbekiston ham urushga tortildi.

Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston frontni zarur qurol-yarog', o'q-dori, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlab turdi. Urushda O'zbekistondan 1 million 500 mingdan ortiq jangchi qatnashdi. Aholidan yig'ilgan pul mablag'lari mamlakat mudofaa jamg'armasiga topshirildi.

Sobiq Sovet Ittifoqi hukumati Germaniya bosib olishi mumkin bo'lgan hududlarda joylashgan sanoat korxonalarining yuzdan ortig'ini O'zbekistonga ko'chirdi. O'zbekiston ishchilarining fidokorona mehnatlari evaziga ko'chirib keltirilgan korxonalar qisqa muddatlarda qayta qurildi va front uchun zarur mahsulot ishlab chiqara boshladi. 280 ta yangi korxonalar ham qurildi.

O'zbekiston urush yillarida frontga 2100 ta samolyot, 1700 donadan ortiq samolyot motori, 2 milliondan ortiq aviabomba, 330 ming dona parashyut va boshqa qurol-yarog' hamda harbiy anjomlar yetkazib berdi. O'zbekiston fabrikalari esa askarlarni issiq kiyim-kechaklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi.

Qishloq mehnatkashlarining jasorati. O'zbekistonning qishloq aholisi esa frontni zarur oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashda ulkan fidoyilik ko'rsatdi. Erkaklar urushga safarbar etilgani uchun qishloq xo'jaligida ishchi kuchi yetishmay qoldi. Ularning o'rnini ayollar va bolalar egallashdi. Qishloq mehnatkashlari og'ir qiyinchiliklarni mardona yenga oldilar.

Yodda tuting!

Urush yillarida jami 4 million tonnadan ortiq paxta, 5 million tonnadan ortiq don yetishtirildi.

Boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ham ko'payib bordi.

Xalqimiz ana shunday og'ir vaziyatda kunni kun, tunni tun demasdan, mashaqqatli mehnat qilib, front uchun, g'alaba uchun munosib hissa qo'shdilar.¹

Ulkan saxovat. Gitler Germaniyasiga qarshi kurashda O'zbekiston aholisi ham ulkan saxovat ko'rsatdi. Chunonchi, ular mamlakat

¹ *Islom Karimov.* O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir. «Xalq so'zi» gazetasi. 2015-yil. 11-may.



O‘zbekiston mehnatkashlari tomonidan yasalgan tanklar.

mudofaa jamg‘armasiga 650 mln. so‘mdan ziyod pul, 55 kg ga yaqin tilla va boshqa qimmatbaho buyumlar topshirdilar.

Bu mablag‘ga front uchun bronepoyezd, tank va samolyotlar yasaldi va ular frontga jo‘natildi.

Sobiq Sovet Ittifoqi hukumati mamlakat hududining urush harakatlari ketayotgan joylarida yashovchi tinch aholining bir qismini mamlakat ichkarisiga ko‘chirdi. Shulardan bir milliondan ortig‘i O‘zbekistonga keltirildi.

Yodda tuting!

O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilganlarning 200 ming nafari yetim bolalar edi.

O‘zbekiston xalqi ularni do‘stona kutib oldi. Ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi va yashash uchun o‘z uyidan joy berdi. Oziq-ovqati va kiyim-kechagini ular bilan baham ko‘rdi. Ko‘chirib kelingan bolalarning asosiy qismi bolalar uylariga joylashtirildi.

Besh yarim mingdan ortig‘ini esa bag‘rikeng, saxovatpesha o‘zbek xonadonlari farzandlikka oldilar. Bunday saxovatpesha o‘zbek xona-

donlaridan biri toshkentlik Shomahmudovlar oilasi edi. Bu oila turli millatga mansub 16 nafar bolani farzandlikka oldi. Ularni parvarishlab, tarbiyalab voyaga yetkazdi. Bu hodisa o‘zbek xalqi bag‘rikengligi, saxovatpeshaligining yorqin namunasi edi.

O‘zbekistonlik askarlarning frontdagi jasoratlari. Ikkinchi jahon urushi frontlariga yuborilgan bir yarim milliondan ko‘proq o‘zbekistonlik askarlar dushmanga qarshi mardona jang qildilar. Gitler Germaniyasining hujumini birinchilardan bo‘lib qarshi olgan Germaniyaga chegaradosh Brest qal‘asi bo‘ldi.

Qal‘ani himoya qilganlar orasida o‘zbekistonliklar ham bor edi. Ular boshqa millat vakillari bilan yelkama-yelka turib bir oy davomida qal‘ani qahramonlarcha himoya qildilar. O‘zbekistonliklar Ikkinchi jahon urushining qaysi frontida bo‘lmasin shu tariqa mardlarcha jang qildilar.



«Motamsaro ona» haykali.

Bizning ota-bobolarimiz beshafqat jang maydonlarida mardlik va matonat ko‘rsatgani uchun ularning 338 nafari «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoniga sazovor bo‘lgan.¹

Ikkinchi jahon urushi yillarida 500 mingga yaqin o‘zbekistonlik askar halok bo‘ldi. 60 mingdan ortiq askar esa nogiron, mayib-majruh bo‘lib qoldi.

Xotira abadiydir. Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi frontlarida halok bo‘lganlarning xotirasini abadiylashtirish uchun 1998-yilda O‘zbekistonda Gitler Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alaba kuni — 9-may umummilliy «Xotira va qadrlash kuni» deb belgilandi.

¹ *Islom Karimov. O‘tganlarni xotirlash, keksalarni e‘zozlash — bizning farzandlik burchimizdir.* «Xalq so‘zi» gazetasi. 2015-yil. 11-may.

1999-yilda Toshkentning Bosh maydoni – Mustaqillik maydoni yonida «Xotira maydoni» majmuasi bunyod etildi. Bu yerdagi yodgorlik devorlariga kitob betlari shakli oʻrnatildi. Ularga Ikkinchi jahon urushida halok boʻlgan oʻzbekistonlik askarlarning nomlari bitildi.

Majmuada «Motamsaro ona» haykali ham oʻrnatilgan. Haykalda urushda oʻz farzandini yoʻqotgan onaning gʻam-gʻussasi aks etgan. Haykal yonida urushda halok boʻlganlar xotirasi uchun mangu olov yonib turadi.



Oʻzingizni sinang

- ◆ Ulkan saxovat deyilganda
- ◆ Oʻzbekistonga ... bola koʻchirib keltirildi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Brest qalʼasi – hozirgi Belarus Respublikasining Brest shahri atrofida joylashgan qalʼa.

Saxovat (qoʻli ochiqlik) – odamlardan yordamini ayamaslik.

Front – urush harakatlari ketayotgan hudud.

Savol va topshiriqlar



1. Urush yillarida oʻzbekistonlik ishchilar koʻrsatgan mehnat jasoratlari haqida soʻzlab bering.
2. Oʻzbekiston qishloq mehnatkashlari urush yillarida qanday muvaffaqiyatlarga erishdilar?
3. Oʻzbekiston xalqining urush yillarida koʻrsatgan bagʻrikengligi va saxovatpehaligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Oʻzbekistonlik askarlarning jang maydonlarida koʻrsatgan qahramonliklariga misollar keltiring.
5. Ikkinchi jahon urushida halok boʻlgan oʻzbekistonlik askarlar xotirasini abadiylashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?



X bob. JAHONDA TINCHLIK VA HAMKORLIK UCHUN KURASH

44-§. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI (BMT)



BMTning tuzilishi sabablari. 1945-yilning avgust oyi... Ikkinchi jahon urushi hamon davom etmoqda edi. AQSH dunyoga o‘z kuch-qudratini namoyish etish maqsadida 6- va 9-avgust kunlari Yaponiyaning Xirosima hamda Nagasaki shaharlariga eng dahshatli qurol – atom bombasi tashladi. O‘zining bu harakatini Yaponiyani tezroq taslim bo‘lishga majbur etish bahonasi bilan oqlashga urindi. Atom bombasi – eng dahshatli qirg‘in quroli. Bu bombaning portlashi to‘lqini imoratlarni ag‘darib tashlaydi. Undan tarqaladigan nur esa havoni, suvni va yerni zaharlaydi. Ming-minglab odamlar halok bo‘ladi. Buning ustiga, atom bombasi tarqatadigan nur (radiatsiya) uzoq vaqtgacha o‘zining halokatli ta‘sirini ko‘rsatib turadi.

1945-yilda Yaponiyada aynan shunday bo‘ldi.

Yaponiyaning Xirosima shahridan uncha uzoq bo‘lmagan joyda Sadako Sasaki ismli qizcha yashardi. Bomba portlagan paytda Sadako bor-yo‘g‘i ikki yoshda edi. Sadakoning yuzi yoki tanasi kuymagan bo‘lsa ham, 9 yil o‘tgach, Xirosima shahri tiklanganidan so‘ng, 11 yoshida Sadako kasallanadi. Shifokorlar uning qon saratoni kasali bilan kasallanganligini aniqlab, uning bir yillik umri qolganini aytadilar. Bu kasallik 1945-yilda Xirosima shahriga tashlangan atom bombasi nurlarining asorati edi. Sadako o‘zini o‘lim kutayotganini bilar edi.

Sadakodan Tidzuko ismli do‘sti doimo xabar olib turardi. Bir kuni Tidzuko Sadakoga Yaponiyada muqaddas hisoblanuvchi turna qushi

tarixi haqida soʻzlab beradi. Yaponlar turna 1000 yil yashaydi, agar kasal odam qogʻozdan 1000 dona turna yasasa u tuzalib ketadi, deb ishonar edilar.

Sadako shu kundan boshlab 1000 dona turna yasashga kirishadi.

Biroq, u 644 dona turna yasashga ulguradi. Sadako vafot etadi, uning sinfdoshlari qolgan 356 ta turnani yasab, 1000 dona turnani Sadako bilan birga dafn etadilar. Sadako atom bombasining yagona qurboni emas edi.

Yaponiya bolalari Sadako xotirasiga yodgorlik oʻrnatish uchun uch yil davomida zarur pulni yigʻishga muvaffaq boʻldilar.

Sadako xotirasiga qurilgan yodgorlik «Bolalar tinchlik haykali» deb ataladi. U Xirosimadagi Tinchlik xiyoboniga oʻrnatilgan.

Yodgorlik toshiga quyidagi soʻzlar oʻyib yozilib qoʻyilgan:

*Bu bizning koʻz yoshimiz,
Bu bizning dunyomiz,
Dunyoga — tinchlik.*

Ha, shunday. Dunyoga tinchlik kerak. Shundagina Sadakolar taqdiri takrorlanmaydi. Shundagina odamlar boshpanasiz, farzandlar ota-onasiz yetim boʻlib qolmaydi. Ota-onalar oʻz farzandlaridan ayrilib qolmaydi. Yer yuzi bolalari ochlikdan, kasallikdan nobud boʻlmaydi.

Agar yangi urush boʻladigan boʻlsa, avvalgisidan ham dahshatli qirgʻin va vayronagarchilik roʻy beradi.

Binobarin, davlatlar va davlat arboblari kelajak haqida qaygʻurishlari, urush boʻlishiga yoʻl qoʻymasliklari kerak.

Shuning uchun ham davlat arboblari bundan keyin jahon urushi boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida yer yuzida mustahkam tinchlik oʻrnatishda xizmat qiluvchi xalqaro tashkilot tuzishga ahd qildilar.

BMTning tuzilishi va uning maqsadlari. Tez orada bunday xalqaro tashkilot tuzildi. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) deb ataldi.



Yaponiyadagi «Bolalar tinchlik haykali».

Yodda tuting!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yilning 24-oktabrida tuzildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlari quyidagilar ekanligi belgilab qo'yildi:

- butun dunyoda tinchlikni ta'minlash;
- dunyo xalqlari o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirish;



**Birlashgan Millatlar
Tashkiloti ramzi.**

- dunyoda ocharchilik, kasallik va savodsizlikni tugatish borasida birgalikda harakat qilish;

- ekologiya halokatining oldini olish;
- inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarashni rag'batlantirish.

BMT shtab kvartirasi (doimiy ish o'rni) AQSHning Nyu-York shahrida joylashgan. BMTga Bosh kotib rahbarlik qiladi.

Dunyoning qaysi bir burchagida bo'lmasin, umumiy tinchlikni xavf ostiga qo'yadigan vaziyat yuzaga kelsa, BMT uni muhokama qiladi va tinchlikni saqlab qolish uchun zarur choralarni ko'radi. Hozirgi kunda dunyoning 200 ga yaqin davlati BMT a'zosi. Mana, Ikkinchi jahon urushidan keyin o'tgan yillar davomida BMT Yer yuzida mustahkam tinchlik ishi uchun kurashib kelmoqda.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlar a'zosi. O'zbekiston 1992-yilning 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Bu voqea O'zbekistonning xalqaro miqyosda tan olinganligini to'la tasdiqladi. Shu kundan e'tiboran O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylandi. BMT binosi oldida unga a'zo davlatlar bayroqlari qatorida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i ham hilpiray boshladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1993-yilda BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasi majlisida ilk bor

qatnashdi va nutq soʻzladi. Bu tarixiy voqea dunyoga mustaqil Oʻzbekiston davlati borligini yana bir bor namoyish qildi.

Eslang!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qachon va qanday maqsadlarda tuzilgan edi?

Islom Karimov 2010-yilda BMT Bosh Assambleyasining XXI asrning eng dolzarb xalqaro muammolariga bagʻishlangan sessiyasida ham qatnashdi.

Prezidentimiz oʻz nutqida Bosh Assambleya sessiyasi ishtirokchilari eʼtiborini Oʻzbekistonni tashvishga solayotgan muammolarga qaratdi.

Oʻzbekiston BMTning qator xalqaro tashkilotlari faoliyatida ham faol qatnashib kelmoqda. Ular ichida Siz YUNESKO va YUNISEF haqida maʼlumotga egasiz.

Oʻzbekiston YUNESKO aʼzoligiga qabul qilindi. Avvalgi mavzularda bu tashkilotning Oʻzbekistonda amalga oshirgan ishlari bilan tanishgansiz.

YUNESKO taʼlim, fan va madaniyatni rivojlantirish sohasida xalqaro aloqalarni faollashtirish ishiga katta hissa qoʻshgan kishilarni taqdirlash uchun oʻz mukofotlarini ham taʼsis etgan. YUNESKoning qarorgohi Parij shahrida joylashgan.

Yodda tuting!

YUNESKO bir qator mukofotlar (oltin medallar) taʼsis etgan. Ulardan biri Abu Ali ibn Sino nomidagi oltin medaldir.

1998-yilda Prezidentimiz Islom Karimov YUNESKoning ushbu oltin medali bilan mukofotlandi.

Savol va topshiriqlar



1. AQSH nima maqsadda Yaponiyaga atom bombasi tashladi?
2. Atom bombasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Yaponiyalik qizcha Sadakoning fojiali taqdiri haqida soʻzlab bering.
4. BMT va Oʻzbekiston hamkorligi haqida soʻzlab bering.

45-§. BMT VA DUNYO BOLALARI



BMT bolalar huquqi himoyachisi. BMT doimo dunyo bolalari haqida ham g'amxo'rlik qilib kelmoqda. U ikkinchi jahon urushining bolalar boshiga solgan fojiali oqibatlarini bartaraf etish maqsadida 1946-yilda «Bolalarga yordam ko'rsatish xalqaro jamg'armasi»ni tuzdi.

YUNISEFning faoliyati. 1946-yilda tuzilgan «Bolalarga yordam ko'rsatish xalqaro jamg'armasi» qisqartirilgan holda YUNISEF deb ataladi. U dastlab urushdan eng ko'p aziyat chekkan Yevropa bolalariga yordam ko'rsatdi. Keyinchalik Osiyo, Afrika va Janubiy Amerika qit'asi bolalariga yordam ko'rsatishni boshladi.

Yodda tuting!

YUNISEF dunyo bolalariga ko'rsatgan yordami uchun 1965-yilda xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.



UNICEF

**YUNISEF
ramzi.**

Chunki bu qit'alardagi bolalarning hayoti bilan bog'liq muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Chunonchi, bolalar o'rtasida o'lim darajasi hamon yuqori, millionlab bolalar to'yib ovqat yeya olmaydi.

130 milliondan ortiq bola esa maktabga qatnmaydi.

Bularni hisobga olgan YUNISEF o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarga qaratdi:

- o'limga sababchi bo'ladigan kasalliklar bilan kasallanishning oldini olish uchun bolalarni emlash;
- bolalar va onalarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash;
- bolalar o'rtasida ochlikka, to'yib ovqat yemaslikka va savodsizlikka qarshi kurash;
- bolalarning ko'r bo'lib qolishiga sabab bo'luvchi «A» vitamini yetishmasligining oldini olish;
- «Bola huquqlari to'g'risida»gi xalqaro Konvensiyaning barcha davlatlar tomonidan tasdiqlanishiga erishish.

YUNISEF yiliga 3 million bolaning hayotini saqlab qolmoqda. Bugungi kunda YUNISEFga 140 dan ortiq davlat a'zo. O'zbekiston Respublikasi 1994-yilda unga a'zo bo'lib kirdi va u bilan doimiy hamkorlik olib bormoqda. YUNISEF O'zbekiston hukumati bilan bolalarni emlash, vaksinalar yetkazib berish va Orolbo'yi aholisiga yordam ko'rsatish kabi sohalarda hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonda bolalar haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining asoslaridan birini tashkil etadi.

BMT 1989-yilda «Bola huquqlari to'g'risida» deb ataluvchi xalqaro Konvensiyani qabul qildi. Unda 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolarning bola hisoblanishi qayd etildi. Shuningdek, BMT a'zolariga bolalarning yashash, tirik qolish va sog'lom rivojlanishini ta'minlash majburiyati yuklatildi. Ayni paytda bolalarning ilm olish huquqi kafolatlandi. Bolalardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish va ularni askarlikka jalb etish ta'qiqlandi. Bolalarni giyohvand moddalar iste'mol qilishdan saqlash choralarini ko'rish majburiyati yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi ham bu Konvensiyaga qo'shildi.

2007-yilda esa «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Bu qonun 18 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolarining manfaatini himoya qilib kelmoqda.

YUNISEF mablag'i. A'zo davlatlar har yili tashkilot hisobiga ma'lum miqdorda mablag' ajratadilar. Shuningdek, ayrim shaxslarning xayr-ehsoni hisobiga ham mablag' to'planadi. Bundan tashqari, Jamg'arma har yili o'zining ramzi tushirilgan millionlab ochiq tabrik jild xatlarini sotish orqali ham mablag' to'playdi.

Ochiq tabrik jild xati sotish qanday qilib rasm bo'lgan?

1949-yil... Jamg'arma Chexiya bolalariga yordam ko'rsatmoqda edi. Yordam ko'rsatilayotgan bolalar orasida rasm chizishga juda iqtidorli 7 yoshli Yitka Samkova ham bor edi. Jamg'arma yordamidan quvongan Yitka (uning sinfdoshlari ham behad xursand edilar) oyna parchalariga Jamg'arma uchun rangli rasmlar chizib beradi.

Sinf o'qituvchisi Yitkaning chizgan rasmlarini Chexiya poytaxti Pragada joylashgan Jamg'arma qarorgohiga jo'natadi. Bu rasmlar Jamg'arma xodimlariga juda yoqib qoladi. Ular rasmlarni Nyu-York shahriga yuboradilar.

Jamg‘arma xodimlari Yitka rasmlari tasviri tushirilgan ochiq tabrik jild xatlari tayyorlashga qaror qiladilar va ularni Iso payg‘ambar tug‘ilgan kuni – Rojdestvo bayrami munosabati bilan butun dunyoda sotilishini tashkil etadilar. Bu tadbir Jamg‘armaga katta daromad keltiradi.

Keyinchalik, har yili bunday ochiq jild xatlar sotish an’anaga aylanadi.

O‘zingizni sinang



- ◆ BMT –
- ◆ YUNISEF
- ◆ 1989-yilda

Atamalar mazmunini bilib oling



Vaksina – inson tanasining kasallikdan himoyalaniş darajasini oshirish maqsadida emlash uchun ishlatiladigan dori.

Jamg‘arma – ma’lum bir faoliyat turiga, kishilarning muayyan guruhiga yordam berish maqsadida tuzilgan tashkilot.

Konvensiya – biron-bir maxsus masalaga oid xalqaro shartnoma.


Savol va topshiriqlar



1. BMTning dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish borasidagi faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. YUNISEF tashkiloti va uning faoliyati haqida so‘zlab bering.
3. «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiyaning maqsadi nimalardan iborat?
4. O‘zbekiston Respublikasi va YUNISEF qaysi yo‘nalishlarda hamkorlik qilmoqda?

MUSTAQIL ISH

Sizning oilangizda bolalar qanday kasalliklarga qarshi emlanganligini aniqlang va ularni daftaringizga yozib keling.



46-§. O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI



O'zbekistonning birinchi Prezidenti. O'zbekiston sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida mustamlaka edi. XX asrning 80-yillariga kelganda sobiq Sovet Ittifoqining inqirozga yuz tutganligi yaqqol namoyon bo'ldi. Mustamlaka xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining mustaqillik uchun kurashi bu inqirozni yanada kuchaytirdi.

Shunday sharoitda O'zbekistonga uni mustaqillik sari dadil yetaklashga qodir, kerak bo'lsa, jonini ham fido qilishga tayyor turadigan yo'lboshchi – rahbar zarur edi. Bu zaruriyat Islom Abdug'aniyevich Karimovni siyosat maydoniga chiqardi. Islom Karimov tez orada O'zbekiston rahbari etib saylandi. U bunga qadar qator yuqori davlat rahbarlik lavozimlarida ishlab katta tajriba to'plagan edi.

1990-yilning 24-martida O'zbekiston tarixida birinchi bor prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Shu kuni kelajakni oldindan ko'ra oluvchi va donishmand rahbar, o'zbek xalqining vatanparvar farzandi, yo'lboshchisi Islom Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.

Bu hodisa O'zbekistonning mustaqilligi uchun kurash yo'lida muhim tarixiy voqea bo'ldi.



Islom Karimov.

Yodda tuting!

Prezident — ma’lum muddatga saylab qo’yiladigan davlat boshlig’idir. Prezidentlik davlatdagi eng oliy lavozim. «Prezident» atamasi lotincha so’z bo’lib, o’zbek tilida «oldinda o’tiruvchi» degan ma’noni anglatadi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi. Prezident Islom Karimov O‘zbekistonning mustaqilligini ta’minlashni o‘zining asosiy vazifasi deb e’lon qildi. Ayni paytda O‘zbekistonni davlat mustaqilligiga olib keladigan tadbirlarni izchillik bilan amalga oshira boshladi. Ularning orasida 1990-yilda qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Qulayotgan sobiq Sovet Ittifoqining rahbarlari 1991-yilning avgust oyida kuch ishlatish yo‘li bilan sobiq Sovet Ittifoqini saqlab qolishga urindilar. Biroq bu urinish halokatga uchradi. Islom Karimovning tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 31-avgust kuni «O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida» Qonun qabul qildi. 1-sentabr esa O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Shu tariqa dunyo siyosiy xaritasida yangi davlat — O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi.

1991-yilning 29-dekabrida Islom Abdug‘aniyevich Karimov muqobillik asosida mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.



O‘zingizni sinang

- ◆ 1990-yil 24-mart —
- ◆ 1991-yil 31-avgust
- ◆ 1991-yil 1-sentabr

O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari. O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o‘z qiyofasini xalqaro me’yorlar asosida namoyon qilishi lozim edi. Davlatning qiyofasi esa uning ramzlarida aks etadi. Ramzlar davlatning, xalqning o‘ziga xos jihatlarini ifodalovchi timsollar bo‘lib, davlatni xalqaro miqyosda tanitadi. Uning mustaqil ekanligini namoyish etadi. Davlatlarni bir-biridan farqlantirib turadi. Xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lganligini anglatadi. O‘zida xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini, orzu-maqсадlarini aks ettiradi. Shuning uchun O‘zbekiston ham qisqa vaqt ichida o‘z davlat ramzlarini qabul qilishga kirishdi.

E'tibor bering!

O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 5-modda.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i 1991-yilning 18-noyabrida, Davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda, Davlat madhiyasi esa 1992-yil 10-dekabrda tasdiqlandi. Siz davlatimiz ramzlarining mazmunini ularda aks etgan har bir tasvirning qanday ma'noni anglatishini «Konstitutsiya olamiga sayohat» darslarida bilib olgansiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, Qoraqalpog'istonga O'zbekiston tarkibidagi mustaqil Respublika maqomi berildi. O'zbeklar va qoraqalpoqlar asrlar davomida yonma-yon, og'a-inilardek yashab keldilar. Ularning munosabatlari do'stlik va qar-doshlikka asoslanadi. Ularning tillari ham bir-biriga yaqin.

O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining Konstitutsiyasiga, davlat ramzlariga, qonun chiqaruvchi hokimiyatiga va hukumatiga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatni Jo'qorg'i Kenges amalga oshiradi.

O'zingizni sinang



- ◆ 1991-yil 18-noyabr
- ◆ 1992-yil 2-iyul
- ◆ 1992-yil 10-dekabr



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i.



O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi bayrog'i.



Qoraqalpog'iston Respublikasi gerbi.

Atamalar mazmunini bilib oling



Gerb – davlat muhrida, pul va hujjatlarda tasvirlangan, davlatni tanituvchi alohida farqli belgi.

Bayroq – biror-bir davlatga yoki tashkilotga qarashlikni anglatuvchi belgilar tushirilgan muayyan o'lchamdagi mato, davlat mustaqilligining asosiy ramzi.

Muqobilik – saylanadigan lavozimlarga nomzodlarning ikkitadan kam bo'lmashligi qoidasi.

Ramz – biror hodisani, holatni ifodalovchi shartli belgi.

Savol va topshiriqlar



1. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi haqida so'zlab bering.
2. «Prezident» so'zi va uning maqomini ta'riflab bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi jarayoni qanday kechdi?
4. Davlatlarga davlat ramzlari nima uchun zarurligini tushuntirib bering.
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

MUSTAQIL ISH

Muhim tarixiy sanalar
(Jadvalni to'ldiring)

T/r	Muhim tarixiy sanalar	Ro'y bergan muhim tarixiy voqealar va qabul qilingan hujjatlar
1.		
2.		
3.		
4.		

47-§. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI YUTUQLAR



O'zbekistonning g'alla mustaqilligi. G'alla (bug'doy) xalqimizning rizq-ro'zi. O'zbekiston mustamlaka bo'lgan davrlarda sobiq Sovet Ittifoqini paxta bilan ta'minlab keldi.

O'zbekistonning paxtasisiz sobiq Sovet Ittifoqining to'qimachilik korxonolari faoliyat ko'rsata olmagan. O'zbekiston o'z aholisi uchun zarur g'allaning asosiy qismini sobiq Sovet Ittifoqidan o'z paxtasi

evaziga olardi va u yiliga salkam 3 million tonnani tashkil etardi. Sobiq Sovet Ittifoqi parchalangach, g'allani chet ellardan sotib olishimizga to'g'ri keldi. Biroq o'zaro aloqalarning buzilishi natijasida Respublikamiz atigi bir haftaga yetadigan g'alla zaxirasi qolgan kunlarni ham boshidan kechirdi.



G'alla o'rimi.

Bunday og'ir sharoitdan chiqish uchun Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatning g'alla mustaqilligiga erishishi haqida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada paxta ekiladigan yer maydonlari qisqartirildi. Paxtadan bo'shagan yerlarda g'alla yetishtirila boshlandi. Ayni paytda har gektar yerdan olinadigan don hosildorligini oshirish choralari ko'rildi. Bu harakat tez orada o'z samarasini berdi.

Yodda tuting!

2003-yilda O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishdi. Shu yili O'zbekiston dehqonlarining fidokorona mehnati tufayli mamlakatimizda 5 mln. 100 ming tonna g'alla yetishtirildi. Bu 1991-yilga nisbatan 5,5 marta ko'p edi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bu g'alabaga erishilgan kunlarda o'zining «O'zbek noni» she'rida quyidagi satrlarni bitgan edi:

*Yurtim, buyukliging bildi keng jahon,
To'ldi omboring o'z doning bilan.
Siylaysan olamni yozib dasturxon,
Mehnatdan yaralgan shu noning bilan.*

Mehnatsevar dehqonlarimizning jasoratlari tufayli 2014-yilda respublikamizda 8 mln. tonnadan ortiq g'alla yetishtirildi. Bugun O'zbekiston g'allasi hatto boshqa davlatlarga ham sotilmoqda.

Neft mustaqilligi. Siz neft nimaligini yaxshi bilasiz. Uning kishilik jamiyati barqarorligi uchun ahamiyati nihoyatda ulkandir.

Shuning uchun ham u «qora oltin» deb ham yuritiladi. Neftdan olinadigan mahsulotlarni ko'z oldingizga keltiring-a. Bular benzin, kerosin, solyarka va boshqa yonilg'ildir. Bularsiz xalq xo'jaligining



Neftni qayta ishlash zavodi.

hech bir sohasi bir maromda faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunonchi, kerosinsiz samolyotlar ucha olmaydi. Solyarkasiz qishloq xo'jalik texnikalari yurmaydi. Benzinsiz transport vositalari harakatlana olmaydi. Bir so'z bilan aytganda, neftni xalq xo'jaligining tomirlarida oqayotgan qonga qiyos qilish mumkin. Shuning uchun ham neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda.

O'zini o'zi neft mahsulotlari bilan ta'minlagan davlat o'zgarar qo'liga qarab qolmaydi. O'zbekistonda AQSH va Yaponiya bilan hamkorlikda qator neft konlari ishga tushirildi. Natijada neft qazib olish yildan yilga ortib bordi.

Yodda tuting!

1995-yildan O'zbekiston neft mustaqilligiga erishdi.

Farg'ona va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari respublikaning neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirib kelmoqda.

O'zbekiston paxtasining dunyodagi o'rni. O'zbekiston dunyoda o'zining paxtasi bilan ham mashhur. Respublikamiz dunyoda paxta yetishtirish va uni chet davlatlarga sotish bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Paxta qimmatbaho xomashyodir.

Yodda tuting!

Bir tonna paxta xomashyosidan o'rtacha 320–350 kg tola olinadi. Bu toladan esa 3500 kvadrat metr gazlama to'qish mumkin. Shuningdek, 620 kg chigit ham olinadi. Bu chigitdan esa 110 kg paxta moyi, 225 kg kunjara va 175 kg sheluxa va boshqa mahsulotlar olinadi.

O'zbek paxtasidan olinadigan tolaning sifati juda yuqori. Shuning uchun ham unga jahonda talab juda katta.

Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Toshkentda «Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi» o'tkazilib kelinmoqda va u o'zbek pax-

tasining o'ziga xos jahon bozori vazifasini o'tamoqda.

Zamonaviy sanoat. Zamonaviy sanoatsiz xalq xo'jaligini taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Faraz qiling, elektr energiyasi (tok) ishlab chiqarish kamayib ketdi. Xo'sh, unda nima bo'ladi? Albatta, barcha sanoat korxonalari to'xtab qoladi.




Paxta xirmoni.

Mashinasozlik sanoatini olaylik. Zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalarisiz qanday qilib qishloq xo'jaligida ish yuritish mumkin? Mashinasozlik sanoatisiz O'zbekiston zamonaviy yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylana olarmidi? Bir-biridan ajoyib yengil mashinalar ishlab chiqarilayotganligiga o'zingiz ham guvohsiz.

Kimyo sanoatisiz ham qishloq xo'jaligining rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Mineral o'g'itlar yordamida ekinlarning hosildorligini oshirish, kimyoviy vositalar bilan esa qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish mumkin.

Oziq-ovqat sanoati aholini turli xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi. Shunday ekan, respublikamizda sanoatni rivojlantirish masalasiga bundan keyin ham katta e'tibor berilaveradi.



O'zingizni sinang

- ◆ Kimyo sanoati bo'lmasa
- ◆ Neft sanoati bo'lmasa

Atamalar mazmunini bilib oling



Iqtisodiyot – mamlakat aholisini barcha zarur narsalar bilan ta'minlovchi xo'jalik, ishlab chiqarish.

Texnika – inson mehnatini yengillashtiradigan va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladigan ishlab chiqarish qurollari, vositalari.

Yarmarka – tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilarning ko'rgazmaga qo'yilgan mahsulotlarni ko'tara sotish va sotib olish maqsadida o'tkaziladigan yig'ini.

Savol va topshiriqlar



1. Nima uchun O'zbekistonda g'alla mustaqilligini ta'minlash zarur edi?
2. G'alla mustaqilligiga erishish borasida qanday tadbirlar amalga oshirildi va ular qanday natija berdi?
3. Neft mustaqilligiga erishmasdan turib ishlab chiqarishni rivojlantirib bo'lmashligiga dalillar keltiring.
4. O'zbekiston paxtasining jahon bozorida o'rni haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Sanoatning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni benihoya katta ekanligiga dalillar keltiring.

MUSTAQIL ISH

1. Siz yashayotgan tumanda sanoatning qaysi tarmog'i mavjud? Ota-onangiz yordamida ushbu tarmoqning tumaningiz hayotida tutgan o'rni haqida ma'lumot to'plang.
2. Ota-onangiz yordamida paxta va g'alla yetishtirishda o'zingiz yashayotgan tumanda bu yil qanday natijalarga erishilganligi haqida ma'lumot to'plang.

48-§. MA'NAVIY VA MA'RIFIY YUKSALISH



Milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar asrlar davomida yaratiladi. Ular davr, hayot o'zgarishi bilan yo'q bo'lib ketmaydi.

Aksincha, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Keyingi avlodlar esa ularni yanada boyitadi. Ular ham o'zidan keyingi avlodga meros qilib qoldiradi.

Yodda tuting!

Qadriyat (ahamiyatli, qimmatbaho, xalq boyligi) – insonlar uchun nihoyatda qadrlil, qimmatli bo'lgan barcha narsalardir.

O'zbek xalqi o'tmishda barcha xalqlar havas qilsa arzigulik qadriyatlar yaratgan. Biroq ularning ko'pi O'zbekiston mustamlaka bo'lgan yillar davomida yerga urildi. Mustaqillikdan so'ng bu qadriyatlar bosqichma-bosqich tiklana boshlandi.

O‘zbek tili – o‘zbek xalqining ona tili, oliy qadriyati. Mustamlaka yillarida u ikkinchi darajali til qatoriga tushirib qo‘yildi. Uning qo‘llanish o‘rni chegaralanib qoldi. Bu hol o‘zbek xalqining milliy g‘ururini kamsitdi. Bu holatga barham berish uchun Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1989-yildayoq o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

Navro‘zning tiklanishi. Navro‘z bayrami xalqimizning qadimiy qadriyatidir. U qadimda shunday e‘zozli bayram bo‘lganki, u nishonlanayotgan kunlarda hatto urushlar to‘xtatilgan.

Navro‘z yaxshilik, mehr-oqibat va muruvvat bayrami sifatida ham juda qadrlangan. Navro‘zning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, aynan u nishonlanadigan vaqtda xalq rizq-ro‘zining asosi bo‘lmish dehqonchilik ishlari ham boshlangan. Navro‘z ana shunday xosiyatlariga ko‘ra eng sevimli bayramga aylangan. Biroq O‘zbekiston mustamlaka bo‘lgan davrlarda Navro‘z eskilik sarqiti, deb e‘lon qilindi va uni nishonlash taqiqlab qo‘yildi.

1990-yilda O‘zbekiston hukumati bunga chek qo‘ydi. Shu yildan boshlab respublikamizda Navro‘z qayta tiklandi. 21-mart Navro‘z milliy xalq bayrami hamda dam olish kuni deb belgilandi. Respublika aholisi buni mamnuniyat bilan kutib oldi.

Navro‘z bir oy davom etadi. Xalqimiz Navro‘z kunlarida hasharlar uyushtiradi. Yon-atrof tozalanadi, obodonlashtirish tadbirlari o‘tkaziladi. Daraxt va gul ko‘chatlari o‘tqaziladi. Xalqimizning eng suyuqli taomi – sumalak dasturxonlarga tortiladi.

Bundan tashqari, Navro‘zda yetim-yesirlar, nogironlar, kam ta‘minlangan oilalarga muruvvat ko‘rsatiladi.

Diniy bayramlarning tiklanishi. O‘zbekiston musulmonlari ham har yili muborak Qurbon hayiti va Ro‘za (Ramazon) hayitini nishonlaydilar.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 1991-yildan boshlab Qurbon hayiti va 1992-yildan boshlab esa Ramazon hayitlarining birinchi kuni dam olish kuni deb belgilandi.

Buyuk bobolarimiz qutlug‘ nomlarining ulug‘lanishi. 1991-yildayoq buyuk shoir, o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi nishonlandi. Bu ulug‘ sanaga bag‘ishlab uning shoh asarlari qayta nashr etildi. Toshkent shahrida muh-



Imom al-Buxoriy maqbarasi.

tasham va purviqor haykali oʻrnatildi. Uning nomi bilan ataluvchi Oʻzbekiston Milliy bogʻi bunyod etildi. Islom Karimov haykal va Milliy bogʻning ochilishi marosimida soʻzlagan nutqida Alisher Navoiyni milliy gʻururimiz deb ulugʻladi.

Oʻzbekistonning mustamlaka yillarida nomi va buyuk ishlari unutilishga mahkum etilgan, aslida faxrimiz, iftixorimiz, gʻururimiz boʻlgan Amir Temur bobomizning qutlugʻ nomi tiklanganligi ulkan tarixiy hodisa boʻldi.

Oʻzbekiston jahonga nafaqat buyuk ilm-fan allomalari, u ayni paytda, diniy ulamolarni ham yetkazib bergan oʻlkadir. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan davlatimiz mustaqilligi yillarida ularning ham qutlugʻ nomlari tiklandi. Chunonchi, vatandoshlarimiz — hadis ilmining buyuk namoyandalari Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Abu Iso at-Termiziy tavalludining esa 1200 yilligi nishonlandi.

Bundan tashqari, mashhur islom qonunshunosi Burhoniddin Margʻinoniy tavalludining 910 yilligi, islom dini asoslarini tushuntirib berish ilmining mashhur namoyandasi Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1130 yilligi ham nishonlandi. Ularning xotirasiga bagʻishlab ajoyib meʼmoriy yodgorliklar bunyod etildi.

Yubiley tantanalarining barchasida Prezident Islom Karimov ishtirok etdi va nutq soʻzladi.

Mamlakatimizda millatlararo totuvlik. Oʻzbekiston ham koʻp millatli davlatdir. Unda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Oʻzbek xalqiga boshqa xalqlarga mensimaslik yoki past nazar bilan qarash yot narsa. U asrlar davomida boshqa xalqlar vakillari bilan tinch-totuv yashab kelgan bagʻrikeng, doʻstlikni qadrllovchi xalq. Mustaqillik yillarida hukumatimiz millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash choralarini koʻrdi. Avvalo, Oʻzbekistonning har bir



Burhoniddin Margʻinoniy maqbarasi.


fuqarosi qaysi millatga mansubligidan qatʻi nazar qonun oldida teng deb eʻlon qilindi. Millatidan qatʻi nazar har bir fuqaro qalbiga, ongiga yagona Vatan gʻoyasi singdirila boshlandi.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgan boʻlsa-da, boshqa tillar ham kamsitilgani yoʻq.

Chunonchi, Respublikamiz umumiy oʻrta taʻlim maktablarida oʻqitish oʻzbek tilidan tashqari yana 6 tilda (qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qozoq va qirgʻiz tillarida) olib borilmoqda. Darsliklar ham 7 tilda nashr qilinmoqda.

Barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va anʻanalari qonun bilan himoya qilinmoqda. Ularning rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Boshqa millat vakillariga milliy ehtiyojlarini erkin qondirishlari uchun oʻz milliy-madaniy markazlarini tuzishga ruxsat etildi. Millatlararo totuvlikni taʻminlash borasida amalga oshirilgan ishlar Oʻzbekiston xalqining birligi, jipsligi va osoyishtaligini taʻminlashga xizmat qiladi. Bu esa Oʻzbekistonning bebaho boyligidir.



Qur'oni Karim.

Diniy bag'rikenglik. Har bir davlat hayotining osoyishta kechishi, fuqarolarining tinch-totuv yashashi diniy bag'rikenglikning nechog'lik mustahkam qaror topganligiga ham bog'liqdir.

Yodda tuting!

Diniy bag'rikenglik – Vatani bir, biroq diniy e'tiqodlari har xil bo'lgan fuqarolarning bir-birlarining diniy e'tiqodini hurmat qilishidir. Yagona ulug' maqsad yo'lida jipslashib hamkor va hamjihat bo'lib yashashlaridir.

Insoniyatning o'tmish tarixi diniy qirg'inlarga ham to'la bo'lgan. Chunonchi, Fransiyada birgina 1572-yilda yuz bergan diniy qirg'inda bir hafta ichida 30 ming kishi halok bo'ldi. Afsuski, dunyo hozir ham o'zaro diniy qirg'inlardan to'la xoli bo'la olganicha yo'q.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan turli dinlar yonma-yon yashab keldi. Ularga e'tiqod qiluvchilar o'z diniy amallarini erkin ado etib kelishgan. Chunki o'zbek xalqi azaldan bag'rikeng xalq. Bugungi kunda Respublikamizda 15 dan ortiq diniy e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Ularning qonun oldida teng ekanliklari qoidasi belgilab qo'yildi. O'z faoliyatlarini erkin amalga oshirishlari uchun sharoit yaratib berildi. Shu tariqa turli diniy e'tiqodlarga amal qiluvchi mamlakatimiz fuqarolari o'rtasida diniy bag'rikenglik yanada mustahkamlandi.



Toshkentdagi Rus pravoslav cherkovi.

Ular bosh g'oyamizga asos bo'lgan «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish»dek ulug'vor vazifani ro'yobga chiqarish ishiga baholi qudrat hissa qo'shib kelmoqdalar.



O‘zingizni sinang

- ◆ O‘zbekistonda ... yashaydi.
- ◆ O‘zbekistonda 15 dan ortiq

Atama mazmunini bilib oling



Hadis ilmi — Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari va ko‘rsatmalarini to‘plab, ularning ishonchlilarini tanlash ilmi.

Savol va topshiriqlar



1. «Qadriyat» so‘zining ma‘nosiga izoh bering. Nega qadriyatlarni tiklash zarur edi?
2. O‘zbekistonda o‘zbek xalqining asriy qadriyatlari tiklanganligiga dalillar keltiring.
3. Buyuk bobolarimiz qutlug‘ nomlarining tiklanishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Millatlararo totuvlik qanday ta‘minlandi?
5. «Diniy bag‘rikenglik» tushunchasiga ta‘rif bering. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

MUSTAQIL ISH

1. Mahallangizda bu yil Navro‘z qanday nishonlanganligi haqida ma‘lumot to‘plab keling.
2. Mahallangizda Ramazon va Qurbon hayitlarining qanday nishonlanishi haqida ma‘lumot to‘plab keling.

49-§. O‘ZBEKISTON VA JAHON



O‘zbekiston davlat mustaqilligining dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinishi. O‘zbekistonning davlat mustaqilligi dunyo davlatlari tomonidan birin-ketin tan olindi. Mustaqil O‘zbekiston chet davlatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilishni boshladi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tanlangan yo‘1 haqida bunday degan edi: «O‘zbekiston hech kimdan sadaqa so‘ramaydi, faqat tengma-teng hamkorlikka tayyor».

O‘zbekiston, avvalo, Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama hamkorlik qilishga katta e‘tibor berdi. Ikki davlat o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari haqida shartnoma imzolandi.



O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin.



O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin.

Shartnoma har ikki davlat manfaatlariga birday xizmat qilmoqda. Rossiya Federatsiyasi O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkori hamdir.

O‘zbekiston Osiyoning Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya va Singapur kabi eng rivojlangan davlatlari bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ya oldi. Mamlakatimizda bu davlatlar ishtirokida tashkil etilgan ko‘plab qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular bilan savdo-iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda.

Chunonchi, 2013-yilda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo aylanmasi 5 mlrd. AQSH dollaridan ortdi.

O‘zbekiston Xitoy bilan Osiyoda mustahkam tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash borasida ham yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Islom Karimovning 2014-yilda Xitoyda, Xitoy rahbarining O‘zbekistonda bo‘lishi har ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreya Respublikasi ham O‘zbekistonning Osiyodagi yirik hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Janubiy Koreya bilan hamkorlik O‘zbekistonning dunyoda yengil avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatga aylanishida muhim rol o‘ynadi. Janubiy Koreyaning «DAEWOO» kompaniyasi bilan hamkorlikda Asaka shahrida avtomobil zavodi qurildi.

1996-yil 26-mart kuni birinchi avtomobil ishlab chiqarildi. Shu tariqa O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-davlatga aylandi. O‘zbekiston Yaponiya bilan ham o‘zaro manfaatli hamkorlik qilib kelmoqda. Mamlakatimizda o‘ndan ortiq O‘zbekiston – Yaponiya qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston dunyoning eng qudratli davlati AQSH bilan, uning qator kompaniya va korporatsiyalari, jumladan, «Jeneral Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlik qilmoqda. Bu korporatsiya bilan hamkorlikda «Asaka» zavodida turli modellardagi zamonaviy yengil avtomobillar, Toshkent viloyatida esa ular uchun dvigatel (motor) ishlab chiqarilmoqda.



O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Janubiy Koreya Respublikasi Prezidenti Pak Kin Xe.

O‘zbekiston mintaqaviy tashkilotlar a’zosi. O‘zbekiston mintaqaviy tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi.

Ular ichida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) alohida o‘rin tutadi. 1991-yilda tashkil etilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotiga Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston va Moldova davlatlari a‘zo. Ularning bari sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidagi respublikalar edi. MDHni tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — unga a‘zo davlatlar o‘rtasida uzoq yillar davomida qaror topgan iqtisodiy aloqalarni saqlab qolish edi. Bunga ko‘p jihatdan erishildi ham. Ayni paytda MDH sobiq Sovet Ittifoqi hududida fuqarolar urushi yuz berishining oldini oldi. A‘zo davlatlarning o‘z mustaqilliklarini mustahkamlashda bir-biriga ko‘maklashishiga erishdi.

O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan yana bir mintaqaviy tashkilot — Shanxay Hamkorlik Tashkilotidir (ShHT). Bu tashkilot Xitoyning Shanxay shahrida Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston davlatlari tomonidan tuzildi.

Tashkilotga a‘zo davlatlar terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmni «uch yovuz kuch» deb hisoblaydilar.



Atamalar mazmunini bilib oling

Ayirmachilik — davlat hududining bir qismini ajratib olib, u yerda yangi davlat tuzish uchun kurash.¹

¹ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 1-jild. 53-bet.

Компаниya — savdo yoki sanoat sohasida faoliyat yurituvchi ishbilarmonlar birlashmasi.¹

Korporatsiya — rivojlangan yirik hissadorlik jamiyati.²

Mintaqa — Yer yuzining biror qismi.

Terrorchilik — o‘z maqsadiga erishish yo‘lida raqiblarni qo‘rqitish, yo‘q qilish, aholi o‘rtasida vahima keltirib chiqarish maqsadida qilinadigan zo‘ravonlik harakati.³

Ekstremizm — o‘z maqsadiga erishish yo‘lida eng keskin choralarni qo‘llashga tarafdorlik.⁴

Savol va topshiriqlar



1. O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi munosabatlari O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan munosabatlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
2. O‘zbekistonning Osiyodagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlari bo‘lgan davlatlar bilan munosabatlariga oid ma‘lumotlarni qayd eting.
3. O‘zbekistonning AQSH bilan hamkorligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi qanday maqsadda tuzilgan?
5. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

MUSTAQIL ISH

O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar haqida nimalarni bilasiz?

(Jadvalni to‘ldiring)

T/r	Xalqaro tashkilotlarning nomi	Tashkil etilgan sana	Tashkilotning asosiy vazifasi	O‘zbekiston a‘zo bo‘lib kirgan vaqt	Xalqaro tashkilot ta‘sis etgan mukofot
1.	BMT				
2.	YUNESKO				
3.	YUNISEF				
4.	MDH				
5.	ShHT				

¹ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 396-bet.

² O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2006. 2-jild. 408-bet.

³ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2008. 4-jild. 76-bet.

⁴ O‘TIL. — T.: «ЎЗМЭ». 2008. 8-jild. 28-bet.



XII bob. DUNYO XALQLARI XXI ASRDA

50–51-§. DUNYO XAVFSIZLIGIGA TAHDID



Insoniyat tinchligiga xavf solayotgan kuchlar. Bugungi kunda insoniyat tinchligiga mintaqaviy mojarolar, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm hamda insoniyatning tabiatga nisbatan iste'molchilik munosabati keltirib chiqargan ekologik muammolar dahshatli xavf solmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1997-yildayoq «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» nomli asarida bularning insoniyat tinchligiga solayotgan xavfining ko'lami va oqibatlari haqida batafsil to'xtalgan edi.

Mintaqaviy mojarolar va ularning xavfi. Mintaqaviy mojaro — Yer yuzining biror-bir qismida davlatlar o'rtasida kelib chiqqan o'zaro nizolar yoki birorta davlat hududida yuz berayotgan fuqarolar urushi-dir. Qo'shnimiz Afg'onistonda sodir bo'lgan fuqarolar urushi bunga yorqin misoldir. Bu davlat fuqarolari 35 yildan ortiq davrdan beri tinchlik nima ekanligini bilishmaydi.

Mintaqaviy mojarolarning insoniyat tinchligiga soladigan xavfi nimada?

Avvalo, ular qo'shni davlatlarda tinchlikni xavf ostiga qo'yadi. Ikkinchidan, fuqarolar urushi qochoqlar muammosini keltirib chiqaradi. Uchinchidan, mintaqaviy mojarolarga tortilib qolgan hududlar giyohvand moddalar aylanmasining ko'payishiga, xalqaro terrorchilik harakatining kuchayishiga, noqonuniy qurol-yarog' savdosining avj olishiga olib kelmoqda.

Biz dunyoning turli o'lkalarida davom etayotgan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqatgina siyosiy yo'l bilan, tinchlik yo'li bilan hal etish tarafdorimiz.¹

Xalqaro terrorchilik. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro terrorchilik insoniyat boshiga katta kulfat sola boshladi.

Xalqaro terrorchi kuchlar davlat rahbarlariga, elchilarga suiqasd qilish va o'g'irlash, odamlarni garovga olish, xalqaro tashkilotlar binolarini, aeroport va vokzallarni portlatish, samolyotlarni olib qochish kabi dahshatli jinoyatlarni sodir etmoqdalar.

Hozirgi kunda dunyoning hech bir davlati o'zini xalqaro terrorchilik xavfidan xoli deb hisoblay olmaydi. Xalqaro terrorchi kuchlar 2001-yilning 11-sentabrida hatto AQSHda ham mudhish jinoyatlar sodir etdilar. Terrorchilar shu kuni o'zlari egallab olgan samolyotlarda Nyu-York shahrida joylashgan xalqaro «Savdo markazi»ning juft osmono'par binolarini vayron qildilar. Oqibatda minglab kishilar halok bo'lishdi.

Xalqaro terrorchi kuchlar Rossiya Federatsiyasida ham qator mudhish jinoyat sodir etganligiga tarix guvoh. Ayniqsa, 2004-yilda Beslan shahridagi o'rta maktabda yangi o'quv yili boshlanadigan 1-sentabr kuni sodir etilgan jinoyat eng mudhish jinoyatlardan biri bo'ldi.

Bu jinoyat jahonning barcha tinchliksevar kuchlarini larzaga soldi. Chunki jinoyat natijasida maktab o'quvchilari ham halok bo'lishdi.

Diniy ekstremizm. XX asr oxirlarida diniy ekstremizm ham kuchaydi.

Ekstremizm – maqsadga erishishning keskin choralar – zo'ravonlik, kuch ishlatish va terror qilish yo'li deganidir. Ekstremizmni diniy aqidaparastlik vujudga keltirdi.

Diniy aqidaparastlik – o'z umrini yashab bo'lgan, eskirgan diniy qoidalarni saqlab qolish uchun kurashmoqlikdir. Diniy aqidaparastlar yer yuzining turli mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham diniy qonunlar asosida boshqariladigan davlat barpo etish uchun kurashdilar. Ular 1999-yilning 16-fevralida Toshkentda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga nisbatan suiqasd uyushtirdilar, 2005-yilda

¹ *Islom Karimov.* O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir. «Xalq so'zi» gazetasi. 2015-yil. 11-may.

esa Andijon shahrida bosh ko'tardilar. Biroq O'zbekiston xalqi ularning da'vosini rad etdi.

Oqibatda, aqidaparastlarning rejalari barbod bo'ldi. Afsuski, diniy aqidaparast kuchlar o'z maqsadlaridan hamon voz kechgan emaslar.



O'zingizni sinang

- ◆ Diniy aqidaparastlik – bu
- ◆ Terrorchilik –

Ekologik muammolar. Insoniyat xavfsizligiga ekologik muammolar ham katta xavf solmoqda.

Bu muammo insonlarning tabiatga nooqilona, hatto vahshiyona munosabati oqibatida kelib chiqdi.

Dunyo mamlakatlari qatori O'zbekiston ham ekologik muammolardan xoli emas. O'zbekistonni ayniqsa «Orol fojiasi» deb ataluvchi ekologik muammo qattiq tashvishga solmoqda.

Orol fojiasi uzoq yillar davomida Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryodan yetarli miqdorda suv oqib bormaganligi oqibatida kelib chiqdi. Bir paytlar noyob va go'zal bo'lgan Orol dengizi bugungi kunda deyarli qurib va yo'qolib borayotgan suv havzasiga aylanmoqda.

Yodda tuting!

Keyingi 40 yil ichida Orol dengizining hajmi 7 marta, suvining hajmi esa 13 marta kamaydi.¹

Bor suvning ham sho'rlanish darajasi o'nlab baravar oshib ketdi. Dengiz jonzotlarning yashashi uchun yaroqsiz bo'lib qoldi. Natijada deyarli barcha hayvonot va o'simlik dunyosi halokatga uchradi.

Tinchlik uchun kurash yo'lidagi hamkorlik. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Afg'oniston muammosini hal etishga qaratilgan takliflarni ilgari surdi. Islom Karimov 2010-yilda BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bu haqda O'zbekistonning qarashlarini yana bir bor bayon etdi. O'zbekistonning qat'iy fikricha, chet mam-

¹ *Islom Karimov.* «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». – T.: «O'zbekiston» NMIU. 1997.

lakatlarning harbiy kuchlari Afgʻonistonda tinchlik oʻrnata olmaydilar. Afgʻonistonliklar oʻz muammolarini oʻzlari hal etishlari lozim. Rivojlangan davlatlar esa Afgʻonistonga iqtisodiyotini tiklashda koʻmak berishlari kerak.

Oʻzbekiston xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizmga qarshi kurashda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Orol fojiasining yanada chuqurlashuvining oldini olish borasida BMT va Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

«Shunga qaramay, biz hech qanday harbiy-siyosiy blokka qoʻshilmaymiz, Oʻzbekiston hududida chet el harbiy bazalarining joylashuviga, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz tashqarisida boʻlishiga yoʻl qoʻymaymiz».¹

Chunonchi, Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Markaziy Osiyoning besh davlati oʻrtasida «Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi» tashkil etildi.



**Oʻzbekiston Prezidenti
Islom Karimov va
BMT Bosh kotibi
Pan Gi Mun.**

Islom Karimovning saʼy-harakatlari bilan 2010-yilda BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun Orolboʻyiga tashrif buyurdi. Bosh kotib Orol fojiasining oqibatlarini oʻz koʻzi bilan koʻrdi. Safari yakunida Orol muammosini hal etishda koʻmaklashish yoʻlida harakat qilishini bildirdi.

Islom Karimov BMTning «Mingyillik rivojlanish maqsadlari»ga bagʻishlangan yalpi majlisida yigʻilish qatnashchilariga qarata: «Orol muammosi — bu ushbu mintaqada yashayotgan, BMTdek nufuzli tashkilotga umid bilan yordam soʻrab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir», — deb taʼkidladi.

¹ *Islom Karimov*. Oʻtganlarni xotirlash, keksalarni eʼzozlash — bizning farzandlik burchimizdir. «Xalq soʻzi» gazetasi. 2015-yil. 11-may.

O'zingizni sinang



- ◆ 1999-yil 16-fevralda –
- ◆ 2001-yilda AQSHda
- ◆ 2005-yilda Andijonda

Atamalar mazmunini bilib oling



Aqida – to'g'riligiga shubha qilmasdan, muhokama yuritmasdan ishonilishi lozim bo'lgan qoidalar.¹

Ekologiya – inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan.

Savol va topshiriqlar



1. Qanday kuchlar insoniyat tinchligiga xavf solmoqda?
2. Mintaqaviy mojarolar va uning insoniyatga solayotgan xavfi haqida so'zlab bering.
3. Xalqaro terrorchilikning insoniyat tinchligiga solayotgan xavfi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Diniy aqidaparastlarning maqsadlari nima va ular O'zbekistonda qanday jinoyatlar sodir etdilar?
5. Ekologiya muammolarining paydo bo'lishiga nimalar sabab bo'lgan?
6. «Orol fojiasi» nima va O'zbekiston hukumati uning oqibatlarini kamaytirish borasida qanday ishlarni amalga oshirmoqda?

MUSTAQIL ISH

(Jadvalni to'ldiring)

Mintaqaviy mojarolar va ularning oqibatlari	Xalqaro terrorchi kuchlar sodir etgan mudhish jinoyatlar	Diniy aqidaparastlik		Ekologik tahdid	
		Maqsadlari	Sodir etgan jinoyatlari	Ekologik muammolarning paydo bo'lish sabablari	Orol fojiasining oqibatlarini kamaytirish borasida olib borilayotgan ishlar

¹ O'TIL. – T.: «ЎЗМЭ». 2006. 1-jild. 126-bet.

52-§. XXI ASR – ILM-FAN VA TARAQQIYOT ASRI



Nima uchun XXI asr ilm va taraqqiyot asri deb yuritiladi? Siz deyarli har kuni «ilm» soʻzini eshitasiz. Xoʻsh, ilm nima oʻzi? Ilm dunyoda mavjud boʻlgan bilimlar tizimidir. «Ilm» soʻzi oʻrnida «fan» soʻzi ham ishlatiladi. Ular bir maʼnoni anglatuvchi soʻzlardir. Insoniyatning butun tarixi davomida ilm-fan rivojlanib bordi. Insonning jismoniy mehnatni yengillashtirishga intilishi texnika sohasida ulkan kashfiyotlar, ixtirolarning yaratilishiga olib keldi.

Yodda tuting!

Texnika (mahorat) – insonning mehnatini yengillashtiradigan va inson uchun zarur narsalarni yetarli miqdorda ishlab chiqarishga imkon beradigan mashina, asbob, qurol va moslamalar yigʻindisidir.

Binobarin, texnika – bu ekskavatorlar, turli xil traktorlar, kombaynlar, buldozerlar, yengil va yuk, yoʻlovchi tashuvchi transport vositalari, samolyot, kosmik raketalar, televizor, kompyuter, elektron hisoblash mashinalari, internet tarmoqlari va boshqalardir.

Bir vaqtlar oddiy ketmon bilan kanal qazigan inson keyinchalik ekskavator bilan kanal qaziy boshladi. Bu inson mehnatini qanchalik yengillashtirganini, mehnat unumdorligini qanchalik oʻstirganligini bir tasavvur qiling-a.

Samolyotlarsiz, kompyuterlarsiz, uyali telefonlarsiz yoki internetsiz insonning bugungi hayotini tasavvur etib boʻladimi? Ulkan texnika insonga yer qaʼridan tonnalab yerosti boyliklarini qazib olishga imkon berayotganligiga guvohsiz.

Yoki tibbiyot texnikalarini olaylik. Bu sohada amalga oshirilgan ulkan ixtirolar insoniyatga nima bermoqda? Avvalo, u inson tanasining xastalangan turli aʼzolarini, shu jumladan, yuragini ham koʻchirib oʻtqazish imkonini berdi. Yoki qanchadan qancha xastaliklar jarrohlik tigʻisiz davolanmoqda.

Inson texnika rivoji tufayli hatto Oyga qoʻnishga, kosmik apparatlarni boshqa sayyoralarga ham uchirishga muvaffaq boʻldi. Inson bularning bariga ilm-fan taraqqiyoti tufayli erishdi.

Ilm-fan va texnika taraqqiyotidagi bunday ulkan yutuqlar tarixga ilmiy-texnika inqilobi nomi bilan kirdi. Ilm-fan taraqqiyotiga yuksak

e'tibor bergan davlatlar bugungi kunda har jihatdan rivojlangan davlatlarga aylandilar. Fuqarolari esa farovon yashamoqdalar.

Dunyoda ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan olimlar xalqaro Nobel mukofoti hamda milliy mukofotlar bilan taqdirlanib kelinmoqda. Ilm-fan XXI asrda XX asrdagidan ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Bundan buyon ham mamlakatning iqtisodiy qudratini, ertangi kunini va taqdirini ilm-fan taraqqiyoti hal etadi. Kompyuter yordamida katta hajmli ma'lumotlar yaratish, to'plash, saqlash, qayta ishlash va ularni uzatish oddiy hodisaga aylanib qoldi. Masalan, kompyuterning birgina mitti fleshkasini oling. Unga butun boshli bir necha o'nlab, yuzlab kitoblarni va ma'lumotlarni istalgan miqdorda joylashtirish mumkin.

Odamlar ulardan istalgan joyda foydalana oladilar. Binobarin, axborot texnologiyalari tobora ixchamlashib bormoqda. Texnologiyalarning bunday ixchamlashuvi nanotexnologiya (miliardning bir bo'lagi) deyiladi. U eng zamonaviy texnologiya bo'lib, barcha axborot vositalarini mittilashtirishga imkon beradi. Natijada, kelgusida barcha amallarni bajara oladigan kompyuterlar qo'l soati hajmiga teng bo'ladi. Binobarin, barcha sohalarda qo'llaniladigan asbob-uskunalarga sarflanadigan materiallar xarajati keskin kamaymoqda. Nanotexnologiya sohasida yaratilgan ixtirolar ishlab chiqarish, tibbiyot, ekologiya, aviatsiya, radiotexnika va boshqa ko'plab muhim sohalarda yuqori samaradorlikni ta'minlamoqda.

Bundan chiqadigan xulosa shuki, ilmga intilish yo'qolsa, fan taraqqiy etmaydi. Ilm-fan rivojlanmasa, mamlakatning kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi.

Binobarin, XXI asrda ilm-fan yutuqlari davlatlar taraqqiyotining bosh omili bo'lib qoladi. Shuning uchun ham XXI asr – ilm-fan va taraqqiyot asri, deb yuritiladi.



Nobel mukofoti laureati medali.

O'zingizni sinang
 ♦ Ilm bu –
 ♦ Texnika –

«**Kuch – bilim va tafakkurda**». Ushbu hikmatli soʻzlar Prezidentimiz Islom Karimovga tegishli. Bu hikmatdagi «kuch» soʻzi Oʻzbekistonning maqsadi kelajakda dunyoning rivojlangan, fuqarolari esa farovon yashaydigan davlatlar qatoridan oʻrin olishidir.

«Bilim» soʻzi bu ulugʻvor maqsadning roʻyobga chiqishida mamlakatimizda ilm-fanning qanchalik yuksak taraqqiy etishiga bogʻliqligini anglatadi. «Tafakkur» soʻzi esa mamlakat mutaxassis kadrlarining zamonaviy ilm-fanda toʻplangan yuksak darajadagi bilimlarni chuqur oʻzlashtirib olishlari, oʻzlari ham dunyo ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishlari zarurligini anglatadi.



Zamonaviy kollej.

Oʻzbekiston dunyoning rivojlangan, fuqarolari farovon yashaydigan davlatiga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarga ega.

Xususan, mamlakatimiz yerosti va yerusti boyliklariga boy. Tabiiy sharoiti juda qulay. Yeri unumli, serquyosh kunlari koʻp oʻlka.

Biroq mamlakatning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatga aylanishi uchun bularning oʻzi yetarli emas. Bu, eng avvalo, ilm-fanning qanchalik yuksak taraqqiy etishiga bogʻliqdir. Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib boʻlmaydi.

Ikkinchidan, mutaxassislarning ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishda oʻz burchiga, vazifasiga qanchalik vijdonan yondashishiga ham bogʻliq.

Buni diqqat bilan oʻqing!

«Yaponiya va Janubiy Koreyaning biznikidek ulkan tabiiy boyliklari bormi? Yoʻq. Lekin, dunyoning eng ilgʻor texnologiyasi ana shu mamlakatlarda joylashgan».

Islom Karimov

Shuning uchun ham Oʻzbekiston davlati mamlakatda ilm-fan ahliga — olimlarga samarali ishlashlari uchun zarur sharoit yaratib berishni asosiy vazifalardan biri deb hisoblaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy ilm-fan markaziga aylanishi uchun ko‘p ishlar amalga oshirildi. Prezident Islom Karimov Fanlar akademiyasi olimlari bilan bir necha bor uchrashdi. Akademiya ish samaradorligini oshirishga qaratilgan hukumat qarori ham qabul qilindi.

Ayni paytda olimlarning dunyo fani yutuqlaridan to‘la xabardor bo‘lishi masalasiga ham katta ahamiyat berildi. Bu o‘rinda har bir olimning birorta chet tilini puxta bilishi rag‘batlantirilmoqda.

1997-yilda Respublikamizda «Umid» jamg‘armasi tuzildi. Bundan maqsad — iste’dodli yoshlarni saralab olib, ularning chet ellarda o‘qishini qo‘llab-quvvatlash edi. Keyinchalik «Iste’dod» deb ataluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti jamg‘armasi tuzildi. Yoshlarni chet ellarda o‘qitish orqali dunyo tajribasini o‘rgangan, yuqori malakali mutaxassislar sonining ko‘payishiga erishildi. Oliy o‘quv yurtlarida fanning turli sohalarini puxta egallayotgan, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan eng iste’dodli talabalari va yosh olimlar o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Prezidenti stipendiyasi, «Navoiy», «Beruniy» va «Kamolot» stipendiyalari sohibi bo‘lmoqdalar. Hukumatimiz ilm-fan va texnika sohasida ulkan yangiliklarni amalga oshirayotgan olimlarni ham taqdirlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini ta’ sis etdi.

Hech shubha yo‘qki, qisqa tarixiy davr ichida O‘zbekiston ham ilm-fan taraqqiyotida dunyoning eng ilg‘or davlatlaridan biriga aylanadi. Bunda esa, albatta, Sizlarning a‘lo baholarga o‘qishingiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy shaxs va atamalar mazmunini bilib oling



Alfred Nobel — shvetsiyalik ixtirochi, dunyoda birinchi bo‘lib dinamit (portlovchi modda)ni ixtiro qilgan. O‘limidan oldin o‘z boyliklari hisobidan xalqaro mukofot ta’ sis etishni vasiyat qilgan.

Stipendiya — oliy o‘quv yurtlari talabalariga belgilangan tartibda har oyda to‘lab turiladigan pul.

Ilmiy-texnika inqilobi — ilm-fan va texnika sohasidagi tub o‘zgarishlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T.: «O'zbekiston» NMIU. 2008.
2. *Karimov I.A.* «Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz». – T.: «O'zbekiston» NMIU. 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston» NMIU. 2014.
4. *Ivanin M.* «Икки буюк саркарда». – T.: «Fan» nashriyoti. 2000.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: «ЎзМЭ». 1–12-jildlar. 2002–2005.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: «ЎзМЭ». 1–5-jildlar. 2006–2007.
7. *Mahkamov A.* Rasmlarda Vatan tarixi. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti. 1996.
8. «Bola huquqlari to'g'risida»gi xalqaro Konvensiya. – T.: «Adolat» nashriyoti. 1991.
9. «O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari to'g'risida»gi qonuni. – T.: «O'zbekiston» NMIU. 2012.
10. *Q. Rajabov* va boshq. O'zbekiston tarixining eng asosiy sanalari». – T.: «O'zbekiston» NMIU. 2012.
11. *Q. Rajabov* va boshq. Jahon tarixining muhim sanalari. – T.: «Sharq» NMAK. 2011.

MUNDARIJA

Kirish: Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.....3

I bob. Tarix fani nimani o‘rganadi?

1-§. Tarixiy manbalar.....7
 2-§. Kalendarlar tarixidan.....9
 3-§. Tarixda yil hisobi.....12
 4-§. Dunyo xaritasi tarixi.....15

II bob. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlari

5-§. Eng qadimgi odamlar va ularning manzilgohlari.....19
 6-§. Qadimgi odamlarning turmush tarzi.....21
 7-§. Arxeologiya tarixidan.....25

III bob. Kishilik madaniyatining shakllanishi

8-§. Qoyatosh suratlari.....28
 9-§. Yozuv – insoniyatning buyuk kashfiyoti.....31
 10-§. «Avesto» – ajdodlarimiz yaratgan ilk yozma tarixiy manba.....34
 11-§. Muzeylar.....37

IV bob. Dastlabki sivilizatsiyalar, shaharlar va davlatlar

12-§. Yevropa va Amerikada dastlabki sivilizatsiyalar41
 13-§. Qadimgi shaharlarning paydo bo‘lishi.....45
 14-§. Dunyoning qadimgi davlatlari.....48
 15-§. Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi.....51
 16-§. O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar.....54

V bob. Savdo va aloqa

17-§. Tangalar – tarix guvohi.....58
 18-§. Savdo yo‘llari.....61
 19-§. Yangi dengiz savdo yo‘llarining ochilishi.....64
 20-§. Ishlab chiqarish texnikasining paydo bo‘lishi.....67
 21-§. Transport vositalarining ixtiro etilishi.....70
 22-§. Aloqa vositalarining ixtiro etilishi.....73

VI bob. Vatanimizda va Yevropada ilm-fan taraqqiyoti

23-§. Maktab – bilim o‘chog‘i.....	78
24-§. Yurtimizning buyuk allomalari.....	82
25-§. Mirzo Ulug‘bek va uning akademiyasi.....	86
26-§. Yurt obodonchiligi, adabiyot va san‘at.....	89
27-§. Yevropada ilm-fan kashfiyotlari.....	93
28-§. Turkiston ma‘rifatparvarlari.....	95

VII bob. Ozodlik uchun kurashgan qahramonlar

29-§. To‘maris va Shiroq jasorati.....	99
30-§. Spitamenning qahramonligi.....	102
31-§. Arablarga qarshi xalq ozodlik kurashi.....	105
32-§. Jaloliddin Manguberdi xalqimizning milliy qahramoni.....	108
33-§. Sohibqiron Amir Temur.....	112
34–35-§. Rossiya imperiyasi va Sovet mustamlakachiligi.....	115

VIII bob. O‘zbekistonning qadimgi shaharlari, tarixiy yodgorliklari

36-§. O‘zbekistonning tarixiy shaharlari.....	120
37-§. O‘zbekiston poytaxti Toshkent – 2200 yoshda.....	125
38–39-§. O‘zbekistonning tarixiy-me‘moriy yodgorliklari.....	129

IX bob. Insoniyat tarixidagi jahon urushlari

40-§. Birinchi jahon urushi.....	134
41-§. Birinchi jahon urushi va Turkiston	137
42-§. Ikkinchi jahon urushi.....	140
43-§. Gitler Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alabaga O‘zbekistonning qo‘shgan hissasi.....	143

X bob. Jahonda tinchlik va hamkorlik uchun kurash

44-§. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).....	148
45-§. BMT va dunyo bolalari.....	152

XI bob. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida

46-§. O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi.....	155
47-§. O‘zbekiston iqtisodiyotidagi yutuqlar.....	158
48-§. Ma‘naviy va ma‘rifiy yuksalish.....	162
49-§. O‘zbekiston va jahon.....	167

XII bob. Dunyo xalqlari XXI asrda

50–51-§. Dunyo xavfsizligiga tahdid.....	171
52-§. XXI asr – ilm-fan va taraqqiyot asri.....	176
Foydalanilgan adabiyotlar	180

**Usmon Toshpo‘latovich JO‘RAYEV,
Qamar USMONOV,
Adham Yarashboyevich NURQULOV,
Gulira‘no Usmonovna JO‘RAYEVA**

TARIXDAN HIKOYALAR

*Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining
5-sinfi uchun darslik*

2-nashri

*Muharrir Umida Sodiq qizi
Badiiy muharrir Jahongir Badalov
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhah Umida Rajabova
Kompyuterda teruvchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2015-yil 25-mayda ruxsat etildi. Bichimi 70×90¹/₁₆. Tayms TAD garniturası. Keglı 12. Shartlı bosma tabog‘ı 13,45. Nashr tabog‘ı 11,1. Adadı 444049 nusxada. Shartnoma № 39—2015. Buyurtma № 15—264.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Jo‘rayev, U.

J96 Tarixdan hikoyalar: umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/U. Jo‘rayev [va boshq.]; mas‘ul muharrirlar O‘. Mavlonov. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2015 – 184 b.
ISBN 978-9943-05-737-1

**UO‘K: 372.893(075)
KBK 63.3(50‘)ya72**

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T. r.	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqklar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi